Farmonda ko'rsatilgandek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Bosh prokuraturasi hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda «Jinoyat kodeksi» ga va «Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks» ga statistik hisobotni yashirganlik va buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish nazarda tutilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

### **2.3. Strategiyali rejalashtirishning sub'ektlari**

Strategiyali rejalar bunday rejalashtirishning sub'ektlari – xo'jalik manfaatlari bo'yicha ish ko'ruvchilar tomonidan tuziladi va amalga oshiriladi. Ierarxiya tamoyili bo'yicha hokimiyat organlari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida quyidagi darajalar belgilangan:

1. Makrodarajada – xalq xo'jaligini umumiy olganda;
2. Mezodarajada – alohida hududlar (qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar);
3. Mikrodarajada – alohida firmalar (korxonalar, zavod, fabrika muassasalar).

Ularning har birida umumdavlat va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar tegishli ravishda himoyalanaadi.

Hozirgi vaqtda strategiyali rejalashtirish sub'ektlari orasida markaziy organlar rolining kuchayishi sezilmoqda va strategik

rejalashtirishni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi organlarga qaraganda amalga oshiruvchi organlar ko'proq erkinlashayapti.

## **2.4. Strategik klassifikasiya**

Strategik boshqarishda qo'llaniladigan strategiyaning turli-tumanligi tasnifni qiyinlashtiradi. Tasnif alomatleri orasida quyidagilari ayniqsa ahamiyatlidir:

- qarorlar qabul qilish darajasi;
- raqobat ustunliklariga erishishning asosiy konsepsiyasi;
- tarmoqning hayotiy davr bosqichi;
- tashkilot tarmoqli holatining nisbiy kuchi;
- raqobat kurashida tashkilotning o'zini tutish

«agressivlik» darajasi.

Tasnifning murakkablashgan omillari aksariyat strategiyalarni birgina alomatlaridan, bir ma'noda aniqlanmaganligidan iboratdir.

Barcha strategiyalarni uch xil alomatlar bo'yicha tasniflash tavsiya qilinadi:

- beshta asos soluvchi strategiyaga mansubligi, raqobat ustunligiga erishish (global strategiya);
- biznes doirasi portfeli, boshqaruv strategiyasiga mansubligi (portfelli strategiya);
- tashqi va ichki sharoitga qarab qo'llaniladigan strategiyaga mansubligi (funksional).

2.1. Tashkilot tashqi va ichki muhiti tahlili.

2.2. «Milliy romb» konsepsiyasi va tarmoqli klasterlar.

Tizimli xarita, nihoyatda umumlashirilgan ko'rinishga ega va strategik boshqarishning, u yoki bu vazifalarini echish uchun qo'llanishida aniqlashtirishni talab qiladi. «Nima uchun davlatlararo raqobatda, biri muvaffaqiyatga erishsa, boshqalari mag'lubiyatga uchraydi? Iqtisodga bog'langan bu savollardan, ehtimol, aynan shu bizning davrda ayniqsa ko'proq yangraydi».- deb ta'kidlab o'tadi taniqli iqtisodchi M.Porter va asoslangan javob topishga harakat qiladi. Bu muomala uning nazarida qo'yilgan savolni oydinlashtirishga chaqirilgan «milliy romb» modelini shakllantiradi. Tavsiya qilingan modelda M.Porter, o'zi tavsiya qilgan, tarmoqning raqobat ustunligini baholash, ularning paydo bo'lish qonuniyatlari, rivojlanishi va kamayishi tahlili asosida to'rtta asos bo'ladigan tushunchani kiritadi:

Birinchiidan, «Omillarning ko'rsatkichlari» deganda, mamlakatda joylashgan firmalar ishlab chiqarish jarayonining raqobat ustunligi vujudga kelishi uchun zaruriy moddiy va nomoddiy sharoitlar nazarda tutiladi. Omillar bo'lib chiqishi mumkin: ishchi kuchi, qishloq xo'jalik mulklari, tabiiy manbalar, telekommunikasiya, yo'llar, sog'liqni saqlash va hokazo. Bu omillarning parametrlariga qarab, ular tashkilotning, yoki imkoniyatlari sifatida yoki ular uchun tahdid sifatida chiqishi mumkin;

Ikkinchiidan, firma strategiyasi, ularning tuzilishi va raqobat;

Uchinchiidan, ehtiyoj parametrlari ta'riflaydigan ko'rsatkichlar: tovar sifatiga iste'molchilarning talabchanligi, masalan, narx bo'yicha talabning elastikligi va daromad darajasi; ijtimoiy guruhlarning birorta ehtiyojning muhimligini anglash darajasi; milliy an'analar; hayotiy davr fazalari; talab tuzilishi hamda uning dinamik ko'rsatkichlari;

To'rtinchiidan, o'xshash va bir-birini qo'llovchi tarmoqlar – bular ushbu tarmoqlarning iste'molchilari va ta'minlovchilari hisoblanadi.

Konsepsiyaning asosiy g'oyasi – raqobat ustunligi davlat miqyosidagi tarmoqlar, bir-biriga sezilarli darajada ta'sir etadigan davlatning raqobat ustunligi deatamaantlari orqali aniqlanadi.

Ushbu modelga Porter yana ikki omilni kiritadi: tasodifiy voqealar va hukumat harakati. Tasodifiy voqealar deganda Porter quyidagilarni nazarda tutadi: global, korporativ, funksional raqobat strategiyasi.

Hujumkor strategiya va strategiyaning mudofaaga qaratilgan diverisifikasiyalanishi bilan bog'langan xarajatlarini minimizasiyalash. Fokuslash strategiyasi. Bog'lanmagan strategiya. Vertikal diversifikasiyalash strategiyasi.

Differensiasiyalash integrasiya strategiyasi. Kapitalni surib olish va tugatish strategiyasi. Tarmoq peshqadamlar innovasiya strategiyasi uchun strategiya. O'zgarish strategiyasi.

Restrukturlashning tez yo'nalish strategiyasi. Tarmoq tashkilotlari faoliyatini oddiy sezish uchun strategiyalar. Halqaro strategiya. Krizis vaziyatlarda tashkilotlarning zaif diverisifikasiyasi uchun strategiya.

Tarmoqlar va boshqalar hayotiy davrining turli bosqichlaridagi raqobat strategiyasi.

- kashfiyot;
- qoloq texnologiya;
- manbalar narxining keskin o'zgarishi;
- jahon moliyaviy bozorida yoki almashtirish kursida keskin o'zgarish;
- mahalliy va xalqaro ehtiyojning keskin o'zgarishi;
- mahalliy va chet el hukumatlarining siyosiy qarori;
- urushlar va boshqa fors- major hollari.

Hukumat harakati ostidagi muhit, deganda Porter, amalga oshiruvchi organlar, davlatning pul-kredit, soliq, bojxona siyosatiga ta'sirini tushunadi. Shu bilan birga hukumat ham ishlab chiqaruvchilarga, ham iste'molchilarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan normalar, standartlarni aniqlaydi. Bundan tashqari, hukumat - iqtisodda yirik bu'urtmachidir. Hukumat ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

Strategik rejalar ishlab chiqiladi va amalga oshirish xo'jalik manfaatlarini bajaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ular strategik rejalashtirish sub'ektlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Vazirligi strategik rejalashtirishni amalga oshirishda asosiy organ sanaladi.

Strategik rejalashtirish ob'ektlari ierarxik boshqaruv darajalariga qarab ajratiladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi strategik rejalashtirishni amalga oshirishda asosiy organ hisoblanadi.

birinchidan, «Omillarning ko'rsatkichlari» deganda, mamlakatda joylashgan firmalar ishlab chiqarish jarayonining raqobat ustunligi vujudga kelishi uchun zaruriy moddiy va nomoddiy sharoitlar nazarda tutiladi. Omillar bo'lib chiqishi mumkin: ishchi kuchi, qishloq xo'jalik mulklari, tabiiy manbalar, telekommunikasiya, yo'llar, sog'liqni saqlash va hokazo. Bu omillarning parametrlariga qarab, ular tashkilotning, yoki imkoniyatlari sifatida yoki ular uchun tahdid sifatida chiqishi mumkin;

ikkinchidan, firma strategiyasi, ularning tuzilishi va raqobat;

uchinchidan, ehtiyoj parametrlari ta'riflaydigan ko'rsatkichlar: tovar sifatiga iste'molchilarning talabchanligi, masalan, narx bo'yicha talabning elastikligi va daromad darajasi; ijtimoiy guruhlarining birorta

ehtiyojning muhimligini anglash darajasi; milliy an'analar; hayotiy davr fazalari; talab tuzilishi hamda uning dinamik ko'rsatkichlari;

to'rtinchidan, o'xshash va bir-birini qo'llovchi tarmoqlar – bular ushbu tarmoqlarning iste'molchilari va ta'minlovchilari hisoblanadi.

### **Tayanch iboralar.**

Hujumkor strategiya va strategiyaning mudofaaga qaratilgan diversifikasiyalanishi bilan bog'langan xarajatlarini minimizatsiyalash. Fokuslash strategiyasi. Bog'lanmagan strategiya. Vertikal diversifikasiyalash strategiyasi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Strategik rejalashtirish ob'ektlariga nimalar kiradi?
2. Strategik rejalashtirish sub'ektlari kimlar ?
3. O'zbekiston Respublikasi mavofiqilashtirish markazining strategik rejalashtirishning davlat sub'ektlari sifatidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat ?
4. Mamlakatni rivojlantirishning strategik dasturiga qanday asosiy vazifalar qo'yilgan?
5. Strategik boshqarish klassifikatsiyasi nimadan iborat ?
6. «Milliy romb» modeli omillariga nimalar kiradi ?
7. Tarmoqlar va boshqalar hayotiy davrining turli bosqichlaridagi raqobat strategiyasi.
8. Kashfiyot;
9. Qoloq texnologiya;
10. Manbalar narxining keskin o'zgarishi;

### **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
3. Gurkov I.B. Strategicheskiy menedjment organizatsii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
4. Kravchenno R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informatsiyo – M.: Spark, 2002.
5. Dadaboev YU.T., Mamutova X.SH. «Strategicheskoe planirovanie» - Farg'ona, 2000 y.

6. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uroshmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.
7. Buxalkov M.I. «Vnutrifirmennoe planirovanie» uchebnik 2-aidanie Moskva INFRA-M 2001.

#### **Internet ma'lumotlari.**

9. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
10. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
11. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
12. «Xalqaro valyuta fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
13. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)
14. [Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Razrabotka strategii](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section) | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
15. [Texnologii korporativnogo upravleniya \*\*Strategicheskoe planirovanie\*\* i upravlenie. Sistema sbalansirovanno'x pokazateley \(B...](http://www.iteam.ru/conferences/739/) Kb - <http://www.iteam.ru/conferences/739/>
16. [Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Missiya firmo'](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section) | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
17. [Strategicheskoe biznes planirovanie, strategicheskii plan : MD-Marketing](http://md-marketing.ru/strategy/planning.html) Kb - <http://md-marketing.ru/strategy/planning.html> [md-marketing.ru](http://md-marketing.ru)
18. [Goroda i reformo'](http://lab.obninsk.ru/goroda/04-3.php) Kb - <http://lab.obninsk.ru/goroda/04-3.php> [lab.obninsk.ru](http://lab.obninsk.ru)
19. [Dis.Ru Forum - strategicheskoe planirovanie](http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma...) Kb - <http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma...> -[dis.ru](http://www.dis.ru)

### **3-BOB: STRATEGIK REJALASHTIRISH SUB'EKTLARI TOMONIDAN QAROR QABUL QILISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR.**

#### **3.1. Strategik rejalashtirish sub'ektlari tomonidan qaror qabul qilishda qo'llaniladigan usullar.**

Strategik rejalashtirish prognozlar asosida qabul qilinadigan qarorlarni ko'zda tutadi.

Ishlab chiqish jarayonida qabul qilinayotgan strategik rejalashtirish qarorlari, bir-biriga bog'liq elementlar tizimini tashkil qiladi, chunki bu tizim juda ulkan va murakkab. Strategik rejalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, buning ustiga har bir avvalgi bosqich, hech bo'lmaganda, yana bir bosqichni hisobga olgan holda baholanadi va qayta baholanadi.

Tizim uchun ishlab chiqilayotgan strategik rejalashtirish ba'zi bir dinamik tizim sifatida qaraladi. Bu shuni bildiradiki, strategik rejalashtirish ko'rib chiqilayotgan tizimlarining ishlab turish sharoitlari uzluksiz o'zgaradi va tegishli tuzatuvlar ta'sirining yo'qligi uchun bu o'zgarishlar tizimga ta'sir ko'rsatadi;

Uzoq muddatli rejalashtirishni rad etish, yoqimsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ko'pgina firmalarning uzoq muddatli rejalashtirish bilan shug'ullanmasligiga sabab, bu firmalar rahbarlarining, tegishli ishlarni olib bormasligi natijasida o'z ishlariga keltiradigan ziyonni e'tirof qilmasligida emas. Uzoq muddatli strategik reja yo'qligi uchun rahbar tez-tez og'ir vaziyatlar bilan to'qnashadi. Keyingi davrni qamrab oluvchi uzoq muddatli rejalashtirish uchun esa vaqt qolmaydi.

Strategik rejalashtirish bunday vaziyatlar ro'y berishining oldini olishi mumkin. Strategik rejalashtirishning yo'qligi og'ir ahvolni yaratishi sababli, strategik rejalashtirish kishilar amaliy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishini kasb etadi. Bashorat, konsepsiyalar, dastur loyihalari va rejalar shaklidagi, strategik qarorlarni ishlab chiqishda tarkib topgan rejaviy ishlar, bunday maqsadlarga erishish va tegishli boshqaruv ob'ektlarining strategiyasini nazarda tutadi. Buni amalga oshirish natijasida uzoq kelajakda tashkilotning unumli ishlab turishi, tashqi muhit sharoitining o'zgarishiga tez moslashuvini ta'minlaydi.

Shunday ekan, strategik rejalashtirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'rta va uzoq (1 yildan ko'p davr) kelajakka intilish;
- rejalashtirilgan tizimlarni aniqlab beruvchi, muhim maqsadlarni echishda mo'ljalga erishish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon;

- hozirda va rejalashtirilgan kelajakda, mo'ljallangan maqsad-lar, manbalar tuzilishi va hajmi bilan organik bog'lanishga erishish talabini yaratadi;

- rejalashtirilgan ob'ektga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ko'p sonli tashqi omillarning ta'sir etishi yoki ular harakatini bartaraf qilish hamda rejalashtirilgan tizimda strategik vazifani muvaffaqiyatli echishda bu omillarning ijobiy ta'siridan foydalanishni hisobga olish;

- adaptiv xarakter, ya'ni rejalashtirilayotgan ob'ektning tashqi va ichki muhitda o'zgarishini oldindan ko'ra olish qobiliyati va uni ish jarayoniga moslashtirishdir.

Tegishli boshqaruv sub'ektlarining amaliy faoliyati jarayoni sifatida qaraladigan strategik rejalashtirish, uning mohiyatini qamrab oluvchi o'z mazmuni, faolligi va strategik qarorlar, prognozlar, strategik dasturlar loyihalari va rejalarini ishlab chiqish muolajalaridan iboratdir.

Strategik rejalashtirishning mohiyatini uning muolajalari ochib beradi. Makroiqtisodda strategik rejalashtirishning asosiy muolajalari quyidagilardan iboratdir:

- strategik bashorat qilish (bashoratlarni ishlab chiqish);
- dasturlashtirish (konsepsiya loyihasi, strategik dasturlar);
- milliy iqtisodda turli darajadagi rejalarini loyihalash.

Bashorat qilish - kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar borishining ilmiy bashorati, taxminlarni tuzish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellaridir.

Boshqaruv ta'siri qanday natijalar berishi mumkinligini baholashda ulardan kutilayotgan qulay va noqulay oqibatlar qandayligini bilish, bashorat qilish, strategik rejalashtirishning boshlang'ich bosqichi sifatida nihoyatda zarur.

Har xil muqobil ish usullarini o'rganish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishda bashoratlar, odatda, bir qancha variantlardan tuziladi.



Bashorat, talab qilinadigan resurslarni oldindan aniqlash va baholash rasional strategiyaning boshqarma qarorini tanlashga yordam beradi.

Strategik rejalashtirish - iqtisodni boshqarishning muhim bir vazifasi va tarkibiy qismidir. Strategik rejalashtirish- reja tuzish- bo'lajak ish usullari, iqtisodiy traektoriyani aniqlash, ya'ni belgilangan maqsadga olib boruvchi rejalar mazmuni va ketma-ketligi hamda belgilangan so'nggi natijalarni o'rnatishdir, bashoratdan farqli ravishda reja (taxmin), gepoteza, taxmin emas, balki vazifa belgilashdir.

Strategik iqtisodiy rejalar, odatda, amalga oshirish natijasida erishiladigan ko'rsatkichlar to'plami hamda qabul qilingan strategik qarorlar bajarilishini aks ettiradi. Bozor iqtisodida, hukumat markaziy organlari tomonidan yuqoridan pastga yo'naluvchi va etkazuvchi davlat direktiv rejalari ommabop emas.

Har bir xo'jalik boshqaruvchi sub'ekt, o'z strategik ish rejasini o'zi tuzishga haqli, ya'ni o'z-o'zini rejalashtirish ro'y beradi. Firmalar o'z faoliyatini juda puxta rejalashtiradi. Ular boshqalarga nisbatan qisqa muddatli, kundalik rejalar bilan birga, 5, 10, 15 yillarga mo'ljallangan uzoq muddatli rejalar ham ishlab chiqadi, qabul qiladi va bajaradi. Strategik reja tarkibi quyidagi manbalardan iborat:

- tashkilot vazifasi, shakli va topshirig'i;
- maqsadlar;
- bozorning boshlang'ich vaziyati;
- tashkilot strategiyasiga ta'sir etuvchi omillarga baho;
- xavf va imkoniyatlar bahosi;
- xo'jalik portfelining rivojlanish strategiyasi;
- tartibga solinadigan omillardagi strategik o'zgarish;
- kutilayotgan moliyaviy natijalar.

Ko'pincha direktiv xarakterdagi emas, balki bashorat (strategik) xarakteridagi davlat rejalari ham tuziladi - tegishli rejalar **indikativ** deb ataladi.

Iqtisodiy dasturlar, ba'zan maqsadli deb ataladigan, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilishni ifodalaydi: kompleks (strategik rejalashtirishning oliy shakli).

Dasturning bunday turi rejaga yaqin, ammo bu reja emas, negaki dastur, birgina muammoni echishga, birgina maqsadga erishishga (alohida strategiyani ishlab chiqish) yo'llangan.

Dastur, rejaga nisbatan, yanada batafsilroq ishlab chiqiladi, unda vazifalar, maqsadlar aniq ifodalanib, belgilangan maqsadga olib boruvchi barcha asosiy tadbirlar, ish usuli ko'zda tutiladi. Ularni amalga oshirish muddati va ijro etuvchilar, zaruriy manbalar va ularni olish manbai aniqlanadi. Mamlakatning zaruriy, jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tezlik bilan echish uchun, boshqalarga nisbatan ko'proq kompleks iqtisodiy dasturlardan foydalaniladi. Makroiqtisod strategik rejalashtirishdagi dastur deganda, ilmiy tarzda oldindan ko'rish – tadbir maqsadlari va tizimlarini to'g'ri aniqlashga asoslangan va manbalari, bajarilish muddatlari hamda amalga oshiruvchilari bo'yicha o'zaro kelishilgan bu maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan 5, 10, 15 va undan ko'proq yildan keyingi aniq muddatli qandaydir muayyan ob'ekt boshqaruvining holati tushuniladi. Maqsadli kompleks strategik dasturlar strategik rejalashtirish jarayonida ishlab chiqilayotgan dastur tizimida alohida o'rin egallaydi.

### **3.2. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi.**

Strategik rejalashtirish ikki bosqichdan iborat: ishlab chiqarish prognozlarini (gepotez) va strategik rejalar.

Qaror nazariyasini ishlab chiqish o'tgan asrning 50-yillarda harbiy taktik operatsiyalarni avtomatlashtirish tariqasida bajarilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixiy rejada harbiy zaruriyat, aviatsiya yoki raqamli hisoblash mashinalariga o'xshash yangi texnik vositalar bilan birga, ko'pincha yangi tashkiliy shakllar va jamoat jarayoniga yangicha yondashish fikri kiritilgan. Natijada bunday mukammallashtirish tinchlik maqsadida qo'llanishga moslashgan.

Yangilikning bunday turi harbiy qo'mondonlik (ya'ni boshqaruv) sohasida ham paydo bo'ldi. Zarurat bo'yicha, harbiy harakatlarni kengaytirish tezlanishiga qarab, taktik qarorlar bilan birga (harbiy operatsiyalar borishining kundalik boshqaruvi) strategik rejalashtirishga nisbatan (taktik qarorlarni qabul qilishda, bo'lishi mumkin hodisalarni ko'zda tutuvchi, ish usulini belgilovchi va oldindan o'rnatilgan tartibi) e'tibor o'zgarishi iuz berdi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun, «taktik mulohaza va tajriba» harbiy qarorlarini formal qoida va muolaja (prosedura) kompleksida qayta qurish kerak. Bu qayta qurish, majburiydir, chunki zamonaviy harbiy harakatlar sur'ati inson organizmining ta'sirlanish imkoniyatidan oshadi. Butun o'n yilliklar davomida minglab kishilar, taktik harbiy

qarorlar zaminida yotuvchi, harbiy qarorlarni qabul qilish va tezkor operativ harakatlarni avtomatlashtirish jarayonini o'zgartirish bilan mashg'ul edilar. Shu bilan birga, shu narsa aniq isbotlangan ediki, puxtalik va rasmiyatchilik bilan tanlangan qoidalar, kishilar mulohazasi orqali yaratilgan va shoshilinch sharoitda qabul qilingan yoki harbiy qo'mondonlarning etarli bo'lmagan amaliy tajribasi asosida yoki nihoyat epchillik bilan ajralib turmaydigan yirik tashkilotlar ta'siri ostidagidan ko'ra, ko'proq mukammallashgan qisqa muddatli taktik qarorlarni ta'minlashi mumkin bo'ldi.

«Mashina mening harbiy ma'lumotim va jangovor tajribamni almashtirishga qurbi etmaydi» bayonoti ostida, 1950 yil harbiy-taktik qarorlar qoidasini formatlashtirish ustida, ish boshida uchratgan o'sha kishilarni o'zi, 10 yildan so'ng harbiy - jangovor farmoyishni avtomatik ravishda berishni eng yaxshi va mutlaqo to'g'ri varianti sifatida qabul qilishdi. Bunday yo'l bilan olingan amaliy tajriba qaror qabul qilish va «etarli ma'lumotli mulohaza» deb ataladigan atama mazmunini aniqlashda asos bo'ladi.

Bu qarorlardan zarurligi uchun, hozirgi vaqtda, boshqaruv tizimi va xususan, uning asosiy funksiyasi – rejalashtirishni o'rganish uchun foydalanish mumkin.

Harbiy ish sohasida ham, hozirgi vaqtda xo'jalik rahbarlari tomonidan qabul qilinadigan qaror amaliyoti, asoslangan qat'iy ma'lum bazis mavjudligiga biz ishonamiz. Ularning qarori «iroda erkinligi» to'liq muomala bo'lmasdan, balki atrofdagi sharoitlar bilan qat'iy o'zaro bog'langandir. Modomiki, shunday ekan, bu qarorlarni tartibga solishda, qonun o'rnatish va tizimlarni ishlab chiqish hamda iqtisodiy ahvoliga ushbu qonun ta'sirini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Albatta, tuzilishning dinamik tabiati, birgina rejalashtirishning o'ziga xos modellari kirishini mushkullashtiradi. Shuning uchun, strategik rejani turli elementlarini o'rganishga kirishishdan oldin, 5-chizmada ko'rsatilgan, strategiyali rejalashtirish jarayoni modelini ko'rib chiqamiz.

Tuzilma -ning shakl va vazifasi	Tuzilma ning maq sadi	Tuzilma tahlili va bahosi	Kuchli va zaif tomonlar ni tekshirish	Strategiy ali muqobill ik tahlili	Strat egiy a-ni tanla sh	Strategiy a-ni amalga oshirish	Strate - giyag a baho
--	--------------------------------	------------------------------------	---	--	--------------------------------------	---	-----------------------------------

5-chizma. Strategiyali rejalashtirish jarayoni

5-chizmadan ko'rinib turibdiki, strategiyali rejalashtirish jarayoni quyidagi bloklardan iborat: tuzilma shakli va vazifasini ishlab chiqish, tuzilma maqsadlari, tashqi muhit tahlili va bahosi, xususiy tuzilmaning kuchli va zaif tomonlarini tekshirish, strategik muqobil tahlil, strategiyani tanlash.

Shuni aytish kerakki, umumiy strategiyali rejalashtirishni, nizoli va doimo o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, doimiy tuzatilishi muqarrarligini tushungan holda, tuzilma faoliyatini uzoq davom etadigan davrga yo'naltirilgan dastur sifatida qarash zarur.

### **3.3. Strategik dasturning mazmuni.**

Strategik dasturning mantig'i va mazmuni uning quyidagi tuzilish elementlarini ochib beradi:

- rejalashtirilgan davrda, strategik rejalashtirish sub'ektlari ketidan boruvchi, maqsadlar yoki maqsadlar tizimini aniqlash va ta'riflash (bu strategik rejalashtirish mantig'ining jo'natish joyi, uning bosh g'oyasi);

- strategik rejalashtirish ob'ekti rivojlanishi boshlang'ich darajasining rejalashtirilayotgandan avvalgi davrda va erishilgan darajadagi parametrlarini aniqlash hamda bu davr boshidagi tuzilish analizi;

- tegishli strategik rejalashtirish ob'ektlarining harakat qilishi natijasida rejalashtirilayotgan davrda jamiyat ehtiyoji hajmi va tuzilishini aniqlan;

- rejalashtirilayotgan davr boshida va rejalashtirilayotgan davrda yangi yaratilayotgan, mavjud bo'lgan manbalarning hajmi va tuzilishini aniqlash;

- vaqtinchalik qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish yo'li bilan ular orasidagi nomuvofiqlik, ehtiyojlarni tartibga solish asosida va boshqarmali qarorlarni strategik bashorat shaklida tayyorlash orqali turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim osti ehtiyojlari va manbalarini moslashtirish hamda muvozanatga keltirish.

Strategik rejalashtirishning mazmuni va mohiyatini aniqlash orqali rejalashtirilayotgan davrda tegishli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga qo'yiladigan maqsadlarning vujudga kelish jarayoni asosiy o'rin egallashi kelib chiqadi.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadlar deganda, kelajakning ma'lum fursatida rejalashtirish tegishli sub'ekti harakatining istalgan holati yoki natijalari tushuniladi.

Vazifalar - strategik rejalashtirish davri mobaynida, vaqtning ma'lum fursatida erishilishi ma'qul bo'lgan maqsadlardir.

Rejalashtirilgan davr mobaynida vazifalar amalga oshirilmasligi mumkin, ularning amalga oshirishini hamma vaqt ham kutib bo'lmaydi.

Erishib bo'lmaydigan, lekin cheklanmagan holda yaqinlashish mumkin bo'lgan maqsad ideal deb ataladi.

Strategik rejalashtirishning har qanday sub'ekti, maqsad va vazifalarning vujudga kelish bosqichida quyidagilardan iborat:

1. Rejalashtirilayotgan tashkilotning vazifalarini aniqlashni maqsad qilib qo'yishi so'nggilarning o'ziga xos bajarilish jadvaliga erishish imkonini beradi.

2. Har birining bajarilish jarayoni baholash mezonini ishlab chiqish va barcha maqsadlarni aniq ta'riflashni oldindan ko'ra bilish.

3. Maqsadlar orasidagi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar, mojarolarni inkor etish (yoki ularni echish uchun vositalarni ishlab chiqish), ya'ni bir maqsadning echimi boshqasining echimiga qarama-qarshi bo'lsa, uni echish yo'llarini izlash.

Strategik rejalashtirishda makrodarajada amalga oshirilayotgan vazifa va maqsadlar hukumatning dasturga oid ko'rsatmalarida belgilanadi va mamlakatning davlat ishchi organlari tayyorlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida tarkib topadi.

**Konsepsiya** - global maqsadlarni ta'riflashda ifodalangan bashoratlar, loyihalar, strategik, maqsadli, kompleks dasturlarning umumiy ma'nosi va rejaviy davrda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish ustunligi hamda ularga erishish usul va shakllarining zaruriy yo'llarini aniqlashdir.

O'zbekiston Respublikasida konsepsiya ishlab chiqish jarayonida tegishli boshqaruv sub'ektlarining dasturiy ko'rsatmalaridan tashqari quyidagi tayyorlov hujjatlaridan foydalaniladi:

- a) ilmiy-texnik jarayon va uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari;
- b) iqtisodiy o'sish va tarkibiy siljish;
- v) tabiatdan foydalanish ko'lamining o'zgarishi va hayot kechirish sifati (ekologiya);
- g) tashqi sharoitlarning o'zgarishi;

## **Qisqacha xulosalar.**

Strategik rejalashtirish, prognozlar asosida qabul qilinadigan qarorlarni ko'zda tutadi.

Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

Strategiyani ishlab chiqarish yoki maqsadga muvofiq amalga oshiruvchi yo'lni izlash; maqsadlarning tashkil topishi; vositalarni tanlash.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadlar kelajakning ma'lum fursatida rejalashtirish tegishli sub'ekti harakatining istalgan holati yoki natijalari tushuniladi.

Strategik dastur o'z ichiga strategik rejalashtirishning maqsad va maqsadlar nizomini aniqlash, ob'ektini rivojlantirish parametrlarini aniqlash, jamiyat ehtiyojini hajmini aniqlash, resurslar hajmini aniqlashni oladi.

Strategik rejalashtirish maqsadi deganda, ma'lum davrda sub'ekt harajatining istalgan holatini tushuniladi.

Strategik rejalashtirish o'z ichiga reja tuzimi ish usullari, iqtisodiy terminlarni ob'ektlash ya'ni bilingan maqsadga olib boruvchi rejalar hamda boshqa so'nggi natijalarni o'rganish va aniq vazifalarni belgilashni oladi.

## **Tayanch iboralar.**

Uzoq muddatli, qaror, boshqaruv, strategik dastur, maqsad, vazifalar, bashorat qilish, konsepsiya, iqtisodiy dastur, harbiy taktika, strategik rejalashtirish sub'ektlari va ob'ektlari, strategik rejalashtirish mohiyati va dinamik tizim, strategik dastur mohiyati va elementlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Strategik rejalashtirish ob'ekti tashqi sohasiga «kirish», «chiqish» jarayonini tahlil etish qaysi ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
2. Strategik qarorlarni qabul qilishning samarali va yuqori sifatini ta'minlash shartlarini ayting?
3. Strategik rejalashtirish qanday xususiyatga ega?
4. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibini tushuntirib bering?
5. Strategik dasturlarning mazmuni?
6. Strategik rejalashtirish o'z ichiga nimalarni oladi?
7. Strategik rejaning tarkibi qanday manbalardan iborat?

8. Strategik rejalashtirishda dastur va rejaning fanqini tushuntirib bering.

9. O'zbekiston Respublikasida konsepsiya ishlab chiqarish jarayonida qanday xo'jjatlardan foydalaniladi?

10. Strategik rejalashtirishning asosiy muolajalarini ko'rsating.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz» O'zbekiston Toshkent 2001.
3. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
4. I.A.Karimov prosvetanie Rodino'-kajdo'y iz nas v otvete T.Uzbekistan. 2001
5. Kravchenno R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroev na informasio – M.: Spark, 2002.
6. Zub A.T. «Strategicheskiy menedjment teoriya i praktika» Uchebnoe posobiya 2-e iz-d, ISPR.dop. \_ M.: Aspekt Press, 2004.
7. Dadaboev YU.T., Mamutova X.SH., Strategicheskoe planirovanie –Fergana, 2000.
8. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uoshmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. «Evropa tiklanish va taraqqiyot banki» ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Xalqaro valiota fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)

## **4-BOB: STRATEGIYA RAJALASHTIRISH MODELLARI**

### **4.1. Strategiya turlari**

«Strategiya» tushunchasi ikki qismdan iborat (grekcha «Strategia») – stratos -qo'shin, ago- olib bormoq, ya'ni masalan, kelib chiqishi bo'yicha harbiy atama hisoblanadi.

Agar, «strategiya» tushunchasini, fuqarolik muhitida qo'llanilsa, strategiya, avvalo uzoq muddatli rejalashtirish va mavjud bo'lgan ahvolni saqlash, maqsadga muvofiq bo'lsa yoki maqsadli ko'rsatmalarga muvofiq aniqlanadigan, u yoki bu sohada tub o'zgarishlarga erishishga yo'naltirilgan ish - harakatlanish dasturini ifodalaydi.

«Strategiya» atamasi turli iqtisodiy tizimlarda turlicha tushuniladi. Strategik ko'rsatmalarning qat'iylik darajasi bir xil tushunilmaydi. Mikmilan, uning yapon variantini shunday ta'riflab yozadi: « bu yerda strategiya, puxtalik bilan o'ylangan, A va V ga va so'ngra Strategiyaga o'tishga ijozat beradigan qoidalar yig'indisi va bajariladigan ish tartibi o'zaro mantiqan bog'liqligini mutlaqo bildirmaydi».

Yaponiyada, strategiya deganda, amaliy boshqaruv tizimlari chegarasi tashqarisida ro'y beradigan voqealarga tayyor turish tushuniladi. Ushbu mazmunda strategiya, mustahkam turgan fikrlardan, u yoki bu chetga chiqishlar mavjudligi, noaniq sharoitda harakatning umumiy mo'ljallarini ishlab chiqadi.

Innovation strategiya, umumiy iqtisodiy strategiyada dvigatel rolini o'ynaydi. Innovation strategiya o'rni, kompleks strategiya tuzilishini tahlil qilish jarayonida aniq ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Takror ishlab chiqarish jarayonining alohida qismlari uchun, substrategiyada kompleks strategiyani dekomponovkalash mumkin. Dekomponovkalash, gorizontal va vertikal qirqimlarda bajarilgan bo'lishi mumkin. Gorizontal qirqim:

- ishlab chiqarish dasturlarining rivojlanish substrategiyasi;
- ishlab chiqarish-texnik bazalarining rivojlanish substrategiyasi;
- boshqaruv tizimlarining rivojlanish substrategiyasi.

Vertikal qirqim, iqtisodiy tizimlarning bo'g'inlari va elementlari uchun strategiyani ishlab chiqishni ko'zda tutadi (korxonalar uchun strategiya - bo'linmalar va tarkibiy birliklarning rivojlanishi; tarmoqlar uchun alohida ishlab chiqarish).



Butun bir integrasiya sifatida ko'rib chiqilayotgan kompleks strategiya umumiy va ishchan strategiyaga bo'linadi.

Umumiy strategiya tashkilot maqsadiga erishishga mo'ljal olib, tashqi va ichki o'zgarishlarga ta'sirlanish vositasi bo'ladi (faoliyat yo'nalishini tanlash, masalan, manbalardan foydalanish, bozordagi muomala, tutashish, muvaffaqiyat va hokazo). Umumiy strategiyani amalga oshirish vositalari: narx, kredit, mollarni sotish, reklamalar, mutaxassislar va hokazo kichik strategiyani ifodalovchi ishchan strategiya, alohida kichik strategiyadan iboratdir.

Ishlab chiqarish omillari rivojlanishining har bir substrategiyasi omillarning o'zaro ta'siri va mahsulot rivojlanish substrategiyasiga tegishli bo'lgan, ilmiy-texnik innovasiya elementlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, innovasion strategiya, ishlab chiqarish umumiy maqsadlarini va umumiy strategiyaning kichik tizimlarini amalga oshirish strategiyasidan iboratdir. Innovasion strategiya ishchan strategiya bilan chambarchas bog'langan. Xullas, bir tomondan, innovasion siyosat, aniq moliya –iqtisodiy vositalar (ishchan kichik strategiya) sohasida tegishli yordamni talab qilsa, boshqa tomondan esa, ularning o'zi tomonidan berilayotgan imkoniyatlari ma'lum darajada aniqlanadi.

Strategiyaning vertikal qirqimi ular makro-mezo (regional) va mikro darajada ko'rib chiqilishini ko'zda tutadi.

Makro strategiya ba'zan markaziy deb atalsa, mikro strategiya esa ins-titutsional, deb ataladi.

#### **4.2. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi**

Ijtimoiy va iqtisodiy prognozlashda turli modellardan keng foydalaniladi. «Model» lotincha so'z bo'lib, namuna, degan ma'noni anglatadi. Fanda model o'rganilayotgan ob'ektning biror turdagi shartli obrazi (shakli), «prognozlash» esa iqtisodiy yoki ijtimoiy jarayonlarning aksini anglatadi.

Model iqtisodiy prognozlashni, o'rganilayotgan jarayonni ilmiy anglashning muhim vositasi hisoblanadi. Modellashtirish jarayonini ob'ektni yoki jarayonni boshlang'ich o'rganish, uning amalga oshadigan xususiyatlari va belgilarini ajratish, nazariy va tajribaviy (eksperimental) tahlili, modellashtirish natijalarini ob'ekt haqidagi haqiqiy ma'lumotlar bilan solishtirish, modelni korrrektirovkalash hamda oydinlashtirish kabilar asosida model qurishni tashkil etadi.

Ijtimoiy va iqtisodiy modellar optimallashtirish mezonlari yoki kutilayotgan eng yaxshi natijaga qarab tasniflanishi mumkin.

Vaqt omili hisobga olinganda modellar statistik (ya'ni, model chegarasi ma'lum bir vaqt bo'lagi deb o'rnatiladi va xarajatlar mimallashtiriladi) yoki dinamik (bunda model chegarasi bir necha vaqt kesmalari uchun o'rnatilib, xarajatlar mimallashtiriladi yoki yakuniy natija maksimallashtiriladi) bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy modellarni quyidagi turlarga ajratish qabul qilingan: omilli (faktorli), tarkibiy (strukturaviy) va aralash iqtisodiyot rivojlanish ko'rsatkichlarini yig'ish darajasiga qarab makroiqtisodiy, tarmoqlararo, rayonlararo, tarmoqli, regional modellar bo'lishi mumkin. Iqtisodiyotning rivojlanish jihatlariga qarab, modellar asosiy fondlar, mehnat resurslari, moliya tizimi hamda narx shakllanishi kabi turlarga bo'linishi mumkin.

Omilli modellar u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichli darajasi va dinamikasining unga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar - sabablar darajasi va dinamikasiga bog'liqligini tavsiflaydi.

O'zgaruvchan iqtisodiy modellar ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) kabi turlarga ajratiladi. Masalan, omil bo'lsa, mehnat resurslarining borligi endogen omildir.

Omilli modellar turli o'zgaruvchilarni va ularga mos keladigan parametrlarni o'z tarkibiga oladi. Omilli modellarning eng oddiy ko'rinishi – bu, bir omilli model bo'lib, unda istalgan vaqtinchalik parametr omil hisoblanadi. Mazkur holda biror ko'rsatkich tahlili va prognoz vaqti xronologik qatorga bog'liq ravishda amalga oshiriladi va shu yo'l bilan trendlar (qaysi bir dinamik qator o'zgarishining umumiy tendensiyasini xarakterlovchi bog'liqlik) aniqlanadi.

Chiziqli va nochiziqli (nelineynoe) ko'rinishdagi ko'p omilli modellar prognozlashtirilayotgan ko'rsatkich dinamikasini va darajasiga ta'sir etuvchi bir necha omillarni bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini beradi. Bunda modellarga makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyalarini tavsiflovchi modellar, aholi daromadi va narxga bog'liq ravishda ayrim iste'mol tavarlariga talabni tahlil etish modellari misol bo'la oladi.

Tarkibiy modellar ikita butun yoki agregatni tahlil etuvchi alohida elementlar orasidagi aloqa va boqliqlikni tavsiflaydi. Bunday modellar tarkibiy balans ko'rinishdagi modellar bo'lib, bunda biror qatorida uning elementlari orasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi.

Mahsulot xomashyo nomeklaturasiga qarab modellar bir natijali va ko'p natijali kabi turlarga bo'linadi.

Birinchi guruhga tarmoqda ishlab chiqariladigan yoki shu tarmoqda iste'mol qilinadigan boshqa resurs yoki xomashyo miqdoriga bitta chegara qo'yilgan modellar kiradi.

Ikkinchi guruhga xomashyo yoki boshqa resurs iste'moli uchun butun tarmoq bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot talabiga ikki yoki undan ko'p cheklanishlar qo'yilgan modellar kiradi.

Transport omilining ta'sir etish darajasiga ko'ra, tarmoqli optimal rejalashtirish modellari ikki turga bo'linadi: ishlab chiqarish – transport modeli (transport omili e'tiborga olinmaydi) va ishlab chiqarish – transport modeli (transport omili e'tiborga olinadi).

**Tarmoqlararo balans (TAB)-** iqtisodiyotdagi asosiy model bo'lib, unda iqtisodiyotdagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi. U sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmining o'zaro bog'langanligini hisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun iqtisodiyot mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi, TAB ikki ko'rinishda shakllantirilayapti: qiymat va natural shakilda. Mamlakat bo'yicha qiymat ko'rinishidagi TAB nomenklaturasini 120 ta tarmoq nomenklaturasini o'z ichiga oladi va u barcha moddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Natural ko'rinishdagi TAB barcha mahsulotlarning 80 %ini tashkil etuvchi asosiy mahsulotlarni qamrab oladi. Ushbu balansda 600 ga yaqin zaruriy mahsulot turlari aks ettiriladi.

Natural - qiymat balansi modeli iqtisodiyotning kompleks tavsifini aks ettiradi. Moddiy qiymat TAB modelining balanslashtirilgan holdagi reja uchun boshlang'ich ma'lumotidir. Bunga MD hajmi, tarkibi ko'rsatkichlari, eksport ,import va kapital ta'mirlash hajmi ma'lumotlari kiritiladi.

TAB modeli bo'yicha ikki tipdagi hisob - kitoblar amalga oshiriladi:

1. Bunda berilgan yakuniy iste'mol darajasi bo'yicha mahsulotlar ishlab chiqarish va taqsimlanishning balanslashtirilgan rejasi hisoblab topiladi.
2. Aralash hisob – kitoblarni o'z ichiga oladi. Bunda ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa tarmoqlarga yakuniy iste'molga berilgan

mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish va taqsimlash balansi tuziladi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy prognozlarni tuzishda iqtisodiy-matematik modellar keng qo'llaniladi. Bularga bir va ko'p omilli iqtisodiy o'sish modellari, MD ni taqsimlash modellari, tarkibiy tarmoq va asosiy fondlarni qayta tiklash modellari, investision oqim xarajati modeli, turmush darajasi va iste'mol tarkibi modellari, kengayib borayotgan eko siyosat modeli, ish haqi va daromadlarni taqsimlash modellari kiradi.

Iqtisodiyot balansini prognozlashlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi - iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozlashtirishni, Verifikasion- statistik yondashish dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan mosligini va baholanayotgan sharoitlar ma'nosini tekshirishni ko'zda tutadi. Iqtisodiy prognozlashtirish makro iqtisodiy modellari tizimida bu usuldan foydalanish iqtisodiyotning balanslashtirilganligi tarkibiy va omilli jihatlarini o'rganish va ularni optimallik prinsipi asosida sintezlash bilan bog'liq.

Iqtisodiyotning balanslashtirilganlik omili jihatli mahsulotni chiqaruvchi ob'ekt hamda ishlab chiqarish omillari xarajatlari (asosiy fondlar va mehnat resurslari) orasidagi bog'liqlikka asoslanadi. U ishlab chiqarish omillari orasida ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlab turuvchi mutanosiblikni aniqlashga borib taqaladi.

Balanslashtirilganlik (vaqt oralig'i) jihatli ishlab chiqarish omillari xarajatlarini vaqt bo'yicha taqsimlash va ular o'zaro bog'liqligida erishiladigan taqsimotga asoslanadi. Asosiy vaqt oralig'i xususiyatlari asosiy fondlarni qayta tiklash bilan bog'liq. Vaqt oralig'i balanslanganlikka erishish uslubi xarajatlar va ularning asosiy fondni qayta tiklash jarayonini belgilovchi natijalari hamda xususiyatlarining ko'rsatkichlar o'sishi sur'atiga bog'liqligiga asoslangan. Ushbu usul asosiy fondlarni qayta tiklash jarayoni xususiyatlari hamda narx indeksleri, kelib turuvchi manbalar miqdori va kapital qo'yilmalar hamda asosiy fondlar chiqimi, ularning tarkibini belgilovchi hamda dinamika ko'rsatkichlarini kechiktirish usuli bilan farqlanuvchi butun bir modellar guruhini tuzish imkonini beradi.

Balanslashtirilganlikning tarkibiy jihatli ijtimoiy ishlab chiqarishning birinchi va ikkinchi bo'limlari orasidagi proporsiyalarga

hamda tarmoqlararo tarkibiy modellar ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish qo'yilmalari hamda mehnat resurslarining tarmoq strukturasi prognozlashning tizmidan keng foydalaniladi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Xulosa sifatida shularni aytish mumkinki, strategiya uzoq muddatli rejalashtirish va mavjud bo'lgan aholini saqlash, maqsadga muvofiq bo'lsa yoki maqsadli ko'rsatmalarga mavofiq aniqlanadigan, u yoki bu sohada tub o'zgarishlarga erishishga yo'nalitirilgan ish harakatlanish dasturini ifodalaydi.

Buning natijasida, iqtisodiyot sohasida va iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida ro'y berish mumkin bo'lgan ijobiylik va salbiyliklarni oldini olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Bunga biz umumiy-iqtisodiy, innovasion, umumiy va ishchan strategiyalar yordamida erishishimiz mumkin.

Strategik qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy modellar muhim rol o'ynaydi. Bularga: omili, tarkibi, va aralash iqtisodiyotni aytish mumkin. Shuningdek, TAB ham iqtisodiyotdagi asosiy model hisoblanadi va unda iqtisodiyotdagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi.

Iqtisodiyot balansini prognozlashni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi esa iqtisodiy o'sishning asosiy parametirini prognozlashni ko'zda tutadi. shunday ekan, strategik qarorlar qabul qilish, strategik dasturning mazmunini aniqlash hozirda muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish lozim. Ko'rib chiqilayotgan kompleks strategiya umumiy va ishchan strategiyaga bo'linadi.

Model iqtisodiy prognozlashni o'rganilayotgan jarayonni ilmiy anglashning muhim vositasi hisoblanadi.

### **Tayanch iboralar.**

Grekcha Strateras dekomponovkalash, gorizantal, vertikal, omilli modellar. tarmoqlararo balans, balanslashtirish, verifikasion strategik yondoshish, ishlab chiqarish ko'lamlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Strategik rejalashtirish jarayonida qaysi turdagi modellardan foydalaniladi?
2. Iqtisodiy-matematik modellashtirishning asosiy usullari qaysilar?

3. Iqtisodiy asoslash uchun birlamchi axborotni taqqoslash qanday ta'minlanadi?
4. Tarmoqlararo balans modelini yoritib bering.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari ?
6. Tarmoqlar dinamik va iqtisodiy modelining farqi.
7. Ijtimoiy – iqtisodiy prognozlashtirish modellarining klassifikatsiyasi?
8. Umumiy va ishchan strategik deganda nimani tushunasiz?
9. Torizontal vertial kirimlari tarkibiy nimalardan iborat.
10. TAB bo'yicha hisob - kitoblar.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar
2. Karimov I.A. «Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va mafkuraviy dunyo bilan hamkorlik yo'li» T. O'zbekiston 2003.
3. Karimov I.A. «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashish zarur» T. O'zbekiston 2002.
4. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot» Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
5. I.A.Karimov Izbranno'y nami put-eto put demokraticeskogo razvitiya i sotrudnichestvo s progressivno'm mirom. T. Uzbekistan. 2003.
6. Prokopchuk L.O.,Kozo'rev A.A. Strategicheskoe planirovanie, Konspekt leksiy S.Peterburg, 2000.
7. Kravchenno R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informasio – M.: Spark, 2002.
8. Gurkov I.B. Strategicheskiy menedjment organizasii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
9. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari  
[www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Xalqaro valyuta fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)
6. **B-NEWS: Strategicheskoe planirovanie i oplata truda**  
Kb - <http://bin-n.narod.ru/personnel/sstrategicheskoe.h...>  
[bin-n.narod.ru](http://bin-n.narod.ru)

## **5-BOB: STRÀTEGIK REJÀLÀSHTIRISHNING USLUBIYATI VÀ UNI TASHKIL ETISH.**

### **5.1.Stràtegik rejàlàshtirish uslubiy tizimlàrining mà'nîsi và màntig'i.**

Hàr qàndày fànnìng uslubiyati umummetùdîlîgik prinsiplàr, umumdunyoqàràsh, umumiy o'rgànish usullàrini àks ettiràdi.

Stràtegik rejàlàshtirishning uslubiyati uning quyidàgi tàrkibiy qismlàridàn ibiràt:

Fàlsàfiy, sîsîlîgik, iqtisîdiy uslubiyat;

Umummilliy uslubiyat;

Stràtegik rejàlàshtirish uslubiyatining tàrmîq tizimi.

Stràtegik rejàlàshtirish uslubiyati – stràtegik bàshîràtlàrni ishlàb chiqish, dàstur và rejà lîyihàlari, mào'sus uslubiy qînuniyatlar và yondàshuvlar, stràtegik rejàlàshtirish jàràyonidà fîydàlaniladigàn ko'rsàtkichlar tizimi, shuningdek, stràtegik dàstur và rejàlar vàzifàlarini àks ettiruvchi rejà và bàshîràt ko'rsàtkichlàrining îptimàl àsîslàngàn usullàrini tuzish tizimlari îràsidàgi îrganiq birlikdir.

Stràtegik rejàlàshtirishning uslubiy tizimi bàshîràtlàr, dàstur và lîyihà rejàlàrining ilmiy tizimi hisîblànib, quyidàgi muhim sàvîllàrgà jàvâb îlishgà imkîn yaràtadi:

\* tegishli îb'ektni rejàlàshtirishdàn màqsàd nimà?

\* stràtegik bàshîràtlàr shàklidà bìshqàruv qàrîrlàrini ishlàb chiqish jàràyonining nàtijàsi qàndày bo'lishi keràk?

\* stràtegik bàshîràtlàr, dàstur và rejàlar qàndày bo'lishi keràk và ulàr qàndày tàlàblàrni qîndirishi lîzim?

\* stràtegik rejàlàshtirishdàn qàndày uslubiy yondàshuvlar, qàndày muàmmîlàrni echishdà fîydàlanish mumkin?

\* qàndày ko'rsàtkichlar và usullàr tizimi yordàmida stràtegik bàshîràtlàr, dàstur và rejàlar bàrqàrirligini tà'minlash mumkin?

Har qanday boshqaruv muàmmîsini, shuningdek, stàtistik rejàlàshtirish muàmmîsini echish mà'lum bir màntiqqà egà. Stràtegik rejàlàshtirish màntig'i îstidà stràtegik rejàlàshtirishning har qàndày muàmmîsini echish bilàn bìg'liq bo'lgàn tàrtibiy ketmà-ketlik, o'zàrî kelishuvchàn và àsîslàngàn jàràyonlar yotadi.

1.Stràterik reshallashtirish màntig'ining màzmunini uning quyidàgi tàrkibiy elementlari îchib beradi:



Rejalashtirilayotgan davr mibaynidà straterik rejalashtirish sub'ektining maqsadlari tizimini aniqlash va shakllantirish.

2.Straterik rejalashtirish ib'ekti rivijlanishining bishlang'ich darajasi, ma'lum bir davr iralig'ida tahlil qilish.

3.Straterik rejalashtirish ib'ektlarining mis ravishda shakllanishi natijasida rejalashtirilayotgan davr mibaynidà jamiyat iste'mili hajmi va tarkibini aniqlash.

4.Straterik rejalashtirilayotgan davr bishi va yana qaytadan rejalashtiriladigan davrdagi resurslarning hajmi va tarkibini keltirib chiqarish.

5.Vaqtinchalik kelishmivchiliklarninr turli darjadagi ijtimoiy-iqtisodiy kelishuv, resurslar va talablar muvaznati, bir-biri bilan nimutanisiblik, tashkiliy echim va talablarni tayyorlash, reja va dasturlar, strategik bashirat shakli irqali echilishi.

Straterik rejalashtirish **maqsadi** sifatida kelgusidagi ma'lum bir davrda ib'ektni rejalashtirishning shakllanish natijasi va holati tushiniladi. **Tipshiriqlar** esa, straterik rejalashtirish davri iralig'idagi aniqlik vaqtda erishiladigan maqsadlardir.

Rejadan ildingi davrda ib'ektni straterik rejalashtirishni **bishlang'ich darjadagi tahlili** – straterik rejalashtirish mantig'ining ikki muhim jarayonidir. Ushbu jarayon ahamiyati mamlakat milliy iqtisodiyoti straterik rejalashtirish va rivijlangan mamlakatlarning o'oshash kichik tizimlari bilan aniqlanadi.

**Mikridarajada** ichki va tashqi tahlil amalga ishiriladi. Bu tahlil davimida tashkilning salhiyatidan fiydalanish, uning raqibatbardosh har qanday qudratli timinlari aniqlanadi.

Strategik rejalashtirishning uchinchi tarkibiy elementi – rejalashtirilayotgan davrda ma'lum bir kichik tizimlar hamda jamiyatning ehtiyojlari tarkibi va hajmini har timinlamma o'rganishdir.

## **5.2. Strategik rejalashtirish prinsiplari va uslubiyati.**

Strategik rejalashtirishning prinsiplari deganda, «Straterik rejalashtirish» fanining shunday ib'ektiv kategriyalarini tushinish kerakki, ushbu kategriyalar barcha tushunchalarning asisi sifatida oizmât qiladi. Bu tushunchalar straterik rejalashtirish ib'ekti va straterik rejalashtirishning amal qilishi bilan big'liq qatir rivijlanish qinunlari yig'indisini bildiradi va reja-tipshiriqlarni bajarish imkniyatlari,

shuningdek, ularning bajarilishini nazirat qilish, straterik rejalashtirish yo'nalishi va xarakterini aniqlaydi.

Straterik rejalashtirish jamiyat, firmalarni bishqarish tizimining markaziy elementi bo'lganligi uchun unga yana bishqarishning quyidagi to'rtta umumiy prinsipi o'sdir:

1. Siyosat ustuvirligi shartitida iqtisodiyot va siyosatning birligi prinsipi.
2. Markazlashuv va mustaqillikning birligi prinsipi.
3. Bishqaruv qarirlarining samaradrligi va ilmiy asislanganlik prinsipi.
4. qarirlarini bajarishda boshqaruvchi manfaatlarni qindirish, shosiy va jami manfaatlarni rag'batlantirish shartitida umumiy va likal manfaatlarning uyg'unlashuvi prinsipi.

Straterik rejalashtirishning bqridda tavsiflangan prinsiplaridan tashqari yana uchta likal prinsipi mavjud.

1. Etakchi tarmqlarni namuna asisida, maqbo'l mutanfsiblikini ta'minlash.
2. Straterik rejalashtirish dasturlari va rejalarining bashirat qilish kimplekslari va birlashuv prinsiplari.
3. Reja va dasturlarni ishlab chiqish, ularni bajarish imkiniyatlari bilan ta'minlash va nazirat qilish jarayonlarining birligi prinsipi.

Straterik rejalashtirishda uslubiy yondashish deganda bashiratlarni, barcha davr va darajalar uchun strategik dastur lfiyhalarni ishlab chiqish jarayonida straterik rejalashtirish prinsiplari va usullaridan fiydalanishning yag'na va mukammal yo'nalishi tushiniladi.

Hizirgi zam'in straterik rejalashtirish amaliyotida tizimli yondashuv va uning shakllanishi qo'llaniladi.

- kimpleks- tizimli yondashuv;
- dasturiy-tizimli yondashuv;
- me'riy-tizimli yondashuv;
- iqtisodiyotning tartibiy tizimli yondashuvi;
- dinamik-tizimli yondashuv.

### **5.3.Strategik rejalashtirishning ko'rsatkichlar tizimi va usullari.**

Zamnaviy hisoblär va statistikada jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hdisa va jarayonlarning sin va sifat jihätidan tävsifi tushiniladi. Uning sifat jihati vaqt va makinning aniq shartlaridagi odisa va jarayonlar mhiyatini, miqdor jihati esa mutlaq va nisbiy o'chamlarini aks ettiradi.

Straterik rejalashtirish dirasida uning ko'rsatkichlari sifatida reja tushiriqlarining miqdoriy va sifatii aniqlikdagi bajarilishi tadbirlari tushiniladi.

**Ko'rsatkichlarning bir nechta tizimlari mavjud. Ular quyidarlardir:**

1. **Straterik rejalashtirishning umumiy ko'rsatkichlar tizimi.** U hukumät dasturlari, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy bashratlar, milliy hisoblär tizimi ko'rsatkichlari, davlat bpdjeti ko'rsatkichlari va mamlakatning miiyaviy rejaları ko'rsatkichlarini o'z ichiga iladi.
2. **Viloyatlar, hududlar, mahaliy bpdjetlar rivjlanishi ko'rsatkichlari tizimi.**
3. **Alfida shalar rivjlanishining ko'rsatkichlar tizimi.**
4. Tijrat tashkiltlarida rivjlanishning bashratlar, strategik dasturlar va rejalar ko'rsatkichlari tizimi.

**Natural va bahlash ko'rsatkichlari.** Natural ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning miidii timinlarini tävsiflaydi. Ular mahsulit ishlab chiqarish hajmi va ushu mahsulitga yoki tivarlar iqimiga iste'milning hajmi ortasida to'g'ri alfa o'ratish imkniyatlarini beradi.

Natural ko'rsatkichlardan fydalanish dirasini kengaytirish uchun quyidagilar ishlab chiqiladi:

**SHartli-natural ko'rsatkichlar.** Ular o'tkazma kieffisient yordamida turli turdagi mahsulitlarning bir o'chamga keltirilishi irqali belgilanadi (masalan, bir tunnà ko'mirning, neftning bir birligi).

**Bahi ko'rsatkichlari.** Bizir o'jaligi shartida bahi ko'rsatkichlarining rili juda katta. Ular yordamida takrir ishlab chiqarish jarayoni natijalarining yig'indisi aks ettiriladi: YAIM, YAMM ishlab chiqarish, iraliq iste'milchilari, yalpi qo'shilgan qiymät, ish haqi, darimadlarninr yalpi qismi, asisii visitalar amortizasiyasi. Strategik dastur va rejalar, bashrat bo'limlarining o'zarfi big'liqligini taminish, turli shalar, hududlar, ular o'sishining sur'ati rivjlanish yonalishlarini aniqlashga imkin yaratadi.

Bahi ko'rsatkichlari yordamida turli iqtisodiy balanslar tizimi.

Bahi va natural ko'rsatkichlar miqdor va sifat shaklida ham namfiyon bo'ladi. Ular hajmli va tizimli bo'lishi mumkin.

Sifatiy ko'rsatkichlar. Te'nik-iqtisodiy ko'rsatkichlar. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar. Hisob-kitob va a'obit ko'rsatkichlari.

### **Qisqacha xulosalar.**

Har qanday fannin uslubiyati umummetodolorik prinsiplar, umumdunyoqarash, umummilliy o'rranish usullarini o'zida aks ettiradi.

Ushbu uslubiyatlarni to'g'ri tanlay bilish straterik rejalashtirishda oldinra qo'yilran maqsadra erishishda muhim ahamiyatra eradir. Bunda muayyan maqsadra erishish uchun straterik bashoratlarni ishlab chiqish, dastur va reja loyihalarini ishlab chiqish va amalra oshirish kabilar straterik rejalashtirish uslubiyati orasida tadbirlardir.

Statistik rejalashtirish prinsiplari – rejalashtirish ob'ekti va rejalashtirishninr amal qilishira bog'liq qator rivojlanish qonunlari yig'indisini bildiradi. Bunda boshqarishninr 4 ta umumiy prinspi va yana 3 ta lokal prinsiplarininr ahamiyati kattadir. Shuninrdek, straterik rejalashtirishda prinsip va yo'nalishlardan foydalanishninryarona va mukammal yo'li bo'lrn uslubiy yondoshuv ham qo'llaniladi.

Straterik rejalashtirishninr umumiy ko'rsatkilar tizimi hukumat dasturlari, ijtimoiy-iqtisodiy bashoratar, milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari, davlat b'udjeti ko'rsatkichlari va mamlaktinr moliyaviy rejalari ko'rsatkichlarini o'z ichira oladi. Bunda natural ko'rsatkich, shartli-natural ko'rsatkichlar, baho ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi.

Straterik rejalashtirishda foydalaniladiran makro, mezo va mikro darajadari ko'rsatkichlarni bir biri bilan bog'liq holda tahlil qilish straterik rejani ishlab chiqishda muhim ahamiyatra eradir.

### **Tayanch iboralar.**

Straterik rejalashtirish uslubiyoti, prinsiplari, ko'rsatkichlar tizimi, straterik dastur, straterik rejalashtirish davri, umumiy ko'rsatkichlar tizimi, natural va baholash ko'rsatkilari, sifatiy ko'rsatkiyalar, texkin-iqtisodiy, mutlob va nisbiy ko'rsatkichlar, umumiy prinsplar, lokal prinsplar, tizimli yondoshuv, kompleks-tizimli, dasturiy-tizimli, meyoriy-tizimli, dinamik-tizimli, iqtisodiyotninr tartibiy tizimi, hisob-kitob va axborot ko'rsatkichlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Straterik rejalashtirishninr o'zira xos xususiyatlari nimada?
2. Straterik rejalashtirish uslubiyati qanday tarkibiy qismlardan iborat?

3. Straterik rejalashtirish prinsiplari deranda nimani tushunasiz?
4. Straterik rejalashtirish uslubiy yondauv deranda nima tushuniladi ?
5. Lokal prinsipi nima ?
6. Straterik rejalashtirishninr ko'rsatkichlari tizimi va usullari ?
7. Straterik uslubiy tizimni qanday savollarra javob berishi kerak?
8. Straterik rejalashtirish umum prinsiplari nimalardan iborat?
9. Straterik rejalashtirishninr lokal prinsiplarini keltirintr.
10. Straterik rejalarninr ahamiyati qanday?
11. Ko'rsatkichlar tizimlari orasidari bog'liqlik nimadan iborat?
12. Straterik rejalashtirishda ko'rsatkichlar tizimi qanday o'rin tutadi?

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. «Bizninr bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yanrilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. Karimov I.A. «Erishilran marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
3. Karimov I.A. Za bezopastnost i mir nado borotsya T.: Uzbekistan. 2002.
4. Karimov I.A. «Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rishmoq kerak». T.: O'zbekiston 2002
5. Furkov I.B. Stratericheskiy menedjment orranizatsii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
6. Zub A.T. «Stratericheskiy menedjment teoriya i praktika» Uchebnoe posobiya 2-e iz-d, ISPR.dop. \_ M.: Aspekt Press, 2004.
7. Xalikova Г. Stratericheskoe planirovanie – T.: TTEU, 2000.
8. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Straterik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uoshmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)

4. «Xalqaro valrota fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal borato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)
6. [Texnologii korporativnoro upravleniya | Stratericheskoe upravlenie | Razrabotka straterii](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section) | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
7. [Texnologii korporativnoro upravleniya \*\*Stratericheskoe planirovanie\*\* i upravlenie. Sistema sbalansirovanno'x pokazateley \(B...](http://www.iteam.ru/conferences/739/) Kb - <http://www.iteam.ru/conferences/739/>
8. [Texnologii korporativnoro upravleniya | Stratericheskoe upravlenie | Missiya firmo'](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section) | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>

## **6-BOB: GLOBAL STRATEGIYA VA RAQOBAT**

### **6.1. Strategik boshqarish nazariyasida egiluvchanlik tamoyili.**

Ushbu qismda ko'rilayotgan «Global raqobat strategiyasi» tushunchasi biznesning aniq bir sohasida qo'llanilishi mumkin (xo'jalikning strategiya zonalariga).

Biznesning biror sohasida korxonalar raqobatining global strategisi mohiyatini tushunish uchun 2 ta dalilni taqqoslash lozim:

Birinchi dalil: agar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi ko'paysa, mahsulot tannarxi kamayadi. Buni o'zlashtirishning ishlab chiqarish ta'siri deyiladi. Uni tasvirlash uchun «o'zlashtirish koeffitsienti» ishlatiladi. Bu koeffitsient ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hajmi 2 marta ko'payganda mahsulot tannarxi necha foizga tushishini ko'rsatadi. Bu ta'sir xodimlarni o'qitish jarayoni, texnologiya jarayonlari ishlarini oxirigacha etkazish va boshqa omillar natijasida paydo bo'ladi. Agar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'tarilsa, O'zlashtirish koeffitsientiga ahamiyati kamayadi.

Ishlab chiqarishning kumulyativ hajmi (shartli birliklarda).

Ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot sotilishi va korxonalar rivojlanishi uchun xarajatlar yig'indisi, keyin xarajatlar yig'indisi sotilgan mahsulotlar hajmi funksiyasidek xarajatlar qo'shish natijasida paydo bo'ladi.

Ikkinchi dalil: har bir mahsulotlar bozori o'zining ma'lum funksional qo'llanishi bilan segmentlanishi mumkin. Shu qatorda segmentning katta qismi uchun bu tasdiq haqqoniydir.

Segment yig'indisi bahoga teskari proporsional segmentning mahsulotini sifat bilan korrelyasiyalaydi. Segment chegaralarida «chekka ta'sirlar» o'z o'rniga ega, segmentning sig'imi belgisi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. O'zining chegaraviy interval narxlarida uning iqtisodiy mazmuni mahsulotlardan iborat bo'lib, iste'molchilarga ahamiyati pasayadi. Agarda ularning daromadi o'ssa yoki uning aksi bo'lsa baho intervallar chegarasida birdan o'sadi. Shuni kuzatishimiz mumkinki, mahsulotlar sotilish hajmidan xarajatlar yig'indisi bog'liqlik funksiyasi bir xillikka ega. Boshqarish tizimi (BT) nazariyasida bu funksiya 1- va 2 - tartibli strategik egrilar, deb ataladi. Bir tomondan, ularning argumentlari bir-biri bilan korrelyasiya qilinmaydi, boshqa tomondan, ular bozor ishlashining ichki mantig'ini ta'minlaydi. Shu

sababli va BT ning nazariyasi va amaliyoti uchun o'ta muhimligi sababli mazkur empirik qonuniyliklar strategik egrilar prinsipi nomli 1- va 2 - tartibli egrilar bilan ifodalanadi.

Operativ ta'sir strategiyasi – bu, 1- va 2 - tartibli strategik egrilar parametri o'zgarishi natijasida operativ ishchi nuqtalarning vaziyatining o'zgarishidir.

## **6.2. Xarajatlarni minimizatsiyalash strategiyasi.**

Odatda, ko'pchilik sohalarda ishlab chiqarish hajmi mahsulotlarning tannarxini minimallashtirishga erishiladi. Shuning uchun seriyali ishlab chiqarish va yuqori darajada rivojlanish, mahsulotlarning sotilishini tashkillashtirish hisobiga faqat nisbatan yirik tashkilotlar masshtabli ta'sir (effekt)ning afzalliklari dasturiga ega bo'ladi. Ammo shuni aytish kerakki, ikkala turlarning texnologik innovatsiyalari (radikal va yaxshilaydigan) 1- tartibli strategik egri parametrlari sohasiga anchagina ta'sir qiladi, masalan, ekstremumni koordinata boshiga surish.

Quyida keltirilgan omillar, xarajatlarning minimizatsiya manbai natijasi hisoblanib, xarajatlarni minimizatsiya strategiyasi qo'llanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

- tarmoq etarli darajada standartlashgan mahsulotni ishlab chiqaradi va differentsiya ehtimoli chegaralangan;
- narx bo'yicha talab elastik;
- iste'molchilarning boshqa mahsulotlarga o'tish ehtimoli yuqori.

Raqobatning 5 kuchi modelida xarajatlarning minimizatsiya strategiyasi afzalliklarini ko'rib chiqamiz. Minimal xarajatga ega bo'lgan tashkilot boshqa raqobatchilarga nisbatan boshqa teng shart-sharoitlarda yuqori rentabel savdoga ega bo'ladi. Agar bunday tashkilot sohada o'zining maksimal bozor ulushiga ega bo'lmasa, bu ulushga yuqori rentabellik hisobiga ega bo'lishi mumkin. Bunday tashkilot xaridovorlarga nisbatan kuchli pozitsiyaga ham ega bo'ladi, chunki bu tashkilotdan boshqa hech bir tashkilot bozorda uzoq davrga past narxlarni taklif qila olmaydi. Etkazib beruvchilar xususida biron aniq fikr aytib bo'lmaydi, minimal xarajatlar ma'lum darajada etkazib beruvchilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish hisobiga amalga oshadi, boshqa tomondan esa, tashkilot bularga juda bog'liq bo'lishi mumkin, chunki shu narsani tushunib etadiki, tashkilot tanlagan xarajatlar minimizatsiya strategiyasi uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ammo,



agar tashkilot uchun boshqa sohadagi tashkilotlardan ilgarilab ketish muhim bo'lsa, bu tashkilot etkazib beruvchilarga o'z shartlarini uqtiradi.

Potensial raqobatchilarga nisbatan bunday tashkilotlar o'z pozisiyasida kuchli mavqeiga ega, lekin ular susayishi mumkin, agarda ularning raqobatchilari yangi texnologiya bilan shu sohaga kirib kelsa, o'rni bosadigan mahsulotlarga nisbatan minimal xarajatlarga ega bo'lgan tashkilot moqomi etarlicha afzalliklar bermaydi, faqat ayrim hollarda, agarda raqobatdosh mahsulot o'rni bosadigan mahsulotlarni tashkilotdagi mahsulot bilan solishtiradigan bo'lsak.

Xarajatlarni minimizasiya strategiyasini tanlagan tashkilot, soha texnologiyalardagi o'zgarishlarni yaxshilab kuzatish kerak, iste'molchilar talabi va kerakli muddatda zarur modernizasiyani amalga oshirishga tayyor turish yoki bo'lmasa ishlab chiqarish quvvatini to'liq o'zgartirish yoki kerakli korrektilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasiga kiritish, aks holda u muvaffaqiyatga ega bo'lmasligi mumkin. quvvatni ishga tushirish me'yoriga xarajatlarni minimizasiya strategiyasini qo'llagan tashkilotlar zaifroq bo'ladi. Umuman, maksimal ishga tushirishning 95%i optimal hisoblanadi. IOqori hajmda ishga tushirishda proporsional bo'lmagan holatda uskunalar ishdan chiqadi, kichik hajmda esa mahsulot tannarxi birdan o'sadi. Bu uskunalar qo'yilgan kapitalning bir qismi yo'q bo'lishi va ekspluatasion kechiktirish ulushining doim o'sishi bilan belgilanadi. Xarajatlar minimizasiya strategiyasiga tegishli kamchiliklar ishlab chiqarish egiluvchanligini oshirish bilan qisman yoki umuman yo'q qilinishi mumkin. Xarajatlarni minimizasiya strategiyasining asosiy kamchiligi differensiasiya strategiyasiga nisbiy qarama-qarshiligidir, bu mahsulotning ko'pgina modifikasiyasini ishlab chiqarishni ifodalaydi. Etarli darajadagi ishlab chiqarish hajmda masshtabli ishlab chiqarish effektiga erishiladi. Bu narsa shuni ifodalaydiki, agar ishlab chiqaruvchi kuchli diversifikasiyalovchi mahsulot liniyalarga ega bo'lsa, u har doim ham minimal xarajatga erisha olmaydi.

### **6.3. Defferensialash strategiyasi.**

Differensiya strategiyasi ishlab chiqarishda bir funksiyali qo'llanishga ega, ioqori hajmdagi nomenklatura mahsulotlarga asoslangan va tashkilotga turli ehtiyojga ega katta sondagi iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

Iste'molchi uchun «Iste'mol tovarlarining ahamiyati ularning iste'molchi uchun muhimlik darajasi va narxini solishtirma sub'ektiv baholash orqali aniqlanadi. Muhimlik deganda bir nechta argumentlarning funksiyasi tushuniladi; ya'ni mahsulotni ta'riflaydigan: texnik, estetik, ekspluatasion va boshqa parametrlar. Mijoz ko'ngliga yoqqan ishni amalga oshiradi, masalan, xaridni iste'mol tovari qiymati bozor bahosidan oshsagina amalga oshiradi.

Mahsulotning iste'mol ahamiyati parametrlarning og'irlik koeffisienti yig'indisiga tengdir. Tushunarliki, og'irlik koeffisientini iste'molchi sub'ektlar darajasida ko'rib chiqadi. Shunda kelib chiqadiki, turli modifikasiyadagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan tashkilotda katta doiradagi potensial iste'molchilar uchun mahsulotning etarlicha bozori bo'lish ehtimoli oshadi.

### **Differensiasiya 2 turga bo'linishi mumkin:**

Birinchisi – gorizontaal. Bunda narx taxminan bir xil bo'ladi va o'rtacha iste'molchilari daromadi bir xil bo'ladi. Masalan, tish chetkasi bir xil tavsifga ega bo'lishi mumkin, faqatgina uning rangi bunday emas. Bunday holda tish chetkasi, bir xil rangda bo'lganda uning sotish hajmi oshadi, agarda uning narxi o'zgarmasa.

Ikkinchisi – vertikal. Bunda narx va iste'molchilarning o'rtaga daromad darajasi har xil.

Masalan, arzon mexanik soatni sotib olishimiz yoki qimmat, chiroyli soatni sotib olish mumkin, ammo ular bir tashkilotda ishlab chiqarilgan bo'lsa. Bunday differensiasiya tashkilotga mijozning turli segmentlariga yo'l ochilishiga imkon beradi, bu narsa realizasiya hajmini oshiradi.

Agar tashkilot qanchalik ko'p mahsulotlar modifikasiyasini ishlab chiqarsa, shuncha katta hajmda mahsulotlar realizasiyasini amalga oshirishi mumkin, lekin boshqa tomondan, mahsulotlar tannarxi shuncha yuqori. Shunday qilib, differensiasiya strategiyasi ma'lum darajada kechiktirishning minimizasiya strategiyasiga qarama-qarshi, chunki ko'p sonli mahsulotlar xillarini kichik partiyada ishlab chiqarishda har doim ham masshtabli effektning hamma afzalliklarini ishlatib bo'lmaydi. Bu xulosa strategik egrilar tamoyilidan kelib chiqadi.

Differensiasiya strategiyasini realizasiya qilishda yozaga keladigan asosiy muammolar: imijli reklama faoliyatiga yuqori xarajatlar, imitator mahsulotlarning paydo bo'lishi, raqobatda narx aspektining kuchayishi.

## 6.4. Fokuslash strategiyasi.

**Fokuslash** strategiyasi o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lgan nisbatan tor segmentdagi iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni ifodalaydi. Keltirilgan strategiya muvaffaqiyatli realizasiya qilinishi mumkin, qachonki:

- katta miqdorda iste'molchilar guruhi mavjud. Ularning berilgan funksional qo'llanishga ega mahsulotlarga ehtiyoji o'rta statistikdan ajralib turadi;

- standart, nisbatan katta bo'lmagan mijozlar guruhlar mavjud va etarli darajada qoniqmagan iste'molchilar guruhi ehtiyojlari berilgan;

- tashkilot resurslari nisbatan ko'p emas, shuning uchun standart ehtiyojlarga ega bo'lgan katta guruhdagi iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

Keltirilgan strategiyalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar amalga oshishi mumki. Masalan:

- mahsulotlar parametri uchun maqsadli segment va umumiy bozorning farqi iste'molchilar yo'q bo'lishi;

- standartlashgan mahsulot uchun narx tushishi va iste'molchilarning maqsadli segmentdan umumiy bozorga o'tish ehtimolining o'sishi;

- bozorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ichida differension tendensiyaning o'sishi.

Firmani raqobat startegiyasi – bu biznesga yondashish usullari va tashabbuslarining yagona tizimdir. Uning maqsadi juda ham soddadir – raqobatchilarga nisbatan ahloqi va halol ish ioritib bozorda o'zining xaridorlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishdir.

Raqobat strategiyasi ish ioritish strategiyasiga nisbatan tor tushunchaga ega. Ish ioritish strategiyasi nafaqat raqobatni qanday qilib olib borishni aniqlamasdan, balki boshqa sohalardagi raqobatlarni va harakatlarni ko'rsatadi. Raqobat staretgiyasi esa faqat raqobat kurishiga tegishlidir. Boshqa raqobat strategiyasi quyidagicha.

- 1) xarajatlar bo'yicha etakchi bo'lish staretgiyasi.
- 2) Keng tabaqalantirish strategiyasi.
- 3) Optimal xarajatlar startegiyasi.
- 4) Fokuslashgan pasroq xarajatlar strategiyasi.
- 5) Fokuslashgan tabaqalashtirish strategiyasi.

1. YOrdamchi faoliyat	Moddiy texnikaviy ta'minot 1.1	Ishlab chiqari sh 1.2.	Tovarlar xarakati 1.3.	Sotish va marketin g	Xizmat ko'rs atish	Foyda
2. Asosiy faoliyat	11.1	Ilmiy tadqiqot va maxsulot, texnologiya va tizimlar yaratish				
	11.2	Insoniy omillarni boshqarish				
	11.3	Umumiy rahbariyat				

Qiymat yaratish zanjiri.  
Raqobat ustivorlik turi

Pastroq xarajatlar

Tabaqalanish

Bozorda xaridorlar keng doirasi	Xarajatlar bo'yicha etakchi bo'lish strategiyasi	Keng tabaqalanish strategiyasi
------------------------------------	---	--------------------------------

Optimvl xarajatlar strategiyasi

Xaridorlarning ayrim Sigmenti	Fokuslashgan pastroq xarajatlar strategiyasi	Fokuslashgan tabaqalanish strategiyasi
----------------------------------	--	---

Asosiy raqobat strategiyasining o'ziga xos belgilari

Staretigiyalar	Xarajatlar bo'yicha etakchi bo'lishi	Keng differensiasiyalashishi	Optimal xarajatlar	Fokuslangan past xarajatlar va differensiyalanish
Bklgilar				
Strategik maqsad	Barcha bozorga yo'naltirish	Barcha bozorga yo'naltirish	qadiryatlarini baholaydigan xaridor	Tor bozor «nisha»si, xaridor didi barcha xaridorlar dididan farq qiladi
Raqobat ustivorligining asosi	Xarajatlar raqobatchilarga nisbatan pastroq	Raqobatchi farq qiladigan narsani tavsiya qilish qobiliyati	Xaridorlarga ko'proq pullarga ko'proq qadiryatlarini tavsiya qilish qobiliyati	Xizmat ko'rsatadigan segmentda pastroq xarajatlarga ega bo'lish yoki o'ziga xos tovarni tavsiya qilish qobiliyati
Tovarlar turi (assortimenti)	Ortiqchalikdagi xolos asosiy sifatli mahsulot (qoniqarli sifat, chegaralangan tanlov)	Tovar turlari ko'p, keng doiralardan tanlash mumkin	Tovar tafsifnomasi – yaxshidan juda yaxshigacha	Segmentning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish
Ishlab chiqarish	Tovar sifatiga ziyon keltirmaydigan xarajatlar kamaytirish yo'llarini doimiy ravishda izlanish	Xaridorlar uchun qadiryatlar yaratish yo'llarini izlash, ustivor tovarni yaratish	O'ziga xos sifat tafsifnomalarini joriy etish	Mazkur segmentga mos tovar ishlab chiqarish
Marketing	Tovarni xarajatlarini kamaytiradigan belgilarga e'tibor berish	Xaridor to'lashga rozi bo'ladigan tovar sifatini yaratish Differensiyalashishga ketgan qoplaydigan baho qo'yish	Raqobatchilarning tovariga o'xshash tovarni arzonroq bahoda tavsiya qilish	Noyob imkoniyatlarni maxsus xaridorlar talabini qondirishga moslashtirish
Strategiya qo'llash	Oqilona baho (yaxshi qariyat)	Xaridorlar to'lashga rozi bo'lgan har bir sifat yaratish. E'tiborni bir nechta o'ziga xos belgilarga jalb etib, tovar «imijini» yaratish	Bir vaqtda xarajatlarni kamaytirishni va sifatni oshirishni boshqarish	Segmentga raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq xizmat ko'rsatish

Ushbu jadvalda raqobat strategiyasining o'ziga xos belgilarga keltirilgan fokuslangan strategiyalar jadvalning beshinchi ustunida birlashtirilgan. Chunki ularning belgilarga bir biriga o'xshashdir. Ushbu ma'ruzada jadvalda har bir strategiya ko'rib chiqiladi.

Bu strategiyalar bozorning tor qismiga yoki sigmentiga yo'naltirilgan. (yoki fokuslashgan). Ularning maqsadi sigment xaridoriga xizmat ko'rsatishdir. Bu strategiya shunday ustivorlikni ta'minlaylik, qochonki ushbu bozor segmentlariga nisbatan kamroq yoki firma raqobatchilariga nisbatan yaxshiroq tovarni tavsiya etadi.

Ushbu strategiyani qo'llaydigan firmalarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: Tondem Computer (ishdan qochmaydigan tizimlarni yaratish va ma'lumotga tez erishishni ta'minlash), Rollis Royal (juda nufuzli vo'tomobillar), Connondale (togda yovuvchi velosipedlar va hokazolar).

Fokuslashgan strategich muvofaqiyati shunda bo'ladiki, qachonki quyidagi shartlarning aksariyati bajariladi.

- Segment foydali bo'lish uchun etarli darajada katta
- Segment o'sish sur'atlari yuqori
- Segment raqobatchilarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.
- Segmentda faoliyat ko'rsatuvchi firma kerakli tajriba va resurslarga ega.
- Firma raqobatsilardan o'zini yaxshi himoya qila oladi.

Fokuslash strategiyasi bir qator havf hatarlar bilan boqliq bo'lishi mumkin. Raqobatchilar tor maqsadli segmentda xizmat ko'rsatadigan firmaning xarakatiga yaqinlashishi mumkin yoki xaridorlarning talablari va zid umumiy bozorga tarqalib ketishi mumkin, Segmentlararo farq yo'qolishi mumkin, Segmentga kirib kelish to'siqlari bartaraf qilinishi mumkin. YOki Segmentdagi afzalliklar shunchalik yaqqol bo'lib, raqobatchilarni o'ziga jalb qilib, samaradorlik natijasini pasaytirib, ketishi mumkin.

Raqobat ustivorlikka shunda erishish mumkinki, qachonki firma tajavuz chora-tadbirlar qo'llaydi. Bu choar-tadbirlar qanday muddat talab qilishi tarmoqning xususiyatiga bogliqdir. Masalan, hizmat ko'rsatish sohasida kam vaqt zarur, sarmoyalarni ko'p talab qiladigan tarmoqlar esa ko'proq vaqt zurrudir., farmatevtikada – ko'proq tikuvchilik sohasida kamroq.

Raqobat ustivorlik miqdori va vaqt o'rtasidagi bog'liqlik keltirilgan.

1-bosqichda firmaning strategik xarakatlari raqobat ustivorligini yaratadi.

2-bosqichda firma «maxsul yig'adi» - raqobat ustivorlikdan foydalanadi: tarmoq o'rtacha darajasiga nisbatan yuqoriroq foyda oladi, sarmoyalarni qoplaydi. Bu bosqichning uzoqligi ikkita narsaga bog'ltq: firmani o'zini strategik xarakati va raqobatchilarning strategik xarakati. Uni bu bosqich davomida firma kelgusi «strategik tushumning» poydevorini yaratishi kerak, chunki u o'z vaqtida raqobatchilarning harakatlariga javob bera olishi kerak.

3-bosqichda firmaning strategik xarakati raqobatchilarning strategik xarakatlaridan zifroq bo'lsa, u strategik ustivorligini yoqata boshlaydi.

## 6.5. Innovasiya strategiyasi.

Innovasiya strategiyasi prinsipial yangi tovarlar yoki texnologiyalar yoki bo'lmasa anglangan yoki anglanmagan mavjud ehtiyojlarni yangi usul bilan qoniqtirish raqobatli imtiyozlarga egalik qilishni ko'rsatadi. Bu strategiyani tanlagan tashkilot turli tarmoqlarda radikal innovasiyani amalga oshirish hisobiga raqobatli imtiyozni shakllantirishga harakat qiladi. Radikal innovasiyani amalga oshirgan tashkilotlar yangi segmentini yaratish hisobiga yuqori daromadni yaratishga imkonni qo'lga kiritadi. Bu borada muqobil bo'lib yangi texnologiyani boshqa qiziqqan tashkilotlarga sotish hisoblanadi.

Statistika shuni ko'rsatadiki, innovasiyani yaratish va tatbiq qilish bir tomondan, yuqori darajadagi tavakkallik hisoblansa, boshqa tomondan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investisiyaning o'rtacha daromaddan 3 barobardan ziyod daromadni keltiradi.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda investisiyani innovasion firmada shug'ullanish qanchalik foyda keltirishini allaqachon bilganlar. Bu, odatda, **vengur** investisiyalash holida amalga oshiriladi, buning g'oyasi shundan iboratki, vengur kapitalistning investision portfelida mavjud turli - turli loyihalar orasiga tavakkallik taqsimlanadi va innovasiyadan kelib tushadigan yuqori daromadlar orqali qoplanadi. Masalan, vengur kapital hisobiga tashkil topgan Digital Equipment amerika innovasion kompaniyasining aksiyalari 10 yil ichida 750 martadan ziyodga qimmatlashdi.

Vengur investisiyalash tavakkalchiligini pasaytirishning asosiy usuli – oldingi bosqichning natijalariga qarab bosqichma-bosqich

moliyalashtirishdir. Shu bilan birgalikda har bir «qo'porish» oldingiga nisbatan ko'p bo'lishi kerak. Innovasiya biznesni davlat qo'llashi texnologik pork shaklini olmoqda, bu birinchi marta AQSHda paydo bo'lgan va o'zi bilan infratuzilmada innovasion tashkilotlar tomonidan ma'qul shartlar asosida kerakli uskunalar, laboratoriyalar, xonalar, ixtisoslashtirilgan axborotlar manbalari mavjud. Radikal texnologiya yoki mahsulot yaratishda muvaffaqiyatga erishgan innovasion firmalarning katta muammolaridan biri ishlab turish, ya'ni «tirik qolish» hisoblanadi. Elektronika va kompiuterlar sohasida AQSHdagi yozlab innovasion firmalardan faqat bir necha o'ntasi ahamiyatli natijaga erishdi va faqat «Apple» kompaniyasi kuchli halqaro tashkilotga aylanishga muvofiq bo'la oldi.

Shu dalil ahamiyatli, 70% dan kam bo'lmagan tadqiqotlar oyoqda qattiq turgan yirik tashkilotlar laboratoriyasida o'tkaziladi, radikal innovasiyalar esa tadbirkor- innovatorlar tomonidan kichik firmalarda amalga oshadi. Bu dalilda bir necha tushuntirishlar mavjud:

Birinchi, tadbirkor kuchli ichki motivasiyaga ega va unda 2ta muqobil mavjud: iotish yoki iotqazish. Ikkinchi, avtonom va yirik tashkilotlarda tashkil topgan madaniyat unga ta'sir qilmaydi. Uchinchidan, kichik firma katta tavakkalchilikka yo'l qo'yishi mumkin, chunki u hech narsani yo'qotmaydi va aksionerlar bilan tashvishi yo'q bo'lgan bir qatorda katta tashkilotlar bunga yo'l qo'ya olmaydilar, chunki bu xatar «ongli» darajada iroqori.

## **6.6. Raqobatchilik strategiyalari.**

F.Kotler firmaning bozordagi ulushidan kelib chiqqan holda raqobatchilik strategiyasini to'rtta turga ajartib ko'rsatadi:

1. Lider strategiyasi.
2. «Kurashga chaqiruvchi» strategiya.
3. «Lider orqasidan boshqaruvchi» strategiya.
4. Mutaxassislik strategiyasi.

Odatda Lider bu asosiy bozorni rivojlantirishga katta xissa qo'shuvchi firmadir. Liderning javobgarligin aniqlovchi eng tabiiy strategiya bo'lib, yani istemolchilarni egallashga, mavjud tovarlarning qo'llashda yangi tashfiqotga yoki tovarlarning bir marta iste'molining o'stirishga yo'naltirilgan global talabni kengaytirish strategiyasi bo'lib hisoblanadi.



Mudofa strategiyasi – bu bozor Liderning strategiyasi bo'lib, u orqali korxonada bozorida raqobat kurashida qo'lga kiritilgan iqtisodiy qo'llarini, fozitsiyalarni (Masalan, bozorda katta ulushni saqlab qolish mahsulot markasini o'zlashtirish, tovar harkati kanallarini ustidan nazoratni saqlab qolish)ga intiladi.

Mudofa strategiyasi bu bozor sardori tomonidan o'zini biznesini raqobatchilar tajavusdan doimo himoya qilish maqsadida tanlanadigan strategiyadir. Mudofa strategiyasining turlari mavjuddir: pozitsiyali mudofaa, qanot mudofasi, mudofa qayta hujumga o'tish yo'li bilan, mobil mudofa va qisilib kelayotgan mudofaa.

Hujum strategiyasini qo'llash natijasida firma bozorida o'z ulushini oshirishga harakat qiladi. Bunday maqsad tajriba samarasini keng ishlatish hisobiga rentabellikni oshirishdan iboratdir.

Demarketing strategiyasi esa bozor Liderining to'rtinchi strategiyasi bo'lib, Lider firma monopolizmga ayblanishdan qochish uchun bozordagi o'z ulushini qisqartirishni ko'rib chiqish mumkin. Unga erishish yo'llarini bittasi ko'rsatilayotgan xizmatlarni, reklama va talabni rag'batlantirish maqsadida qisqartirish, ayrim segmentlarda narxni oshirish hisobiga talab darajasini pasaytirish maqsadida Demarketing tamoyillarini qo'llash hisoblanadi.

«Kurashga chaqiruvchi» strategiyasining maqsadi – Lider o'rnini egallashdir. Bu yerda ikkita muammo muhim hisoblanadi.

1. Liderga hujum qilish vaziyatni tanlash.
2. Uning imkoniyatlarini va himoyasini baholash.

Vaziyatni tanlashda frond bo'yicha hujum yoki qanot hujumi muqobillari hisobga olinadi.

Hujum strategiyasi – bu raqobat strategiyasi bo'lib, u bozor davogari tomonidan sotuv bozorlarini egallash kurashida qo'llaniladi.

Front buyicha hujum – bu raqobatchi korxonaning kuchsiz tomonlaridan kura kuchli tomonlaridan ustun kelish buyicha faol harakat orqali uning pozitsiyasiga (mahsulotlar, reklama, narxlar va boshqalar buyicha) hujum qilish tushuniladi. uni amalga oshirish korxonada raqobatchiga nisbatan ko'p resurslarga ega bo'lishi hamda uzoq muddatli «jang harakatlari» ni olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Qanot hujumi – bu raqobatchilar faoliyatini kuchsiz joylarga yo'naltirilgan bo'lib, bu joylarda ustunlikka erishish uchun asosiy kuchlar tanlanadi; u shunga asoslanganki raqobatchi kupincha o'z

resurslarining eng kuchli pozitsiyalarini saqlab qolish uchun yo'naltiradi, masalan sifati bo'yicha sardorlik (Liderlik)pozisiyani saqlab turishi mumkin, ayni vaqtda o'z faoliyatida kuzsiz joylarga ega bo'lishi mumkin, masalan vositachilar bilan ishlashga uncha ahamiyat berishmaydi. Ushbu strategiya bozor davogari raqobatchiga nisbatan kam resurslarga ega bo'lsa yaxshi natija berishi mumkin. U ko'pincha raqobatchilarga qarshi kutilmaganda ishlatiladi.

O'rab olish orqali hujum – bu raqobatchini barcha pozitsiyalariga birdaniga hujum qilinib, uni bir vaqtning o'zida hamma yo'nalishlar bo'yicha mudofaa olib borishga majbur etadi; bu esa bozor davogari juda katta resurslarga ega bo'lganda qo'llaniladi, hamda qisqa vaqt ichida raqobatchini bozordagi pozitsiyasini emirilishiga imkoniyat yaratadi. U quyidagi variantlarda amalga oshirishi mumkin, ya'ni mahsulot modifikatsiyasi (turlari) sonini ancha ko'paytirib raqobatchi harakat qilayotgan barcha bozorlarda o'z mahsulotini sotishi.

Chetlab o'tish hujumi – bu to'g'ridan – to'g'ri bo'lmagan hujum turi bo'lib, ko'pgina quyidagi yo'nalishlardan birida amalga oshiriladi: ushbu korxonaga uchun mutloqo yangi bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish, yangi geografik bozorlarni o'zlashtirish, texnologiyada yangi bosqichni o'zlashtirish, bozor davogari uchun dastlab eng «engil» bozorlarda malga oshirilib, u faoliyati sohalarida hujum uoshtiriladi.

Partizan hujumi – bu raqobatchini tushkunlikka tushurish maqsadida, har zamonda uncha katta bo'lmagan hujumlarni uoshtirib , unda o'ziga nisbatan ishonchsizlik to'yg'usini rivojlantirishdir (narxlarni har zamonda pasaytirish va mahsulotni jadal sur'atlar bilan siljitish, oqibatda esa raqobatchini o'zi uchun zararli bo'lgan qarshi harakatlarni qilishga majbur etish va hokozolar). Bunday strategiyani ko'pincha uncha katta bo'lmagan cheklangan resurslarga ega firmalar, ancha yirik bo'lgan raqobatchilarga nisbatan qo'llaydilar. Biroq tez – bu katta xarajtlarga olib keladigan tadbirlar, uning ustiga raqobatchilar ustidan g'alaba qozonish uchun, unga boshqa turdagi hujum harkatlari bilan qo'llab - quvvatlab turishi kerak.

«Lider orqasidan boruvchi» - bu bozorda ulushi ancha katta bo'lmagan raqobatchidir. Ushbu xulq - atvor ko'proq aligapoliya holatidagi o'rinlarga ega bo'lib, unda diffenziyaasiya imkoniyatlari kam, har bir raqobatchi barcha firmalarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan kurashdan qochadi.

Mutaxassis strategiyasida mutaxassis butun bozor bilan emas, balki yoki bir necha segment bilan qiziqadi. Uning maqsadi katta daryoda kichik baliq bo'lish emas, balki kichik daryoda yirik bo'lishdan iborat. Bu raqobatchilik strategiyasi asosiy strategiyalardan biri bo'lgan konsentrasiya strategiyasiga mos keladi. Mutaxassis e'tibor berayotgan chuqurcha rentabillik bo'lishi uchun beshta shartni qondirishi lozim:

1. Etarli potensial foydaga ega bo'lishi kerak.
2. Potensial o'sishga ega bo'lishi.
3. Raqobatchilar uchun kam jalb etuvchi bo'lishi kerak.
4. Firmaning maxsus imkoniyatlariga mos kelish kerak.
5. Kirishni barqaror to'siqlariga ega bo'lishi kerak.

### **Qisqacha xulosalar.**

Xulosa sifatida shularni aytish mumkinki, global raqobat strategiyasi xo'jalikning strategiya zonalarida qo'llaniladi. Global strategiya muvoffaqiyatli amalga oshirishda harajatlarni minimallashtirish strategiyasi, differlashtirish strategiyasi, fonuslash, innovasiya, raqobatchilik strategiyalarini o'rni muhimdir.

Shu o'rinda global raqobat strategiyasini samarali ishlash uchun quyidagi tavsiyanomalarni bilish mumkin:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat korituvchi korxonalar uchun raqobat tizimini odilligi va qonunlariga zid bo'lmasligi berish;
2. Korxonalar yoki davlat bndetini xarajatlarini minimallashtirish uchun qo'shimcha ijtimoiy iqtisodiy chora-tadbirlarni qo'llash;
3. qo'l mehnatni qisqartirgan holda innovation strategiyani samarali ishlashni ta'minlash;
4. Mahsulot qiymatini ta'minlash yaratishda optimal xarajatlarni hisobga oli lozim.
5. Global raqobat strategiyalarini amalga oshirishda iqtisodiy rivojlangan davlatlar usul va taqqoslash qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Global raqobat strategiyasi» tushunchasi biznesning aniq sohasida qo'llaniladi.

Xarajatlarni kamaytirish strategiyasida tashkilot ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasiga kerakli bo'lgan o'zgartirishlar kiritishga tayyor turishi kerak.

Differensiyalashgan strategiya, birgina funksional maqsadli mahsulotlarning keng ko'lamli nomenklaturalarini ishlab chiqarishga asoslanadi.

Fokuslash strategiyasi maxsus ehtiyojlarni qondiradigan, iste'molchilarning nisbatan tor segmentiga xizmat ko'rsatishni nazarda tutadi.

Innovasiya strategiyasi asosan yangi mahsulotlar yoki texnologiyalarni yaratish natijasida raqobat ustunligiga ega bo'lishni ko'zlaydi.

### **Tayanch iboralar.**

Eguluvchanlik tashkiliy, xarajatlarni mexanizasiyalash strategiyasi, deferizasiyalash strategiyasi, fokuslash strategiyasi, innovasiya strategiyasi, raqobatchilik strategiyasi, potensiyal raqobat difrasiya turi, raqobat ustivorlik turlari, xuteri strategiyasi, fraint bo'yicha qanoat xujumi, o'rab olish orqali xuruj, chetlab o'tish xurujlari, partiyali xurujlar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Raqobatning «global strategiyasi» tushunchasiga tavsif bering.
2. Biznesni tashkil etishda uchrashi mumkin bo'lgan bozor tavakkalchiligiga tavsif bering.
3. Xarajatlarni kamaytirish strategiyasini qo'llashga qo'laylik yaratuvchi omillarni aytib bering.
4. Innovasiya strategiyasi nima?
5. Fokuslash strategiyasining mohiyati.
6. Deferensiyalash strategiyasi tushunchasi.
7. Raqobatchilik strategiyalarini amalga oshirishda uning qanday turlarini hisobga olish lozim?
8. Iqtisodiy rentabellik vujudga kelishini asosiy sharoitlarini ayting.
9. qanday hollarda fokus strategiyasi samarali amalga oshiriladi?
10. Differensial strategiyani realizasiya qilishda qanday muammolar yuzaga kelish mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. I.A.Karimov «Vatanimiz uchun har birimiz mas'uldirmiz» T.: «O'zbekiston», 2001.
3. I.A.Karimov «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashish darkor» T.: «O'zbekiston», 2002.
4. Karimov I.A. «Erihilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004 y. 10 fevral.
5. Kravchenko R.S. Korporativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aktsionerov na informatsiyu – M.: Spark, 2002.
6. Zub A.T. «Strategicheskiy menedjment teoriya i praktika» Uchebnoe posobiya 2-e iz-d, ISPR.dop. – M.: Aspekt Press, 2004.
7. Dadaboev YU.T., Mamutova X.SH., «Strategicheskoe planirovanie –Fergana, 2000.
8. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

#### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Xalqaro valiota fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)
6. [Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Razrabotka strategii](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section) Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>

## **7-MAVZU: KORPORATIV STRATEGIYA.**

### **7.1. Diversifikasiya bilan bog'langan strategiya.**

Diversifikasiya strategiyasi, tashkilotning biznes sohasi portfeliga, quyidagilar yordamida, biznesning yangi sohalari kirishini ko'zlaydi:

- tashkilotga ega bo'lish;
- tashkilotni «boshidan» yaratish;
- qo'shma korxonalar yaratish;

Biznes muhit portfeli doirasidagi diversifikasiyalash natijasida, integral korporativ xarajatlarning pasayishida namoyon bo'ladigan va manbalardan ko'p funksional foydalanish hisobidan vujudga keluvchi, sinergetik samaralar bo'lishi mumkin. Strategik boshqarishda sinergetik samaralar, strategik muvofiqlik (SM), deb ataladi va ular o'zaro o'zgarishi mumkin, birgina biznes soha portfeliga tegishli bo'lgan, turli tashkilotlar xarajati tuzilishidagi, sarflashning o'xshash qismlari sifatida aniqlanadi. SB da SM quyidagilarga ajraladi:

- marketing (yagona mijoz; yagona geografik maydonlar, sotish yo'llari, reklamani kuchaytirish, ta'minlovchilar;
- o'xshash savdo belgilari, sotuvdan keyingi servis;
- ishlab chiqarish (yagona ishlab chiqarish quvvati; o'xshash texnologiyalar);
- boshqarish (yagona boshqaruv tizimlari va o'qitish, menenjerlar).

Marketing SM misoli. Savdo belgisini yaratish bahosi tashkilotlarning nomoddiy aktivlarida har doim asosiy qismni tashkil qiladi. Coca-cola va Marlboro kompaniyalarining savdo belgisi bahosi, har biri o'ttiz mlrd. dollardan ko'proq baholanadi. Agar tashkilot manzur bo'lgan savdo belgisiga ega bo'lsa, u holda u yangi tovarning taraqqiy etishi uchun undan foydalanishi mumkin va har qanday hollarda munosib savdo belgisiga ega bo'lmagan va boshqa bir xil sharoitda, o'xshash mahsulotning taraqqiy etishiga kirishgan, boshqa tashkilot bilan taqqoslaganda, bu taraqqiyotga ancha kam mablag'lar sarflaydi.

Diversifikasiyalash strategiyasi ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: bog'langan va bog'lanmagan. Diversifikasiya bilan bog'langan strategiya, biznes sohalari orasidagi, unga kiruvchi mavjud bo'lgan muhim SMIlarni nazarda tutadi. Diversifikasiyalash bilan bog'langan tashkilotlar konsernlar deb ataladi.

Masalan, Gillette kompaniyasi o'z portfelida, SM ga ega bo'lgan quyidagi biznes sohalaridan iborat bo'ladi: piska va ustalar; tish pastalari va chetkalar; kanselyariya buyumlari; kofe qaynatgichlar, budilniklar, elektrik tish chetkalari va hakoeo. Johnson and Johnson kompaniyasi quyidagi biznes sohalariga ega: bolalar uchun gigiena va attorlik mahsulotlari; dori-darmonlar; stomatologik jihozlar; veterinariya preparatlari; ayollar gigienasi predmetlari; bandaj va yog'lash materiallari va hokazolar.

Tashkilotlar ko'pgina biznes sohalariga ega bo'lishi mumkin; buning ustiga SM ba'zi birlarining orasida mavjud bo'lishi, boshqalarining orasida esa bo'lmasligi mumkin. Uyushmalar tasniflash masalasiga aniqlik kiritish uchun, «ushbu strategik darajada, diversifikasiyaning ko'p uchraydigan turi» degan tushuncha mavjudki, unda diversifikasiyaning tashkilotdagi bir tartibli kichik tizimlar tahlili darajasidagi ko'p uchraydigan turi nazarda tutiladi.

## **7.2. Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiya.**

Bog'lanmagan diversifikasiyani amalga oshiruvchi tashkilotlar konglomeratlar deb ataladi. Ularning portfelida joylashgan biznes sohaları o'zaro zaif strategik muvofiqlikka ega bo'ladi.

Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiyani asosiy ustunligi umuman, konglomerat xavfini pasaytirishga tayanadi. Xavfning pasayishi shunday fakt bilan bog'langanki, unda tarmoq hayotiy davrlarining turli fazalarida, turli tarmoqlar bilan bir vaqtda joylashgan bo'lishi mumkin. Biridagi pasayish boshqalaridagi ko'tarilish bilan to'ldiriladi.

Konglomeratning daromadliligi umuman, ma'lum darajada boshqaruv o'zagining tarmoqlar vaziyati istiqbolini oldindan ko'ra bilish qobiliyati va konglomerat biznes sohasi portfeli komponentlaridan unumli foydalana olishi bilan bog'liq bo'ladi; shuning uchun oliy darajadagi menenjerlar yuqori ixtisoslashtirilgan tasnifga ega bo'lishi lozim.

Diversifikasiya bilan bog'lanmagan kompaniyalarga misollar: Union Pacific Corp.: temir-yo'l orqali tashish; neftni qayta ishlash; ko'chmas mulk va boshqalar. Westinghouse Electric Corp.: energiya taqsimlash jihozlari; ko'chmas mulk; tijorat tele va radioeshittirish; transportyorlar; ofis mebellari; mudofaa ehtiyoji uchun elektronika va boshqalar.

Amaliyot ko'rsatayaptiki, umumiyqtisodiy pasayish davrlarida, konsern tipidagi korporativ tuzilmalar faoliyat ko'rsatishi uchun yuqori imkoniyatga ega bo'ladi, ya'ni biznesning alohida sohalarida orasida ma'lum strategik muvofiqlikka ega bo'lgan portfelli tashkilotlar. Bu shu bilan bog'langanki, bir tomondan, umumiyqtisodiy pasayish amaliy jihatdan barcha biznes sohalarida salbiy holda ko'rinadi; boshqa tomondan esa, bunday hollarda sarf qilishning minimizasiyalash birinchi navbatdagi vazifa bo'ladi va bunday vazifani echishni konglomeratlarga nisbatan konsernlar yaxshi uddalaydi.

### **7.3. Kapitalning siqib chiqarish va tugatish strategiyasi.**

Ba'zi hollarda tashqi muhitdagi o'zgarish yoki ichki o'zgarishlar, biznesning avvalgi daromadli sohasi, talab qilinuvchi daromad keltira olmasligi va portfel doirasida, yagona to'g'ri qaror uning faoliyatini to'xtatishdan iborat bo'lishi mumkin. Bu erda bir qancha imkoniyatlar paydo bo'ladi. Birinchisi - daromad keltirmagan tashkilotlarni sotish; ikkinchisi-tugatish; uchinchisi - sinishini kutish.

Birinchi muqobillikni ko'rib chiqishda, biznesning sohasi, manfaatlarini ifodalashi mumkin bo'lgan tashkilotlar, ya'ni biznesning bu sohasi bilan eng ko'p SM ga ega bo'lgan tashkilotlarni topishga urinib ko'rish kerak bo'ladi.

Tashkilotlar yopilishi va ularning aktivlari sotilishini ko'zda tutuvchi, tugatish strategiyasini amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishda, aktivlarning sotib yuborilishidagi baho, butun tashkilot bahosidan juda past bo'lishi mumkinligini ko'zda tutish lozim. Bu, masalan, shu dalil bilan izohlanadiki, tugatishda, ba'zi hollarda tashkilot integral aktivlarining eng katta qismidan tarkib topgan, nomoddiy aktivlar yo'qoladi. Tashkilotning faoliyat ko'rsatishiga imkoni bo'lmay, sotib oluvchilar esa topilmagan hollarda, moliyaviy nuqtai nazardan tezlik bilan tugatish, biznes sohasining jami portfeli imidjiga zarar etishi mumkin bo'lgan sinish bilan taqqoslaganda ko'proq ishonchni oqlaydi.

Odatdagidek yo'nalish o'zgarishi strategiyasi va qayta tuzishni amalga oshirishning asosiy sababi, uyushma boshqaruv o'zagi, portfelning butunligicha ishlab turishi samaradorligini yaxshilash yoki uning mavjudligini saqlab qolishdan iboratdir.

Yo'nalish o'zgarishi strategiyasini amalga oshirishga munosabat – biznes sohasi portfelining alohida elementlaridagi yuqori xarajatlariga;



daromad tarmoqlarda katta miqdordagi biznes sohalarining joylashganligi, korporativ menendjment eaffligi va hokazolarga bog'liqdir. Sabalarga qarab quyidagi munosabatlar o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin:

- biznesning zarar ko'rgan sohalarida, serdaromadlikni tiklashga qaratilgan;

- zaif sohalarda "hosilni yig'ib olish" strategiyasini amalga oshirish va ozod bo'lgan manbalarni, ko'ngildagidek sohalarga yo'naltirish;

- barcha sohalarda tejash usuliga kirish;

- zaif sohalarni sotish yordamida portfelni taftish qilish va ularni ko'proq o'ziga tortuvchi tarmoqlarda joylashgan, yangidan ega bo'lingan sohalarga almashtirish;

- korporativ darajadagi alohida menenjerlarni almashtirish;

- biznesning barcha sohalarida, serdaromadlikni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish.

qayta tuzish strategiyasi portfeldagi radikal o'zgarishni amalga oshirishni ko'zda tutadi, ya'ni, portfeldan bir sohani bartaraf qilish va biznes sohalarini sotib olish, sotish yordamida boshqalarining qo'shilishi hamda yangi tarmoqlarga kirishi. Bu strategiyaga quyidagi hollarda murojat qilinadi:

- hozirgi strategiyaning tashxisi shuni ko'rsatadiki, portfelda ko'p miqdordagi sekin rivojlanayotgan, tugagan va raqobatbardosh bo'lmagan biznes sohalarining mavjudligi tufayli korporasiyalarda uzoq muddatli istiqbollar yo'qligi;

- biznesning muhim sohalari uchun og'ir vaqtlar boshlanishi;

- direktorlar kengashi tomonidan biznes sohasi portfelining rivojlanish yo'nalishini o'zgartirishga qaror qilinishi;

- yangi texnologiyalar, mahsulotlar vujudga kelgan va yangi perspektiv tarmoqda pozisiyalarni egallash maqsadida, to'la qayta tuzish bo'lganda;

- biznes sohalarida, portfelda joylashgan bir qanchalarini sotish hisobidan, yirik va foydali savdolarni amalga oshirish zaruriyati bo'lganda;

- portfeldagi biznesning asosiy sohalari o'z daromadlilikini yo'qotishi, uning rivojlanishi, ma'qul uzoq muddatli istiqbolini ta'minlash uchun, portfelda o'zgarish zaruratini tug'diradi.

Halqaro diversifikasiya strategiyasi, diversifikasiyalashgan portfelning ko'pgina milliy bozorlarda ishlab turishini nazarda tutadi. Ushbu strategiya keng ommalashtirilishiga o'tgan asrning 80- yillari o'rtalarida erishildi, ya'ni, diversifikasiyalashgan xalqaro kompaniyalar oddiy xalqaro kompaniyalar ustidan ustunlikka ega bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Shu vaqtdan, asosan texnologik va SM ga asoslangan, bog'langan diversifikasiya, xalqaro kompaniyalar uchun raqobat ustunligining zarur manbai bo'ldi. Bunday kompaniyalar, tovar tannarxidan past narx bo'yicha, aniq vaqt davri ichida sotish hisobidan boshqa mamlakatlarda ko'p miqdordagi bozor ulushini qoplab olishi mumkin va bunda ilgari egallagan bozorlardan oluvchi daromadlari hisobidan farqni yopadi. Ularning milliy raqobatlari buni o'ziga ep ko'rmaydi va bozor ulushini yo'qotadi.

Xalqaro diversifikasiya strategiyasi, globalashtirilgan strategiyaning amalga oshirishini nazarda tutishi mumkin, ya'ni barcha bozorlarda yolg'iz standartlashtirilgan tovarlar va xizmat ko'rsatishning ko'tarilishi. Masalan, McDonalds kompaniyasi barcha mamlakatlarda yolg'iz standartlashtirilgan xizmat ko'rsatishga yo'naltirilib, globalashtirish strategiyasini amalga oshiradi. Bu strategiyaning asosiy afzalligi - butun jahonda bir xil yaxshi bo'lgan tovarlar yoki xizmat ko'rsatishga ega bo'lgan tashkilotlar imidjini yaratish hisobidan ko'tarilish xarajatlarining pasayishidir. Globalashtirish strategiyasini amalga oshirish yo'llaridan biri - franchayzing chizmasi.

1-jadvalda. 1987 yilgacha bo'lgan ahvol bo'yicha sotish hajmlari va bir qancha xalqaro diversifikasiyalashgan faoliyat ko'rsatish sohalari soni aks ettirilgan.

Diversifikasiyalashgan tashkilotlarda, SB ni ishlab chiqish va amalga oshirishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

1-jadval

**Sotish hajmlari va ba'zi xalqaro diversifikasiyalashgan kompaniyalarning faoliyat ko'rsatish sohalari soni**

Kompaniyalar nomi	Sotish hajmi	Faoliyat sohasi
Unilever (Netherland)	27	30
Siemens (Germany)	27	28

Philips (Netherland)	26	60
Nissan Motor Co.	34	15
Hitachi (Japan)	29	7
Toyota Motor Co. (Japan)	42	21

Korporativ strategiyani ishlab chiqishda quyidagilarni hisoblash lozim: biznesning alohida sohalarida, strategik rejalarning mavjud bo'lgan o'zgarishlari; biznesning yangi sohalarini portfelga bog'langan yoki bog'lanmagan diversifikatsiya yordamida qo'shilishining maqsadga muvofiqligi; foydasiz biznes sohalarini chiqarib yuborish maqsadga muvofiqligi; chet el firmalari, siyosiy partiyalar, ittifoqlar, iste'molchilar va ta'minlovchilar guruhlarini bilan ittifoq yaratishning (portfel serdaromadlilikini oshirish maqsadida) maqsadga muvofiqligi.

Korporativ strategiyani ishlab chiqish jarayonidagi e'aruriy vazifalardan biri, strategik maqsadning alohida biznes sohalarini va portfelning ko'zga ko'rinadigan raqobat ustunligida umumiy o'zgarish bo'ladi, chunki SM raqobat ustunligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Shuning uchun korporativ strategiya, SM ning xarajatlari bilan portfeldagi biznes sohalarining xarajatlari tuzilishidagi o'xshash elementlar o'zgarishining amaliy yo'llarini nazarda tutishi kerak.

Strategik reja turli biznes sohalarini korporativ strategik muvofiqlash mexanizmini ko'zda tutishi zarur. Uni ishlab chiqishda quyidagi vazifalarga e'tibor berish lozim:

- xomashyolar sotib olishni muvofiqlashtirish, o'tkazish, ishlab chiqarish quvvatlari, sotish tarmoqlari va transport quvvatlaridan foydalanish;

- biznes sohasi bilan bog'liq strategiyani mijozlar va ta'minlovchilarga umumkorporativ yondashish, bir xillashtirish va mustahkamlash maqsadida muvofiqlashtirish;

- himoya va hujum bo'yicha harakatlar, umumkorporativ pozitsiyalarni mustahkamlash va raqobatlariga tazyiqni kuchaytirish maqsadida muvofiqlashtirish;

- texnologiyalar oqimi bilan biznesning korporativ sohasi orasida tajriba almashtirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish;

– diversifikasiya rejalarini, mavjud bo'lgan biznes sohalarida, SM ni mustahkamlash maqsadida muvofiqlashtirish;

– umumkorporativ madaniyatni yaratish va rivojlantirish rejalarini muvofiqlashtirish.

Uyushmaning “konsern” turidagi strategik boshqaruvi (elementlari orasida ko'p miqdorli SM portfeli) va “konglomerat” turidagi uyushma (portfeli, o'zaro zaif ifodalangan SM elementlariga ega bo'lgan) orasida katta farq mavjud. Bu farq konglomeratda boshqaruv sof moliyaviy yondashishga asoslangan (ya'ni, portfelning alohida elementlarida, kapitaldan foydalanish samaradaorligi moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida), chunki konglomerat biznesning turli sohalari, korporativ darajaning yagona egalari va menenjerlaridan boshqa hech narsaga bog'lanmagan. Konglomeratni korporativ darajada boshqarish uchun biznesning o'zaro zaif bog'langan sohalari portfelning boshqaruvi malakasiga ega bo'lgan yuqori malakali menenjerlar talab qilinadi. Konsernning strategik boshqaruvi biznesning bir xil sohalari boshqaruvi prinsiplari va strategik muvofiqlik boshqaruvini uni jalb qilish bilan birga qo'llashini nazarda tutadi. Raqobatni urush bilan taqqoslash mumkin. Bu kabi o'xshashlik SB da alohida atamalarni keltiradi. Masalan, hujum, himoya va hokazolar.

Raqobat ustunligi kattaliklari raqobat jarayonida o'zgaradi. Agar A firmada, V firma ustidan raqobat ustunligi mavjud bo'lsa, u holda V firma o'zining raqobat ustunligini oshirish yoki A firmada uni pasaytirish bo'yicha harakatni boshlashga majbur bo'ladi. Ma'lum turkumning raqobat ustunligi, odatda, o'zining hayotiy sikliga ega bo'ladi. Uning etuklik bosqichini cho'zish uchun, tashkilot yo ogohlantiruvchi yoki sezuvchi tabiatiga ega bo'lgan, aniq harakatlarni qabul qilishga majbur. Himoya strategiyasi deb, sezish tabiatiga ega bo'lgan tadbirlarga ataladi.

Hujumkor strategiyani amalga oshirishning bir qancha yo'nalishini ajratish mumkin:

- raqobatning kuchli tomoniga hujum;
- raqobatning zaif tomoniga hujum;
- ko'p tomonlama hujum;
- strategik chegarani qo'lga olish;
- ogohlantiruvchi harakatlar.

Raqobatning kuchli tomoniga hujum quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ancha zaif raqobatchilarning kuchli tomon ustidan ustunlikka ega bo'lishi yo'li bilan bozor ulushini olish imkoniyati;
- ancha kuchli raqobatchilarning raqobat ustunligini yo'qqa chiqarish imkoniyati (bozor ulushini egallash).

Bu imkoniyatlar turli usullar bilan amalga oshishi mumkin.

Masalan:

- narxlar pasayishi;
- qiyosiy reklamalardan foydalanish (amaldagi qonunular doirasida);
- raqobatchilar mijozlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni sifatleri bo'yicha taqsimlashi.

Biroq, harakatlarning u yoki bu darajada mosligi tashkilotning "qat'iy zahirasi" orqali aniqlanishi zarur. Masalan, faoliyatini boshlayotgan tashkilotlardagidek, bir xil narxlarda raqobatchini sotish foydaliligi past bo'lgandagina, tovarlar narxining pasayishi ma'noga ega bo'lishi mumkin. Raqobatchining zaif tomonlariga hujum quyidagilarni nazarda tutishi mumkin:

- raqobatchi katta bo'lmagan bozor ulushiga ega yoki raqobatchilar bilan kurash bo'yicha kam kuch ishlatadigan, geografik mintaqalarda biznesning rivojlanishi;
- raqobatchilar e'tibor bermaydigan yoki yomon xizmat ko'rsatadigan segmentlar bilan ishlash;
- raqobatchilarga o'xshashlari nisbatan yuqori bo'lmagan sifatga ega bo'lgan mahsulotlarga kuch berish konsentrasiyasi;
- raqobatchilar mustahkamlanib olmagan yoki ulgurmagan bozorlarda kuch berish konsentrasiyasi;
- raqobatchining mahsulot chegarasida bo'sh qolgan joyini to'ldirish va yangi segmentni shakllantirib, unda mustahkamlanib olishi mumkin bo'lgan tovarlarni yaratish.

Amaliyot ko'rsatishicha, zaif tomonlarga hujum, odatda, kuchli tomonlarga hujum bilan taqqoslaganda, ancha muvaffaqiyatli bo'ladi.

Ko'p rejaviy hujum bir vaqtda amalga oshiriladigan turli yo'nalishlardagi tadbirlarni nazarda tutadi. Bunga bir vaqtda boshlanadigan quyidagi harakatlar misol bo'lishi mumkin: narxlarning pasayishi, reklama xarajatlarining ko'payishi, distribyuterlar uchun sharoitlarning yaxshilanishi, yangi tovarlarni chiqarish va hokazolar.

Bu singari strategiyani, faqat juda ham kuchli tarmoq tashkilotlari o'ziga ep ko'rishi mumkin.

Strategik chegaralarni egallash yangi, hozircha shakllanmagan, ammo perspektiv segmentda raqobat ustunligiga ega bo'lish va raqobatchini qo'ldan chiqarilganing o'rnini qoplashga majbur qilishni nazarda tutadi.

Ogohlantiruvchi harakat- raqobatchilar qaytara olmasiligi yoki qo'rqishi mumkin bo'lgan raqobat ustunligini yaratish bo'yicha tadbirlarga bir qancha misollar keltiramiz: Talab o'sishidan umidvorlik hozirgi paytda mavjud bo'lgan ehtiyojlardan tashqari, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish - xatarli tadbirdir, ammo agar ko'zlanganidek, talab oshsa, tashkilot o'z bozor ulushini keskin ko'paytirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan. Tashkilot, o'ziga yaxshi ta'minlovchilar va distribyutorlarni uzoq muddatli kontraktlar bilan bog'lash maqsadida, foydalilikni pasaytirishi mumkin. Bozor hajmining o'sishi evaziga u uchun ta'minlovchilar hisobidan raqobat ustunligiga ega bo'lish imkoni yuzaga keladi.

Agar tashkilot hujumga uchrasa, u himoya strategiyagiyasiga tayanishga majbur bo'ladi. Himoyaning bir qancha yo'llari mavjud. Birinchisi –raqobat pozisiyalarining doimiy mustahkamlanishi:

- hujum qiluvchilar uchun bo'sh ishlarni tugatish maqsadida mahsulot chegarasini kengaytirish;

- raqobatchilar tovarlariga yaqin bo'lgan mahsulotlarni parametrlari bilan chiqarish;

- raqobatchilar tovarlariga ortig'i bilan mos keladigan tovarlarga past narxlarni saqlash;

- distribyutorlar va dilerlar bilan eksklyuziv shartnomalar xulosasi;

- diler raqobatchilar bilan hamkorlik qilish manfaatdoriligini pasaytirish maqsadida ularga narxlarni anchagina kamaytirib berish;

- firma tovarlarini ekspluatasiya qilish va ko'tarilishi bo'yicha iste'molchi- tashkilotlar xodimlarini pulsiz yoki arzon o'qitish;

- iste'molchilarning boshqa tovarlarga narx oshishining o'zgarishi bo'yicha tadbirlar yordamida: raqobatchilar tovarlarini ishlatishi mumkin bo'lgan iste'molchilarga narxni qo'shimcha kamaytirib berish; pulsiz namunalar va kuponlardan foydalanish; bo'lg'usi pasayishlar to'g'risida mish-mishlarning tarqalishi; mahsulotlarga narxlar yoki yangi modellarning paydo bo'lishi

iste'molchilarning raqobatchilar tovarlariga nisbatan munosabati o'zgarishi ehtimolini pasaytirishga yordam beradi;

- iste'molchilarga ehtiyot qismlarni etkazib berish muddatlarini qisqartirish;

- muddat kafolatini oshirish;

- istiqbolli texnologiyalarni faol patent bilan tasdiqlash;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda ishtirok etish va ularni o'zlashtirish;

- raqobatchilar bilan ham ishlovchi ta'minlovchilar sonini kamaytirish.

Ikkinchi yo'l - hujum qilingan vaziyatda raqobatchilarning jiddiy javob choralarini boshlash maqsadi borligi haqida aniq xabardor qilish. Maqsad - potensial tajovuzkorlarni hujumni amalga oshirmasligiga ishonitirish. Potensial tajovuzkorlarga muayyan darajada ta'sir ko'rsatish mumkin. Masalan:

- kompaniyaning bozor ulushini saqlash maqsadida oliy darajada bayonot berish;

- prognozlashtirilgan talabning o'sishiga munosib ravishda munosabat bildirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviylashtirish rejalari mavjudligi haqida bayonot berishi;

- qoloq texnologiyalarda yangi mahsulotlar chiqarish to'g'risida gap tarqatish;

- raqobatbardosh narxlarni ushlab turish maqsadida ommaviy bayonot berish;

- o'zi uchun tura oladigan tashkilot imidjini yaratish maqsadida zaif raqobatchilar harakatlarini tez va kuchli sezish.

1. Har qanday tashkilot ham ta'minlovchi, ham iste'molchi bo'ladi. U iste'molchilar uchun etkazib berilgan oxirgi tovarlar va xizmatlar ko'rsatish, xomashyo o'zgarishi tizimida integrasiyalashgan. Berilgan mezonlar bo'yicha xomashyo bilan iste'molchiga etkazib berilgan tovar orasidagi «yo'l uzunligi» hamda bu yo'lning tashkilotga tegishli bo'lgan ma'lum ulushini hisoblash mumkin, deb faraz qilamiz. Tashkilotning bu jarayonga tegishli bo'lgan, yo'l uzunligi ulushining ko'payishi bilan bog'langan strategiya, vertikal integrasiya strategiyasi deb ataladi va orqaga xomashyoga harakatni (qarama-qarshi vertikal integrasiya) va oldingi harakatni, ya'ni iste'molchilarga etkazib berilgan tovarga (to'g'ri vertikal integrasiya) nazarda tutadi.

Tashkilotlar uchun vertikal integrasiya strategiyasini amalga oshirishning asosiy sabablari- ta'minlovchilar va iste'molchilarning raqobat kuchi zaiflashuvi hisobidan, KP sini mustahkamlash. M.Porterning «milliy romb» nuqtai nazaridan, vertikal integrasiya- «tashkilot- yordam beruvchi tarmoq» aloqasini mustahkamlash usuli.

2. Vertikal integrasiyaga oid bir qancha misollarni ko'rib chiqamiz: Tashkilot, komplektlarini sotib olib, tovar ishlab chiqaradi. qarama-qarshi vertikal integrasiya strategiyasini amalga oshira turib, komplekt qismlarni ishlab chiqarishga o'tadi va to'g'ri vertikal integrasiya strategiyasini amalga oshirib, xususiy sotish tarmog'ini yaratish bilan shug'ullanadi. Neftni qazib olish va uni sotish bilan mashg'ul bo'lgan tashkilot, to'g'ri vertikal integrasiya strategiyasini qo'llab, neftni qayta ishlash va benzinni sotishga kirishadi. Vertikal integrasiyaning ko'pgina asoslaridan biri, bozor vaziyati barqaror bo'lganligi va bozor ulushini ko'paytirish imkoni yo'qligi sababli, biznesni kengaytirish istagidan iboratdir. Bunday vaziyatlarda, endi tashkilot «yoyilib» o'sish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va «uzunlikka» o'sishni boshlashni afzal ko'radi.

Ustunliklardan tashqari, vertikal integrasiya strategiyasi kamchiliklarga ham ega. Eng avval u investisiyani talab qiladi. Ikkinchidan, u barcha tashkilotlar uchun xavfni kuchaytiradi, chunki uni amalga oshirishda tashkilot biznesning yangi sohalariga qadam qo'yadi. Uchinchidan, juda vertikal integrasiyalashgan firmalar ko'pincha, yagona texnologik davrga bog'langan bo'ladi va qoloq texnologiyalar paydo bo'lishi bilan ular jarayonni qayta ko'rishda eng ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. To'rtinchidan, «yo'llarni» turli bosqichlar uchun ishlab chiqishning optimal hajmlari ajralib turishi mumkin va bu tashkilotlarga ko'lam samaralari ustunligidan ortig'i bilan foydalanishga yo'l bermaydi.

3. Peshqadamlik (monopol) strategiyasi. Tarmoqda peshqadamlik, eng avval bozor ulushining kattaligi bilan aniqlanadi. Tarmoq peshqadamlar, odatda, yaxshi ma'lum bo'lgan: IBM, McDonalds, Gilette, Xerox, AT&T va boshqalar. Peshqadam tashkilotlar uchun strategiya maqsadlari, egallagan vaziyatlarni saqlab qolish va asosiy peshqadam haq- huquqlarini egallashdan iboratdir. Aosiy tarmoq peshqadam- boshqa tashkilotlarning bozor ulushidan ancha oshib ketgan, bozor ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar va uning ma'lum darajada pasayish ehtimoli hamdir.



Peshqadam (monopol)lar uchun ikki strategiyani ajratish mumkin. Birinchisi, «yaxshi himoya – hujumdir» prinsipiga tayangan hujumning, uzluksiz strategiyasi yoki «harakatning faqat ikki turi bor: oldinga va orqaga». Ushbu strategiya, tashkilotda innovasiya faoliyatiga pozitiv munosabatni ko'zda tutadi. Bunday tarmoq peshqadamlari, yangi texnologiyalar chiqarishda birinchi bo'lishga intiladi, shu jumladan, yangi tovarlarning qat'iy tabiati va hokazolar. Antimonopoliya qonunlari nuqtai nazaridan, ularning bozor ulushi keskin holatga etmagan hollarda, ular mohiyatni bozordan tezroq rivojlantirishga intiladi va shu bilan birga o'zi bozor ulushini ko'paytiradi.

Ikkinchisi, peshqadam kompaniyalar hisobidan, raqobatchilarga bozor ulushini ko'paytirish qiyin bo'lgan sharoitlarni yaratishni mo'ljallagan, mustahkamlash va himoya strategiyasi. Strategiya quyidagilarni talab qilishi mumkin:

- yangilari uchun, reklamaga zo'r berishni kuchaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash yordamida kirish to'siqlarini kuchaytirish;
- raqobatchilarda o'xshash shunday tovarlarni xususiy tovar markasi ostida bozorga olib chiqish;
- tashkilot mijozlarining, raqobatchilar tovarlariga o'zgarishi narxini ko'paytirish yo'llarini qidirish;
- raqobatchilar egallashi mumkin bo'lgan bozor segmentlarini bosib olish maqsadida mahsulot chegarasini kengaytirish;
- mahsulotlarning yuqori raqobatbardoshligini saqlash;
- kuchsiz raqobatchilarni qamrab olish maqsadida hozirgi bozor ehtiyojlaridan o'zib ketish bilan ishlab chiqarish va marketing imkoniyatlarini kengaytirish;
- texnologiyalarni rivojlantirishda ko'pgina investisiyalarni amalga oshirish;
- etarli darajada bo'lmagan muayyan istiqbollar bilan yangi chegaradosh texnologiyalarni patentlashni amalga oshirish;
- ko'lam samaralari, muvafaqiyatning muhim omillaridan bo'lgan bozorlarda, ular to'qnashadigan asosiy muamolardan- ishlab chiqarish va marketing ko'lam natijalarida, etarli darajada bo'lmagan iqtisod, iste'molchilarda e'tirof qilinishiga ega bo'lishning murakkabligi, keng reklama qilishga imkoni yo'qligi, zaruriy kapitallar olishda murakkablik va boshqalar.

Ko'lam natijalari uncha ko'p ifodalanmagan tarmoqlarda, raqobat ustunligini yaratish va mustahkamlash uchun tashkilotlar bir qancha strategiyalarni ishlatishlari mumkin.

Birinchisi - etarli darajada sig'imli, bo'sh qolgan joyni egallashni talab qiluvchi amalga oshirish hajmi va o'sish istiqbolini ta'minlash qobiliyati hamda tashkilotlar maqsadlariga strategik muvofiqligini mo'ljallagan, bo'sh qolgan joy strategiyasi.

Ikkinchisi - puxtalik bilan tanlab olingan, bir qancha qo'shni segmentlar bilan ishlashni mo'ljallagan, ixtisoslashtirish strategiyasi.

Uchinchisi - noyob xususiyatga ega bo'lgan, nihoyatda sifatli mahsulotlar yaratishni ko'zlagan, farqi ajraluvchi strategiya.

To'rtinchisi - raqobat zaif yoki mavjud bo'lmagan segmentlarda mo'ljallagan ishning tinch borish strategiyasi. Ushbu strategiyada, odatda, tashkilot, e'tibor bermasdan, balki ta'sir etadi.

Beshinchisi - egallash yordamida o'sish strategiyasi. Uni amalga oshiruvchi tashkilotlar, qo'shilish va kuchli bo'lmagan raqobatchilarga ega bo'lish yordamida o'z bozor ulushini ko'paytiradi.

Oltinchisi - raqobatchilardagidan sezilarli darajada ajralib turuvchi imidjni yaratish va saqlashni ko'zlagan, ajralib turuvchi imidjning strategiyasi. Bu arzon, oliy sifatli, sotuvdan keyingi eng yaxshi xizmat ko'rsatuvchi original dizaynli va hokazo tovarlar bo'yicha tashkilotning imidji bo'lishi mumkin.

Statistika ko'rsatayaptiki, tarmoqlardagi tashkilotlarning kam ko'lam natijalarga ega bo'lgan foydalilik ularning o'lchamlari bilan zaif bog'lanadi.

Zaif va krizis holatidagi tashkilotlar uchun strategiya. Zaif pozisiyaga ega bo'lgan tashkilotlarda bir qancha strategik muqobilliklar mavjud. Birinchisi - himoya strategiyasi tashkilotlarda zarur moliyaviy resurslar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. U tannarxning pasayishi yoki tabaqalashgan chizmaning qo'llanilishiga tayanishi mumkin.

Ikkinchisi - sotishni ko'paytirish, foydalilikni oshirish va raqobat pozitsiyasini mustahkamlash, masalan, narxning keskin pasayishi, reklamaga zo'r berishni kuchaytirish bo'yicha turli, ba'zan etarlicha qat'iy tadbirlarni ko'zda tutuvchi, tajovuzkor himoya strategiyasi.

Uchinchisi - sotish yoki tugatish yordamida biznesdan chiqish strategiyasi.

To'rtinchisi - faoliyat ko'rsatish bilan biznesdan chiqish orasidagi tashkilotlarning alohida tartibda ishlab turishini ko'zda tutuvchi hosil olish strategiyasi. Ushbu strategiyani amalga oshirishda tashkilot o'z bozor ulushini moliyaviy resurslarga o'tkazadi. Bu erda etarli standart muolajalar qo'llaniladi, ya'ni byudjetning xarajat qismi eng kam bo'lishi mumkin bo'lgan darajagacha kesib tashlanadi, narxlar ko'tariladi, ko'tarilish va sotish xarajatlari pasayadi, tovarlar sifati va sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish pasayadi, jihozlar investisiyalari tugatiladi, uning profilaktikasi xarajatlari kamayadi, xodimlarning ish haqi darajasi pasayadi va hokazo. Bu tadbirlarning asosiy vazifasi - qisqa muddatli davrda moliyaviy resurslarni olishni maksimallashtirish.

Hosil olish strategiyasini qo'llash maqsadga muvofiqligining bir qancha indikatorlari mavjud:

- tarmoqning uzoq muddatli istiqbollari daromadli emas;
- biznesni tiklash juda qimmat yoki foydasiz;
- tashkilotning bozor ulushini saqlash yanada murakkab va qimmat bo'lib boradi;
- tashkilot amalga oshirish natijasida oladigan moliyaviy resurslardan o'zi uchun yanada istiqbolli sohalarda foydalanishi mumkin;
- biznesning ushbu sohasi portfelda asosiy hisoblanmaydi;
- biznesning ushbu sohasi portfelda zarur strategik muvofiqlikka ega emas.

Beshinchisi - kombinasiyalangan kuchlanish krizis jiddiy bo'lgan hollarda ishlatiladi. Kombinasiyalangan kuchlanish yuqorida sanab o'tilgan tadbirlarning barchasi yoki qisman amalga oshirishini nazarda tutadi.

Ba'zi hollarda tashkilotlar oldida savol tug'iladi: yuzaga kelgan sharoitda, u krizisni boshidan kechirib, faoliyat ko'sata oladimi?

Bunday hollarda global iqtisod strategiyasini amalga oshirish asosiy vazifa hisoblanadi. Quyida global iqtisod strategiyasini qo'llash zaruriyatini tug'diruvchi, ehtimoli bo'lgan sabablar sanab o'tilgan:

- umumiy iqtisodiy pasayish;
- kreditlar bo'yicha bank foizi miqdorining keskin ko'payishi;
- siyosiy va iqtisodiy beqarorlik;
- bozor ehtiyojining kutilmaganda pasayishi;
- davlatni boshqarishdagi talabchanlik;

- belgilangan muddatdan oldin chaqirib olingan muomaladagi qarz mablag'lar yoki kredit muddatini uzaytirmasdan kelib chiqqan, ichki tashkiliy moliyaviy krizis.

Krizis paydo bo'lishining asosiy sabablari tashkilot istiqbolini noadekvat baholash hisolanadi, masalan, amalga oshirish, oshirilgan istiqbol hajmi va raqobatchilar ta'siriga etarli baho bermaslik.

Strategiya quyidagilar yordamida amalga oshishi mumkin:

- xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirish maqsadida iqtisod bo'yicha jiddiy ichki choralar ko'rish;

- yalpi daromadning ko'payishi;

- kapital chiqarish yoki hosil olish strategiyasini, biznes sohasi portfelida qo'llash uchun ularda zaif elementlarning ajralib chiqishi;

- kombinasiyalangan kuchlanish.

Sotish foydaliligini oshirish uchun xarajatlarni qisqartirish zarur. SHtatni qisqartirish, investitsiyani to'xtatish kabi bo'lgan xarajatlarni qisqartirish bo'yicha oddiy tadbirlardan tashqari, tezkor resurslarni sarflashda puxta nazoratni tashkil etish lozim.

Yalpi daromadni ko'paytirish krizis holatda ayniqsa zarur bo'lgan to'lov masalasini echishda yo'l ochib beradi. U narxlar pasayishi yoki oshishi yordamida amalga oshishi mumkin (narx talabining elastikligiga qarab); ko'tarilishi bo'yicha kuchlanishni kuchaytirish, savdo xodimlarini qo'shimcha jalb qilish va hokazo.

Biznes sohasini sotish ma'lum biznes sohaslarini saqlash uchun moliyaviy resurslar talab qilinsa va portfel aktiv qismini sotish imkoniyati tug'ilganda juda zarur bo'ladi. Masalan, jihozlar, bino, patentlar, zahira va hokazo.

Global iqtisod strategiyasini amalga oshirishda, ayniqsa, ko'p yo'l qo'yiladigan xato uning kechikib qo'llanilishidir.

1. Tarmoqning mavjudlik jarayoni tovar singari bir qancha bosqichlardan iborat: yoshlik (yuzaga kelish), o'sish, o'sishning sekinlashuvi, balog'at va keksayish.

Yoshlik bosqichida «o'yin qoidasi» tuzilishi tugamadi, ya'ni qonuniylik bo'yicha ishlaydigan tarmoqlar. Novatorlik tashkilotlari ishlab chiqarish texnologik nou –xau lar puxta himoya qilinadi. Kirish to'siqlari nisbatan past, shuning uchun tarmoqqa ham yirik va kichik tashkilotlar kirishi mumkin. Hajm segmenlari tuzilishi, o'sish sur'ati va boshqalar kabi bozor parametrlari, faqat ekspert usullari orqali baholanishi mumkin. Iste'molchilarning u yoki bu texnologiyalar

samaradorligini afzal ko'rishiga nisbatan noaniqlik mavjud. Standartlar yo'qligidan turli tashkilotlar, texnologiya ko'tarilish va sotish sohasida «o'z yo'li»ni topishga o'rinadi. Natijalar ko'lami va o'zlashtirishni iqtisod qilishga erishilmaydi. Xomashyo va to'ldiruvchilar bilan ta'minlashda murakkabliklarning paydo bo'lish ehtimoli katta. Iste'molchilar, yanada takomillashgan modellarning paydo bo'lishini ham kutishi va sotib olishni amalga oshirish paytini kechiktirish mumkin.

Yosh tarmoqlarda o'z harakatini boshlagan tashkilotlar oldida ikki zarur muammo turadi: ishlab chiqarish va sotish uchun zarur resurslarga yo'l olish va raqobat ustunligining tuzilish mexanizmini aniqlash.

Yosh tarmoqlarda harakat qilayotgan firmalar tajribasining tahlili quyidagi mulohazalarni yuritishga yo'l ochib beradi:

Raqobat ustunligini yaratishning eng qulay strategiyasini tanlagan tashkilot, ergashuvchilar oldidan unga ustunlik beruvchi, birinchi asos solgan maqomga ega bo'ladi.

Tashkilotlar ko'p sig'imli o'rta statistik iste'mol chuqurligini qamrab olishga intiladi, chunki unga xizmat ko'rsatish, natija ko'lami hisobidan xarajatlarning pasayishiga imkon beradi; bunda bunday chuqurlikning o'rnashgan joyini bashorat qilish sohasida xato qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki, ishlab chiqarish vositalari investisiyalarida xavf ayniqsa katta.

Tashkilotlar avval, firma savdo markazining (brendu) paydo bo'lishiga, alohida e'tibor qaratiladi.

O'sish bosqichida raqobat kurashi asosan bozor ulushining kattaligi tufayli olib boriladi. Aytish mumkinki, bozor hajmining ma'lum o'sish sur'atida tarmoq tizim sifatida barqaror bo'lmaydi, ya'ni muvozanatsizlik holatida bo'ladi. Uncha ko'p bo'lmagan tashqi, ichki norozilikka tizimlar parametrlariga ma'lum o'zgarishlarni chaqirishi mumkin.

Bu bosqichda, bir xil rejalashtirish vazifasi asosiy hisoblanadi. Agar tashkilot istiqbolli talabga etarlicha baho bermasa, uni qondira olmaydi va bozor ulushini yo'qotadi. Agarda uni tashkilot qayta baholasa va ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratsa, u samarasiz investisiyalardan kelib chiqqan muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'minlanishi, ayniqsa, ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar uchun juda zarurdir.

Aynan shu bosqichda, «tashkilot-ta'minlovchi» va «tashkilot-iste'molchi» bog'lanishining paydo bo'lish jarayoni ro'y beradi, bunda ta'minlovchilarning raqobat kuchi etarli darajada, chunki aynan ular tarmoq tashkilotlaridan birining yutug'ini va boshqasining mag'lubiyatini aniqlashi mumkin. Shuning uchun o'zaro ishonch va ikki tomonlama foydaga tayangan, uzoq muddatli puxta munosabatlarni shakllantirish lozim. Yuz berishi mumkin bo'lgan harakatlar - ta'minlovchilar va iste'molchilar bilan, ular uchun foydali sharoitlarda eksklyuziv bo'lishi mumkin bo'lgan, uzoq muddatli shartnomalar tuzishdir.

Bu bosqichda raqobat ustunligini saqlashda texnologiyalarni takomillashtirish, yangi tovarlar yaratish, xotirjamlik va zarur kuchlanishlarning yo'qligi to'siq bo'ladi.

Tashkilot, ko'lam natijalari va o'zlashtirish manfaatlaridan foydalanishga shoshilishi, zarur ta'minlovchilar bilan munosabatlarni mustahkamlashga intilishi, sotish tarmog'ini faol rivojlantirishi, iste'molchilarning yangi segmentlarini qidirishga kirishishi, yangi geografik hududlarni o'zlashtirishi kerak. U har doim kuchli raqobatchilarning katta imkoniyatlar bilan kirishi ehtimoli haqida eslashi lozim.

O'sishning sekinlashuv bosqichi tarmoq bozor hajmining o'sish sur'ati pasayishi va raqobat tabiatining o'zgarishi bilan birga sodir bo'ladi. Tarmoq tashkilotlar e'tiborni mahsulot sifatini ko'tarish, servis xizmati ko'rsatish, raqobatning narx komponentiga ko'chiradi.

Asosan, yangi iste'molchilarni jalb qilish jarayoni etarli darajada murakkablashganligi tufayli, balog'at bosqichida tarmoqlarda raqobat keskin kuchayadi. Raqobat, mijozlarga yanada foydali shartlar berishi hisobidan, ularni raqobatchilardan o'ziga og'dirib olishga diqqatini qaratadi. Bu bosqichda, tarmoq foydaliligining ma'lum darajada pasayishi ro'y beradi va bu raqobat kurashini kuchaytirishga ko'maklashadi.

«Keksayish» bosqichida tarmoq quyidagi fe'l-atvor xususiyatlariga ega bo'ladi:

- talabning pasayishi, raqobatning talabchanligini oshirib, u shaklan murakkablashishi;
- ta'minlovchilarning raqobat kuchi ortishi;
- raqobat kurashida narx va sifat rolining oshishi;

- ishlab chiqarish quvvatlari oshishi bilan boshqaruvning murakkabligi oshadi;
- xalqaro raqobatning kuchayishi;
- tarmoqlarda kompaniyalarning sotib olish miqdori ko'payishi;
- tarmoqlarga kirish va chiqish ko'payadi.

Tashkilotlar bu bosqichda, avvaldan qo'llanilgan strategiyalarda bo'lishi mumkin bo'lgan usullar bilan quyidagicha tuzatish kiritishi mumkin:

Birinchi - ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturalarining torayishi. Bu bosqichda narx omilining roli oshadi, shuning uchun tashkilotlar ko'lam natijalariga to'liq kirish yo'lini olishi zarur.

Ikkinchi - texnologik va tashkiliy innovasiyalarga e'tiborni fokuslash. Ushbu yondashish yanada takomillashgan ishlab chiqarish va tashkiliy texnologiyalar hisobidan tannarxning pasayishiga erishishga imkon yaratishi mumkin. Masalan, yapon firmalari, xususan, Toyota ishlab chiqarish samaradorligini keskin ko'tarishga imkon beruvchi, «aniq muddatda» tashkiliy texnologiyasini ishlab chiqdi.

Uchinchi - eng ma'qul sotib olish narxlari, arzon to'ldiruvchilarga o'tish va hokazolar hisobidan xarajatlarni optimallashtirishga e'tiborni fokuslash.

To'rtinchi - oldindan mavjud bo'lgan mijozlarga sotuvni ko'paytirish. Ushbu bosqichda, raqobatchilarning mijozlarni qo'lga olishga nisbatan tashkilotning avvaldan mavjud bo'lgan mijozlariga sotuvni ko'paytirish yanada afzalroq bo'lishi mumkin.

Beshinchi - raqobatchilar - tashkilotlarini ma'qul narxlar bo'yicha sotib olish. Ba'zi hollarda, noqulay vaziyatda turib qolgan tashkilot aktivlarini etarli darajada arzonroq sotib olish mumkin.

2-jadval

**Tarmoqlarning klassik hayotiy davri va yuz berishi mumkin bo'lgan strategiyalar bosqichlarining tavsifi**

Tavsifi	Ehtimoli darajasi
«Foyda o'yini» shakllanmagan, asosiy texnologiya aniq ma'lum emas.	Biznesni yaratish yordamida yangi biznesning boshlanishi

Tarmoqning vujudga kelishi ketayapti; sentga asosan	Kuchlanish taxmini to'g'ri va teskari vertikal integrasiya
Tarmoq shakllangan; aniqlangan	CHet el tashkilotlarining sinishi
Tarmoqning foydaliligi pasayadi	Bog'langan diverisifikasiya, ko'rsatilgan tugatish innovasiya tashkilotlarini yaratish
Ta'minlovchilarning raqobat kuchi ko'payadi, servis miqdorining ahamiyati oshadi, ehtimol, xalqaro raqobat kuchayadi, tashkilotlarni qayta sotib olishning qo'shilish soni	Himoya strategiyasi, tajovuzkorona himoya strategiyasi, sotish yoki tugatish yordamida tezda chiqish, tarmoq va hosil strategiyasi

Oltinchi - xalqaro bozorlarga chiqish. Bu bosqichda ishlashda, keng tarqalgan xato - tarmoqning eskirishini tan olishni xohlamaslik va tugatilishini asossiz kutish.

2-jadvalda, tarmoqlarning klassik hayotiy davri va yuz berishi mumkin bo'lgan strategiyalar bosqichlarining tavsifi keltirilgan.

5. SU dagi ayrim tarmoqlarga quyidagilar xos:

- yagona peshqadam yo'qligi;
- katta bo'lmagan raqobatchilarga nisbatan katta miqdor.

Ayrim holdagi tarmoqlarga novvoyxonalar, mehmonxonalar, restoranlar, dorixonalar, atele, tibbiy klinikalar, kiyim, oyoq kiyimlar ishlab chiqarish va hokazolar misol bo'lishi mumkin.

Ayrim holdagi tarmoqlarning asosiy alomatlari:

- ko'lam natijalarining yo'qligi yoki zaif ifodalanganligi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Diversifikasiya bilan bog'langan statregiya - biznes sohalari orasida uni amalga oshiruvchilar muhim strategik maqsadlarni (SM) nazarda tutadi. Diversifikasiya bilan bog'langan tashkilotlar konsernlar deb ataladi.

Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiya ularni amalga oshiruvchilar portfelida joylashgan biznes sohalari o'zaro zaif strategik



muvofiglikka ega bo'ladi. Diversifikasiya bilan bog'lanmagan, uni amalga oshiruvchi tashkilotlar konglomeratlar deb ataladi.

Korporativ strategiya bu bir necha korxonalar va tashkilotlarning yagona maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan strategiyasi

Buni amalga oshirish uchun asosan 2 xil usuldan foydalaniladi, ya'ni: Diversifikasiya bilan bog'langan strategiya Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiya.

Diversifikasiya bilan bog'langan strategiyaning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Buning ijobiy tomonlari bozorni tez va ko'proq hajmini egallash imkonini beradi, korxonalar tashqi omillarga bog'liqligi nisbatan kamayadi.

Ish bilan bir qatorda bu strategiyaning salbiy tomonlari mavjud: bunda har bir bo'g'inining o'zaro bog'liqligi, ya'ni bir bo'g'inning salbiy ko'rsatkichlari butun tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish va uni izdan chiqarish mumkin.

Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiyani ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Uning ijobiy tomoni shuni bir bo'g'indagi salbiy ko'rsatkichlar boshqa bo'g'indagi ijobiy ko'rsatkichlari orqali qoplanishi tushunilsa, salbiy tomoni esa tashqi omillarga bog'liqligi ortadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda har ikkala strategiyaning ham salbiy va ijobiy tomonlari mavjud.

Yana shuni xulosa qilish mumkinki mazkur strategiyadan foydalanishda iqtisodiyotni o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda foydalanish kerak.

## **Tayanch iboralar.**

Diversifikasiya bilan bog'lanmagan strategiyaning asosiy ustunligi umuman konglomerat xavfini pasaytirishga tayanadi. Strategik chegaralarni egallash yangi xozirgi shakillangan, ammo perspektiv segmentda raqobat ustunligiga ega bo'lish. Ogohlantiruvchi xarakter-raqobatchilar qaytara olmasligi yoki ko'rinishi mumkin bo'lgan raqobat ustunligini yaratish. Peshqadamlik strategiyasi. tarmoqda peshqadamlik, eng avval bozor umumligini kattaligi bilan aniqlanadi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Korporativ strategiyalarga tavsif bering.
2. Korporativ strategiyaning qanday turlari bor?

3. Diversifikatsiya bilan bog'liq bo'lmagan strategiyaga tavsif bering.
4. Kapitalni siqib chiqazish va tugatish strategiyasining ahamiyati ?
5. Xalqaro diversifikatsiya strategiyasi tushunchasi
6. Xujumkor strategiya yo'nalishlari
7. Vertikal va gorizontal strategiyalarning farqi.
8. Konglomsratlarda qanday diversifikatsiya usullaridan foydalaniladi?
9. Diversifikatsiya bilan bog'langan strategiyaning ijobiy tomoni nimalardan iborat?
10. Konglomsrat nima?

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. Karimov I.A. «Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rishmoq kerak». T.: O'zbekiston 2002
3. I.A.Karimov Za bezopastnost i mir nado borotsya T.: Uzbekistan. 2002.
4. Gurkov I.B. Strategicheskii menedjment organizatsii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
5. Kravchenko R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informatsiyu – M.: Spark, 2002.
6. Prokopchuk L.O.,Kozo'rev A.A. Strategicheskoe planirovanie. Konspekt leksiy, S.Peterburg, 2000.
7. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. [Texnologii korporativnogo upravleniya \*\*Strategicheskoe planirovanie\*\* i upravlenie. Sistema sbalansirovanno'x pokazateley \(B... Kb - http://www.iteam.ru/conferences/739/](http://www.iteam.ru/conferences/739/)
2. [Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Missiya firmo' | Kb - http://www.iteam.ru/publications/strategy/section](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section)

## **8-BOB: FUNKSIONAL STRATEGIYALAR.**

### **8.1.Hujum va mudofaa strategiyasi.**

Raqobatni urush bilan taqqoslasa bo'ladi. quyidagi o'hashliklar alohida strategik boshqarish atamalarini keltirib chiqardi. Masalan: hujum, mudofaa, partizanlik hujumi va hokazo. Raqobatni ustunlik qiymati raqobatlashish jarayonida o'zgarib turadi. A firmasini raqobatlik ustunligi V firmasidan ustun bo'lsa, u holda V firmasi o'z ish harakatini o'zgartirib, raqobatlik ustunini ko'tarishi yoki A firmasini pasaytirish kerak bo'ladi.

Raqobatdorlik ko'rinishi aniq ko'rinishda o'zining hayotiy davriga ega. Uning etilganlik davrini aniqlash uchun tashkilot majburiy ish harakatini qo'llashi kerak: quyidagilardan qaysi biri ma'qul bo'lsa, ya'ni ta'sis etadigan karakterda yoki shiddat bilan javob beradigan. Barcha tadbirkorlar raqobat ustunligini ushlab qolish va hujum strategiyasining bir nechta amalga oshirish yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- raqibning kuchli tomoniga hujum qilish;
- raqibning kuchsiz zaif tomoniga hujum qilish;
- ko'p rejalik hujum;
- strategik hududni zabt etish;
- partizanlik hujumi;
- ta'sis (joriy) etish harakati.

Raqibning kuchli tomoniga hujum qilishni mo'ljallamoq:

- kuchsiz raqiblarni kuchli raqiblar tomonidan ustunlik yo'li bilan iloji boricha bozor qismini olish;
- o'ta kuchli raqibni biror holatga keltirish maqsadida ustunlik yo'li bilan raqibdan iloji boricha bozor qismini olish.

Bu imkoniyatlarni quyidagi yo'llar bilan amlaga oshirish mumkin:

- narh-navoni tushirish;
- amaldagi qonunchilik asosida reklamalardan foydalanish;
- raqiblar mijozlari talabiga qarab mahsulot sifatini yaxshilash.

Biroq har qanday harakat tashkilotlardan «mustahkam zahiralarni» talab qiladi. Masalan, qachon tovarning narhini pasaytirish ma'no kasb etadi, qachonki raqibning sotuv rentabelligi hujum qilayotgan tashkilotnikidan past bo'lsa.

Raqibning zaif tomonlariga hujum qilganda:

- raqib bozorda arziyas ulushga ega bo'lganda yoki raqobatchilar bilan kurashish uchun kam kuch sarflayotgan geografik mintaqalarni, biznesni rivojlantirish;
- raqib asray olmayotgan yoki yomon hizmat ko'rsatayotgan segmentlar bilan ishlash;
- raqibning sifati past darajada bo'lgan mahsulotlariga e'tiborni kuchaytirish;
- raqiblar egallay olmagan yoki egallashga hali ulgurmagan bozorlarga kuchlarni jalb etish va mustahkam o'rnatib olish;
- raqibning mahsulot tarmog'ini izdan chiqaradigan tovarlar yaratish, yangi segmentlarni tashkil etish hamda mustahkam o'rnatib olish.

Amaliyot shuni ko'rsatayotgiki, raqibning zaif tomonlariga hujum qilish kuchli tomonlariga hujum qilinganidagiga nisbatan muvafaqiyatli chiqmoqda.

Ko'p rejalik hujum bir vaqtning o'zida yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar o'tkazishni talab qiladi. Masalan, bir vaqtning o'zida qilinayotgan harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- narhni pasaytirish, reklama harajatlarining oshishi, distribyuterlar sharoitlarining yaxshilanishi, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va hokazo;

Bunday strategiyani etarli darajada kuchli tarmoqlarga ega bo'lgan tashkilotlarga qo'llashi mumkin.

Strategik marralarni egallash jarayoni ham shakllanmagan, biroq u kelajakda istiqbolli segmentga va birmuncha afzalliklarga ega bo'lishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, raqibni qo'ldan boy berilgan imkoniyatlarini qaytarib olishga undaydi.

Partizanlik hujumi kichik tashkilotlarning ishi. Uning asosiy hususiyati «zarba, chekinish». Strategiya g'oyasi – raqibning mustahkam bo'lmagan tomonlariga to'satdan qisqa yo'nalishli zarba berish. Buni amalga oshirish uchun asosiy omil qo'qqisdan zarba berishdir. Lekin tashkilotlar bu strategiyani har doim ham qo'llay olmaydi. Sabab, bunday harakat har doim ham muvafaqiyat keltiravermaydi. Raqibning manapoliyaga qarshi qonunchilikni buzganlikda ayblash, patent huquqini buzishda, g'irrom reklama tarqatishda ayblash - bular partizanlik hujumlariga misollardir. Darak beruvchi harakatlar raqibdan ustun bo'lish tadbirlari bo'lib, bunday harakatlarini qilishga raqib jazm

etolmaydi, cho'chiydi. Bunga misol keltiramiz: ayni chog'dagi iste'molga nisbatan talabni o'stirish ilinjida ishlab chiqarish quvvatini o'stirish juda qaltis tadbiridir.

Biroq agar tahmin qilingandek talab oshsa, tashkilot bozordagi ulushini o'stirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Tashkilot a'lo darajadagi ta'minotchi va destribyuterlarni o'ziga bog'lab olish maqsadida ular bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzib, rentabellikni pasaytirishi mumkin.

Ishonchli ta'minotchi va etarli miqdordagi kuchli tarmoqlarga ega bo'lish bozorda talab o'sib borayotgan davrda raqibdan o'zib ketishga olib keladi. Agar tashkilot hujumga uchrasa, u mudofaa strategiyasini qo'llashi kerak bo'ladi.

Himoyalani shuning bir necha usulari mavjud. Birinchisi – raqobatdagi chegaralarni og'ishmay mustahkamlash:

- hujum qilayotganlarga imkon bermaslik maqsadida mahsulot tarmo-g'ini kengaytirish;

- raqib tovarlariga o'hshash mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- raqibning tovarlarga maksimal o'hshash bo'lgan tovarlarning narhini past darajada ushlab turish;

- diller va destribyuterlar bilan eksklyuziy shartnomalarni tuzish;

- raqiblar bilan hamkorlikni va manfaatdorlikni pasaytirish maqsadida dilerlar uchun chegirmalar yaratish;

- mahsulotlarning narhi pasayishi, yangi modellarning yaratilishi haqida habarlar tarqatish natijasda raqib tovarlariga iste'molchilarni jalb etishni kamaytirish;

- kafolat mudatini oshirish;

- istiqbolli texnologiyalarni patentlashni faollashtirish;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda va egalashda ishtiroq etish;

- raqiblar bilan ham birga ishlaydigan ta'minotchilar sonini kamaytirish.

Ikkinchisi, hujum qilgan taqdirda jiddiy javob choralari kurishi haqida raqiblarga aniq ma'lumotlar berish. Maqsad – ularni hujum qila olmasliklariga ishonitirish.

Kuchli raqiblarga kuydagicha ta'sir kursatish mumkin:

- kompaniyaning bozor shartnomalarini saqlab qolish niyatida ekanligi to'g'risida oliy darajada bayonnoma berish;
- tahmin qilinayotgan talabning o'sishi, unga tayyor ekanligini nazarda tutgan holda ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiyalash to'g'risida rejalar mavjudligini ma'lum qilish;
- yangi mahsulot ishlab chiqarilayotganligi haqida «mish – mish»lar tarqatish;
- raqobatbardosh narhlarni ushlab turish niyatida ekanligi haqida oshkora bayon berish;
- tashkilotning imidjini yaratish, o'zini o'zi himoya qila olishi mumkinligi, raqiblarning qaltis harakatlariga darhol va kuchli javob qaytarish.

## **8.2. To'g'ri yo'naltirilgan strategiya.**

Har bir tashkilot ham ta'minotchi, ham iste'molchidir. U shunday tizimga asoslanganki, qabul qilingan homashyo iste'molchidan tayyor tovar bo'lib chiqadi va xizmat vazifasini bajaradi. Ya'ni, tashkilot iste'molchi sifatida homashyo oladi, uni qayta ishlab o'z navbatida tayyor tovar holatida ta'minotchi sifatida mijozlariga etkazib beradi. Belgilangan normativlar asosida homashyodan boshlab iste'molchiga etkazib berilgan tovar o'rtasidagi «uzoq yo'l»ni tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, bu yo'lning ma'lum bir qismi shu tashkilotga tegishlidir. Bu uzoq yo'lning tashkilotga taalluqli ulushini ko'paytirishga qaratilgan strategiya – tik yo'nalishli strategiya deb atalib, orqaga, homashyoga qarab harakatlanadi, oldinga, ya'ni iste'molchilarga tovar etkazib berishga intiladi. Tashkilot uchun tik yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirish strategiyasi – ta'minotchi va iste'molchilarning raqobat kuchi zaiflashishi hisobiga o'zining foydalilik koeffitsienti (mavqei)ni mustahkamlash.

M.Porterning modeli nuqtai nazaridan qaraganda, tik yo'nalishli integratsiya- «tashkilot qo'llab- quvvatlovchi tarmoqlar» o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi.

«To'g'ri yo'naltirilgan strategiya» tushunchasining interpretatsiyaviy jadvali.

To'g'ri yo'naltirilgan strategiyaning bir qancha misollarini ko'rib chiqamiz. Tashkilot jamlamalarini sotib olgan holda tovar ishlab chiqaradi. Tik yo'nalishli integratsiyaning aksi bo'lgan strategiyani amalga oshirib borib, u jamlamalarning qismlarini ishlab chiqarishga

o'tadi. Va to'g'ri tik yo'nalish integrasiyasi strategiyasini amalga oshira borib, hususiy homashyo tarmoqlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Neft qazib olish va uni sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilot huddi to'g'ri tik yo'nalishli integrasiya strategiyasini qo'llayotganday bo'lib ko'rinsada, aslida o'zi neftni qayta ishlash va benzin qilib sotishga o'tadi.

To'g'ri yo'naltirilgan strategiyaning asosiy mezonlaridan biri bozordagi vaziyatning barqarorlashuvi va bozordagi ulushni ko'paytirish iloji bo'lmay qolgach, biznesni kengaytirish hohishining paydo bo'lishi.

Bunday vaziyatlarda tashkilot «eni»ga o'sishning ilojini qila olmaydi va «bo'yi»ga o'sishni ma'qul ko'radi. To'g'ri yo'naltirilgan strategiyaning afzalliklari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud.

Eng avvalo, u sarmoya talab qiladi. Ikkinchisi - butun tashkilot uchun tahdidni oshiradi, chunki uni amalga oshirish jarayonida tashkilot biznesning yangi tarmoqlari bilan shug'ullanadi. Uchinchisi - kuchli, tikka yo'naltirilgan, integrasiyalashgan firmalar, odatda, ko'proq yahlit bir texnologik tarmoqqa birlashtirilgan bo'ladi. Yangi texnologiyalarni yaratishda ular qayta qurish jarayonining juda katta qiyinchiliklariga duch keladilar.

To'rtinchidan, yuqori darajadagi ishlab chiqarish hajmi turli bosqichlaridagi «yo'l»larda kuchli farqlanishi mumkin. Bu esa tashkilotning keng miqyosdagi imkoniyatlaridan foydalana olmasliklariga sabab bo'ladi.

### **8.3. Turli tarmoqlarni egallash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar strategiyasi.**

**Etakchilar uchun strategiyalar.** Joriy tarmoqlararo etakchilik birinchi navbatda bozordagi ulushiga qarab farqlanadi. Tarmoqlararo etakchilar, odatda, yahshi tanilgan bo'ladi: IBM, McDonalds, Gillette, Xerix va hokazolar.

Etakchi tashkilotlar uchun butun-butun strategiyalar o'zlari egallab turgan mavqeni saqlab qolish va iloji bo'lsa, mutlaq etakchi maqomiga ega bo'lishga qaratiladi. Tarmoqlararo mutlaq hokim tashkilotning bozordagi ulushi boshqa barcha tashkilotlarnikidan yuqoriroq bo'ladi. Uning pasayishi ehtimollari esa juda kam bo'ladi. Etakchilar uchun uchta strategiyani ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchisi, hujumning permanent strategiyasi bo'lib, quyidagi qoidaga asoslangan: «yahshi himoya - hujum qilish» yoki «harakatning

faqat ikki turi mavjud: oldinga va orqaga». Mazkur strategiyalar tashkilotning innovasion faoliyatga ijobiy munosabatda ekanligidan darak beradi. Bunday etakchilar yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishda birinchi bo'lishga intiladilar, shuningdek, so'l harakterda, yangi tovarlarda va hokazo.

Monopoliyaga qarshi qonunchilik nuqtai-nazaridan qaraganda ularning bozordagi ulushlari qaltis darajaga tushmagan holatlarda, ular bozorga nisbatan tezroq rivojlanishga harakat qiladilar, shu bilan birgalikda bozordagi ulushlarini oshira boradilar.

Ikkinchisi, mustahkamlanish va himoyalaniish strategiyasi shunday vaziyatlarni yuzaga keltiradiki, raqiblar o'zlarining bozordagi ulushlarini etakchi kompaniyalar hisobidan ko'paytirishga qiynaladilar.

Strategiya quyidagilarni talab kiladi:

- yangilardan(yosh firmalardan) ko'plab to'siqlarni engib o'tish uchun zo'r berib reklama ishlarini kuchaytirish, hizmat ko'rsatish sifatini yahshilash, ilmiy tadqiqot ishlariga harajatlarni ko'paytirish;
- raqiblarda mavjud bo'lgan tovarlarga o'hshash bo'lgan tovarlarni o'z savdo belgisi ostida bozorga olib chiqish;
- tashkilot mijozlarini raqiblar tovarlariga ega bo'lolmasliklari uchun turli hil to'siqlar yaratish;
- raqiblaridan oldinroq bozor segmentlarini egallash maqsadida mahsulot ishlab chiqarish tarmog'ini kengaytirish;
- mahsulotning yuqori darajada raqobatbardoshligini saqlab turish;
- ishlab chiqarish va marketing imkoniyatlarini kuchsiz raqiblarni to'sib qo'yish maqsadida hamda joriy bozor talablaridan o'zib ketgan holda kengaytirish;
- texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida katta sarmoyalarni jalb qilish;
- miqyos ta'siri bozorda muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ular duch keladigan asosiy muammolar ishlab chiqarish va marketing miqyosi ta'sirining kam moliyaviy ta'minlanganligi iste'mol qilaolmaslik, zarur mablag'larni olishdagi qiynchiliklar va h.z

Tarmoqlarda esa miqyos ta'siri unchalik sezilarli emas. Tashkilotlar raqobatlik afzalliklarini yaratish uchun bir qotor strategiyalarni qo'llashi mumkin.



Birinchi - bo'sh o'rinlar strategiyasi, etarli darajada bo'sh o'rinlarni egallash, ko'zda tutilgan hajmdagi mahsulotni sotishni ta'minlash va o'sish darajasi yuksalishi hamda tashkilotning maqsadlariga strategik mos kelishi.

Ikkinchi - mutahassislashtirish strategiyasi, bir qancha puhta tanlab olingan segmentlar bilan ishlashni tahmin qilish.

Uchinchi – nisbatan ajratiladigan strategiyalar ajoyib hususiyatga ega bo'lgan mutlaqo sifatli mahsulot yaratishni ko'zda tutish.

To'rtinchi – hotirjam kuzatiladigan strategiya, bunda segmentlar bilan ishlash ko'zda tutilgan bo'lib, raqobatchilik zaif darajada yoki umuman bo'lmaydi. Bunday strategiyaga tashkilot, odatda, chalg'ishlarsiz ahamiyat beradi.

Beshinchi – farqlanuvchi imidj strategiyasi bo'lib, raqiblardan sezilarli darajada farqlanuvchi, egallash vositasi tarzida o'sish strategiyasidir. Tashkilotlar, uning sotuvchilari bozordagi ulushlarini qo'shish va biroz kuchliroq raqobatchilarga ega bo'lish hisobiga boyitadi.

Oltinchi – farqlanuvchi imidj strategiyasi bo'lib, raqiblardan sezilarli darajada farqlanuvchi imidjni tashkil qilish va uni qo'llab-quvvatlash.

Bu tashkilotning arzon narhlardagi imidji bo'lib, yuqiri sifatli, harid qilish jarayonida keyingi a'lo darajadagi xizmati, tovarning noyob dizaynerligi va shu kabilar.

Statistika shuni ko'rsatadiki, korxonalarining ko'proq foyda ko'rish uncha katta bo'lmagan miqyosdagi ta'sir doirasi ularning hajmi bilan zaif darajada bog'liqdir.

**Zaif inqiroz arafasida turgan korxonalar strategiyasi.** Zaif marralarni egallab turgan korxonaning bir necha hil muqobil strategiyasi bo'lib, qachonki tashkilotning moliyaviy resurslari mavjud bo'lsagina qo'llaniladi. U mahsulot tannarhining pasaytirilishi yoki differension shemani qo'llashi hisobiga asoslanadi.

Ikkinchi – tajavuzkor himoya strategiyasi bo'lib, har hil harkterdagi ba'zan etarli darajada sotuv hajmini o'stirish tadbirlarini qo'llay oladigan suv oqimidagi, foydalilik darajasini yuksaltira oladigan va raqobatchilik marralarini mustahkamlaydigan, masalan, narh - navoni bir zumda pasaytirish yo'llari bilan reklama faoliyatini zo'raytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Uchinchisi – sotish yoki tarqatib yuborish hisobiga darhol biznesdan chiqish strategiyasi.

To'rtinchisi – hosilni o'rish strategiyasi deb atalib, unda korhananing faoliyati alohida tartib asosida, ya'ni faoliyat ko'rsatish va biznesdan chiqish o'rtasida bo'ladi.

Bunday strategiyani qo'llash vaqtida tashkilot o'zining bozordagi ulushini moliyaviy resurslarga almashtirib yuboradi. Bir necha standart amallar qo'llaniladi. Byudjetning harajat qismi juda past darajada tushiriladi, narhlar ko'tariladi, barcha harakatlar uchun harajatlar qisqartiriladi, tovarlarning va savdodan keyingi hizmatlarning sifati pasaytiriladi, harajatlar asbob - anjomlar uchun to'htatilib, ularning profilaktika ishlari uchun kamaytiriladi, hodimlarning ish haqi ko'rsatkichlari pasaytiriladi va h.z.

Bunday tadbirkorlar ko'zlanganidek qisqa muddat ichida moliyaviy zahiralarni to'plash imkonini beradi.

Hosil yig'ish strategiyasini bir qancha asosiy indikatorlari mavjud. Ularga ko'ra:

- tarmoqlarning uzoq muddatli istiqbollarga qiziqishi kamayadi;
- foydalilik koeffisientini saqlab turish harakatlarining susaytirilishi sotuvning darhol pasayib ketmasligiga hizmat qiladi;
- biznesni tiklash juda qimmat yoki foydasiz;
- tashkilotning bozordagi ulushini saqlab turishi qiyinlashadi;
- moliyaviy zahiralarni sotish natijasida tushgan mablag'lar hisobiga tashkilot o'zi uchun ko'proq foyda beradigan, istiqbolli ishlar bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi;
- biznesning bunday turi portfel (lavozim) uchun asosiy sanalmaydi va muhim strategik ma'no kasb etmaydi.

Beshinchi – niqoblangan hatti -harakatlar inqiroz juda jiddiy bo'lgan hollardagina qo'llaniladi. Bunday hatti - harakatlar yuqorida qayd etilgan tadbirlarning barchasini yoki bir qismini o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda tashkilot oldida yuzaga kelgan vaziyatlardan chiqib, inqirozdan qutilib ketish mumkinmi?, degan savol poydo bo'ladi. Bunday hollarda u global iqtisod strategisini qo'llashiga to'g'ri keladi. quyidagi sabablar global iqtisod strategiyasini qo'llashni taqozo etadi:

- umumiy iqtisodiy pasayish;
- olingan qarzlarni uchun bank foiz stavkalarining o'sib ketishi;
- siyosiy va iqtisodiy beqarorlik;
- bozor talablarining to'satdan pasayishi;

- davlat nazoratining kuchayishi;
- qarzga olingan aylanma mablag'lar yoki olingan qarzlarning darhol qaytarib olinishi natijasida tashkilot ichida yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz. Inqirozni yuzaga keltiradigan asosiy sabablardan biri tashkilotning kelajagiga haqqoniy baho berilmaganligi, masalan , realizasiya hajmi istiqbollarning oshishi va raqiblar ta'sirini mensimaslik;
- harajatlarni qisqartirish va foydani ko'paytirish maqsadida jiddiy ichki iqtisodiy choralarni qo'llash;
- yalpi daromadni oshirish;
- porfel (boshqaruv)dan zaif bo'laklarni ajratib, biznes ko'lamini kapitalni yig'ishtirib olish strategiyasi yoki hosilni yig'ish strategiyasiga qaratish;
- niqoblangan hatti- harakatlar;
- harajatlarni qisqartirish sotuv rentabelligini oshirish uchun zarur.

Hizmatchilar sonining qisqartirilishi, sarmoyalar jalb qilishni to'htatish va hokozolardan tashqari tezda yo'qotilgan resurslar harajatlari ustidan to'liq nazoratni amalga oshirish harajatlarni kamaytirishning oddiy usullaridan sanaladi. Yalpi daromadning oshishi joriy to'lov qobiliyati masalasini hal qiladi, bu esa inqirozli vaziyatda o'ta muhimdir. U narhlarni pasaytirish yoki oshirish usuli bilan (narhlarning egiluvchanlik talabiga bog'liq bo'lgan holda), harakatlanish kuchlarini jipslashtirish va ularning harakatini tezlashtirish, qo'shimcha savdo hajmini jalb qilish va hokozolar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Biznes faoliyatini sotish ma'lum bir biznes faoliyatini tutib turish uchun moliyaviy zahiralari va hokozolarni sotish mumkin bo'lganda dolzarb bo'ladi.

#### **8.4. Raqobat strategiyasining har hil bosqichlarida hayotiy yo'nalish tarmoqlari.**

Tovarga o'z hshab tarmoq ham o'z faoliyati davomida bir qancha bosqichlarni o'taydi: yoshlik (tug'ilish), o'sish, o'sishning sekinlashishi, voyaga etish va keksalik.

Yoshlik pag'onasida «o'yin qoidalari», ya'ni tarmoqning faoliyatini belgilab beruvchi qonun - qoidalar shakllangan bo'ladi. Novator tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologik yangiliklar

(nou-hau) yahshilab saqlanadi. Kirish to'siqlari unchalik qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun tarmoqqa yirik tashkilotlar kabi mayda tashkilotlar ham kirishi mumkin. Bozor qirralari, hajmi, segmentlar tuzilishi, o'sish sur'ati va hokazolar faqat ekspert usullar tomonidan baholanadi. U yoki bu texnologiyalarning foydasi, iste'molchilarning ma'qul topishlari qanchaligi to'g'risida noaniqlik mavjud.

Standartlar mavjud emas. Shuning uchun har hil tashkilotlar texnologik ko'lamda, harakatlanish va to'ldirishda «o'z yo'llari»ni topishga harakat qiladi. Miqyoslar ta'siri va unga egallash iqtisodi egallanmagan homashyo bilan ta'minlashda va egallashda qiyinchiliklar tug'diradi, chunki boshidanoq iste'molchilarning novator qismigina jalb qilingan bo'lishi, bu esa barcha iste'molchilarning 20 dan 5 qismiga to'g'ri kelishi, shuningdek, iste'molchilar yanada takomillashgan modellarni kutishlari va haridni keyinga qoldirishlari mumkin. Yosh tarmoqlarda faoliyat yurgizayotgan tashkilotlarda ikkita muhim muammo paydo bo'ladi: ishlab chiqarish va uni to'ldirish uchun zarur homashyoga ega bo'lish imkoniyati va raqobatchilik afzalliklari mehanizmini jamlashni belgilab olish.

Kichik tarmoqlarda faoliyat yurgizayotgan firmalarning tajribasini tahlil qilish quyidagilarni e'tiborga olishga imkon beradi:

- raqobatlik ustunligiga erishish uchun optimal strategiya yo'lini tanlab, tashkilot birinchilardan degan maqomga ega bo'ladi. Bu esa unga ergashuvchilarga nisbatan afzalliklar yaratadi. Tashkilot ozuqasini ko'proq egallab olishi lozim. Uning bu harakatlari esa miqyoslar ta'siri doirasi hisobiga ushlanib qolishini pasaytiradi;

- ushbu oziqalarning joylashgan erini aniqlashda hatolikka yo'l qo'yish mumkin emas, chunki bunday ishlab chiqarish kuchlariga sarmoya jalb qilishda havf juda yuqori bo'ladi.

Dastlabki tashkilotlar o'z firmalarining savdo belgilarini yaratishga alohida e'tibor berishlari zarur. O'sish jarayonidagi raqobatchilik kurashi asosan bozordagi ulushini kengaytirish uchun bo'ladi. Aytish mumkinki, bozor hajmi sezilarli sur'atda o'sganda tarmoq mustahkam tizim hisoblanmaydi, ya'ni teng bo'lmagan vaziyat holatida bo'ladi. Unchalik sezilarli bo'lmagan tashqi va ichki e'tirozlar tizim faoliyati sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Bu bosqichda asosiy vazifa to'g'ri rejalashtirish bo'ladi. Agar tashkilot istiqbolli talablarni baholay olmasa, uni qoniqtira olmasa, u albatta, o'zining bozordagi ulushini boy beradi. Agarda u bu vaziyatga

ortiqcha baho berib, ishlab chiqarish quvvatini oshirib yuborsa, faydasiz sarmoyalar keltirib chiqargan omadsizlikka uchrashi mumkin. Ishlab chiqarish quvvati oshirib yuborilganligini aniqlab beruvchi vazifa tarmoqlar uchun alohida dolzarbdir. Aynan mana shu davrda «ta'minotchi tashkilot» va «iste'molchi tashkilot» aloqalarining shakllanishi jarayoni yuzaga keladi. Bunda ta'minotchilarning raqobatchilik kuchi etarli darajada katta bo'ladi. Aynan ular bir tarmoqlarning mag'lubiyatini, ikkinchi tarmoqning esa muvaffaqiyatini ta'minlaydilar. Shuning uchun mustahkam, o'zaro ishonch va manfaatdorlikka asoslangan uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish zarur. Kutilishi mumkin bo'lgan harakatlar –uzoq muddatli, ta'minotchi va iste'molchilarga ular uchun foydali shartlar asosida ekslyuziv shartnomalar tuzish. Bu bosqichda raqobatchilik ustunligini saqlab turishga halal beradigan to'siqlarga texnologiyalarni mukammallashtirish uchun kuch sarflanayotganligi hamda yangi tovarlar yaratilayotganligi sabab bo'ladi. Tashkilot imkoniyatlardan miqyos doirasida unumli foydalanishga shoshilishi, muhim ta'minotchilar bilan aloqalarni mustahkamlashi, mahsulot tarmog'ini faol rivojlantirishi, iste'molchilarning yangi segmentlarini izlash bilan shug'ullanishi, yangi geografik hududlarni egallashi kerak. Shuni doim u yodda tutishi kerakki, keng imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi raqiblar har vaqt paydo bo'lishlari mumkin.

O'sish sur'atining pasayish bosqichi bozor tarmoqlari hajmi pasayishini yuzaga keltiradi va raqobatchilikning hususiyatlarini o'zgartiradi. Tarmoqli tashkilotlar mahsulot sifatini oshirish, servis hizmati raqobatchilikning qiymat komponentlarini boshidan kechiradilar. Tarmoq voyaga etgan davrda raqobatchilik kuchayadi, asosan yangi iste'molchilarni jalb qilish jarayoni sezilarli darajada qiyinlashadi.

Raqobat raqiblarning mijozlarini ular uchun foydaliroq bo'lgan sharoitlar evaziga og'dirib olishga qaratiladi. Bu bosqichda tarmoqning foydasi sezilarli darajada pasayadi, shuningdek, raqobatchilik kurashi kuchayadi.

Keksalik bosqichida tarmoq quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- talabning pasayishi raqobatni keskinlashtiradi va uning shakllarini murakkablashtiradi;
- ta'minotchilarning raqobatchilik kuchi ortib boradi;

- raqobatchilik kurashida narh va sifatning roli ortadi;
- halqaro raqobat kuchayadi;
- o'rta tarmoq foydasi pasayadi.

Tarmoqli kompaniyaning harid miqdori, qo'shilishi, tarmoqlardan tashkilot ilgari qo'llagan strategiyalarga quyidagi yo'llar bilan o'zgartirishlar kiritish mumkin:

Birinchisi - ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nomenklaturasini aniqlash. Bu bosqichda narhlar omilining ahamiyati ortadi, shuning uchun ular tashkilot miqyosida muayyan ta'sir doirasiga to'liq ega bo'lishlari kerak;

Ikkinchisi – diqqatni texnologik va tashkiliy innovasiyaga jalb qilish kerak. Bunday yondashish takomillashgan ishlab chiqarish va tashkiliy texnologiyalar hisobiga tannarhni pasaytirish imkonini beradi. Masalan, Yapon firmalari, jumladan, Toyota «aniq muddatda» o'z tashkiliy texnologiyasini ishlab chiqdilar. Bu esa ishlab chiqarish imkoniyatlarining darhol o'sishiga sabab bo'ldi;

Uchinchisi – yahshi harid narhlari hisobiga e'tiborni uncha qimmat bo'lmagan jamlamalarga qaratish va h.z.lar;

To'rtinchisi – mavjud mijozlarga sotuv hajmi oshirilishi natijasida tashkilot raqiblarning mijozlarini o'ziga og'dirib olishga nisbatan ko'proq ma'qul bo'lgan vaziyatga tushadi.

Beshinchisi – raqib tashkilotni qimmat bo'lmagan narhlarda sotib olish. Bir kancha holatlarda tashkilotning qiymatli qog'ozlarini chorasiz qolgan holatlarda arzon garovga otib olish kerak bo'ladi;

Oltinchisi – halqaro bozorga chiqish. Bu bosqichda ishlash jarayonida eng ko'p yo'l qo'yiladigan hato – tarmoqlarning keksayganligini tan olishni istamaslik va asossiz ravishda yaxshilanishini kutish.

## **8.5. Raqobat strategiyasining ayrim bo'laklari tarmog'i.**

Raqobat strategiyasining ayrim bo'laklari tarmog'iga quyidagi xususiyatlar hosdir:

- yagona rahbarning yo'qligi;
- nisbatan kichik raqiblarning ko'pligi.

Tarmoqlarning bo'laklariga novvoyxonalar, mehmonxonalar, restoranlar engil-bosh, oyoq-kiyim ishlab chiqarish va h.k misol bo'la oladi.

Tarmoq bulaklarining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- miqyos ta'sir doirasining yuqligi yoki sayozligi;
- iste'molchilarning turli mintaqalarda sochilib yotganligi;
- harajatlar tizimida transportlar tutib turishning ahamiyati kattaligi;
- nisbatan kam miqdordagi iste'molchilar;
- imidjga asoslangan mahsulot differensiyasining yuqori pog'onasi;
- mahalliy-hududiy boshqaruv har hil geografik mintaqaga o'ziga hos ravishda ta'sir ko'rsatishi.

Ayrim bo'lak tarmoqlarda strategiyaning quyidagi turlarini qo'llash mumkin:

- standart hizmatlarni yaratish va qo'llash;
- global iqtisod;
- tovar va hizmat usullarining o'sishi hisobiga iste'mol narhlarining oshishi;
- tor mahsulot tarmog'i;
- tor doiradagi mijozlarga hizmat ko'rsatish;
- tor geografik hudud miqyosida ishlash;

Halqaro bozorlarda raqobatchilik strategiyasi. Biznesning baynalminallashuvi bir qancha sabablar natijasida sodir bo'lishi mumkin. Ular orasida quyidagilar asosiy o'rin tutadi:

- yangi iste'mol bozorlarini topishga harakat qilish;
- mahsulot tannarhini pasaytirish istagi;
- tik (vertikal) yo'nalishli integrasiyani amalga oshirish istagi.

Baynalminallashuv jarayoniga turli sabablar ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, ish haqi, soliqlar, energiya qiymati, resurslar va h.z farqi;

- almashuv kurslarining o'zgarib turishi;
- ta'riflardagi farqlarni belgilashning, kvotalar narhlarining yuqoriligi, texnik standartlar, sertifikatsiyalar, valyutalar olib chiqib ketilishining davlat tomonidan boshqarib turilishi;
- madaniyatlardagi farqlar.

Baynalminal strategiyani bir qancha turlarga bo'lish mumkin:

- chet el firmalariga ishlab chiqarish va mahsulotining harakatlanishi huquqini beruvchi litsenziya, litsenziyali bitim asosida patentlardan foydalanish huquqini berish;
- firmaning savdo markasini namoyish etish;

- ishlab chiqarishni bir mamlakatda va eksportni boshqa mamlakatda amalga oshirishning batafsil yoki yagona distribusiyasi shemasi asosida mualliflashtirilgan dilerlik, vakolathonalar;
- turli mamlakatlardagi mijozlarning o'ziga hos ehtiyojlarini qondirish, masalan, ularga mahsus stanok va asbob-anjomlarni, himikatlarni, dasturli mahsulotlarni etkazib berish;
- avtomobilsozlik, samolyotsozlik, mashinasozlik ishlab chiqarishi tarmoqlariga hisoblash texnikalarini tayyor mahsulot tarzida etkazib berish borasidagi standirt ehtiyojlarni qondirish.

### **Qisqacha hulosalar.**

Barcha tadbirkorlarning raqobat ustunligini ushlab qolish yo'lidagi sa'y-harkatlari – hujum strategiyasidir. Raqobatdagi chegaralarni og'ishmay mustahkamlash mudofaa strategiyasidir.

To'g'ri yo'nalishli integrasiya – bozordagi ulushni ko'paytirish iloji bo'lmay qolganda biznesni kengaytirish hohishining paydo bo'lishi.

Portfel strategiyasi «etti determinant» konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, uning yuzaga kelishida kamida ettita sabab katta rol o'ynaydi.

Raqobatni o'rish bilan taqqaoslab bo'ladi. ularni har hil tomoniga hujum qilinadi.

Har bir tashkilot ham ta'minotchi, ham istemolchidir. Tarmoqlararo etakchilar odatda. YAhsli tanlangan bo'ladi: IBM, MC Donalds, Gillette, Xerix va hokazolar.

### **Tayanch iboralar.**

Raqobat, firma, hujum va mudovoo strategiyasi, «mustahkam zahiralar», narh, reklama, distribyuterlar, strategiya g'oyasi, monopoliya, diller, ekslyuziv shartnomalar, hamkorlik, manfaatdorlik, kafolat muddati, potelsiallash, ta'minotchilar, kompaniya, ishlab chiqarish quvvatini modernizasilash, raqobatbardosh, narhlar, tashkilotning imidji, mustahkamlash va himoyalalanish strategiyasi, yalpi daromad, to'lov qobiliyati, o'sish sur'atining pasayishi, halqaro bozorlar, tarmoq, biznesning baynalminallashuvi, almashuv kurslari, ish haqi, soliqlar, energiya qiymati, resurslar, porto'el strategiya.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Hujum va mudofaa strategiyasining ahamiyati?
2. Himoyalashning qanday usullarini bilasiz?
3. To'g'ri yo'naltirilgan strategiya deganda nimani tushunasiz?



4. Turli tarmoqlarni egallash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar strategiyasi?
5. Raqobat ko'rinishida notug'ri tahminlar mag'lubiyatiga olib kelgan hollarga misollar keltiring?
6. Portfel strategiyasining tushunchasi?
7. Halkaro bozordagi raqobat strategiyasi?
8. Raqobatda qanday hujum qilish atamalari mavjud?
9. Etakchilar uchun qancha strategiyani ajratib to'ruvchi ko'rsatkichlar bor?
10. Tarmoq o'z faoliyati davomida qancha bosqichlarni o'taydi?

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. «Havfsizlik va tinchlik uchun ko'rishmoq kerak». T.: O'zbekiston 2002
2. Gurkov I.B. Strategicheskii menedjment organizasii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
3. Kravchenno R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informasiyu – M.: Spark, 2002.
4. Halikova G. Strategicheskoe planirovanie. – T.: TGEU, 2000 g.
5. Yakubov I.O., Abdusattarova H.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'zR Yozuvchilar uyushmasining adabiyot jamg'armasi nashriyoti. O'quv qo'llanma T.: TDIU. 2004.
6. Buhalkov M.I. «Vnutrifirmennoe planirovanie» uchebnik 2-edianie Moskva INFRA-M 2001.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. «Evropa tiklanish va taraqqiyot banki» ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Halqaro valyuta fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)
6. [Tehnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Razrabotka strategii | Kb - http://www.iteam.ru/publications/strategy/section](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section)
7. [Tehnologii korporativnogo upravleniya Strategicheskoe planirovanie i upravlenie. Sistema sbalansirovanno'h pokazateley \(B... Kb - http://www.iteam.ru/conferences/739/](http://www.iteam.ru/conferences/739/)

8. [Tehnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Missiya firmo' | Kb -](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section)  
<http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
9. [Strategicheskoe biznes planirovanie, strategicheskiv plan : MD-Marketing Kb - http://md-marketing.ru/strategy/planning.html](http://md-marketing.ru/strategy/planning.html) [md-marketing.ru](http://md-marketing.ru)
10. [Goroda i reformo' Kb - http://lab.obninsk.ru/goroda/04-3.php](http://lab.obninsk.ru/goroda/04-3.php)  
[lab.obninsk.ru](http://lab.obninsk.ru)
11. [Strategicheskoe planirovanie Kb -](http://www.adic.org.ua/nosmoking/2003/04/9quest.ht)  
[http://www.adic.org.ua/nosmoking/2003/04/9quest.ht.](http://www.adic.org.ua/nosmoking/2003/04/9quest.ht)  
[www.adic.org.ua](http://www.adic.org.ua)
12. [Dis.Ru Forum - strategicheskoe planirovanie Kb -](http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma...)  
[http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma... -dis.ru](http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma...)

## **9- BOB: STRATEGIK REJALASHTIRISHNING BOSQICHLARI.**

### **9.1. Strategiyani amalga oshirish.**

Strategiyani amalga oshirish dastaklari o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi yalpi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Strategik rejani aniqlashda uning maqsadi, uslubi, toptik o'zgartirishlar, tadbirlar etakchi o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan, strategik rejalashtirish jarayonini keng ko'lamda ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, firma o'z maqsadlarini biznes sohasida belgilagan o'ringa qarab aniqlaydi. Firmaning tegishli biznes sohasidagi o'rnini missiya, deb ataladi va u o'z navbatida, maqsadlarni ishlab chiqishga va strategiya shakllanishiga asos bo'ladi. Bunda istiqboldagi o'zgarishlar va uning firma uchun ko'ngilli jihatlari nazarda tutiladi. Strategiyani tanlash bosqichida asosiy e'tibor qo'yilgan maqsadlar sari samarali yo'nalishlarni aniqlashga qaratiladi.

Strategiyani tanlashda muqobil strategiyalarga qiyosiy baho berish, joriy va kelgusi raqobatchilik mavqelarini aniqlash lozim.


#### **3-jadval**

#### **Strategiyani tabakalashtirish (differensiasiya) uslublari**

Strategiya yo'naltirilgan guruhlar	Bozor bo'yicha tabaqalashtirish	Mahsulot bo'yicha tabaqalashtirish
Iste'molchilar	Firma va uning mahsuloti xususida qat'iy obzor	Mahsulot tafsiloti
Raqobatchilar	Bozordagi ulush (bozordagi nazorat)	Savdo markasi, patent

Raqobatchilikdagi mavqeni dastlab baholashda raqobat intensivligi va ko'lamiga qarab, strategik mavqeni anglash zarur. Strategik mavqeni firma umumlashgan tarzda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, bozorlar va mahsulotlar bo'yicha tabaqalashtirishi kerak. Chunonchi, I. Ansoff bu xususda fikr yoritib firmaning raqobatdoshlik strategiyasini tabaqalashtirish vazifasi bilan bog'laydi. Raqobatchilik strategiyasini mahsulot bo'yicha va bozor bo'yicha

tabaqlashtirishda u bevosita xaridorlarga va raqobatchilarga qaratilgan bo'lishini ta'kidlaydi.



**6-chizma.** Strategik rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari

Resurslar turi bo'yicha, bu'rtmalar bo'yicha, qabul qilingan tegishli dasturlar bo'yicha, faoliyat sohalari bo'yicha tartibga solingan va taqsimlangan bo'lishi kerak.

Budjetlar-resurslarni taqsimlash uslubi bo'lib, ularda maqsadga erishish uchun miqdoriy xatoliklar, tasodiflar imkon boricha to'la nazarda tutilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, xatoliklar va tasodiflar ham rejalashtirishda inobatga olingan bo'lishi kerak.

## **9.2. Strategik tahlilni amalga oshirish yo'nalishlari.**

Strategiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan dastaklarni quyidagi tizimda ifodalash mumkin: tashkiliy konsepsiya, taktika, siyosat, tadbirlar, qoidalar va huquqiy asoslar. Tashkiliy konsepsiya roqorida ta'qidlanganidek, firma miqyosida belgilanadigan qoidalar hisoblanadi. Belgilanayotgan tadbirlar va konkret qoidalar firma faoliyat roritayotgan tarmoq va tegishli mamlakatdagi qonunchilik asoslariga tayanadi. Keyingi bosqichlarda strategiyaning yalpi tahlili, maqsadlarga qay darajada erishilganligi ko'rib chiqiladi va yalpi davr uchun ko'ngilli, keng imkoniyatli yangi maqsadlar ishlab chiqiladi. Strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish davriy, uzluksiz jarayondir. Shu sababdan har bir bosqichda amalga oshirilayotgan strategiyaning belgilangan maqsadlar sari yo'naltirilganligiga baho beriladi.

Strategiyani amalga oshirish, shubhasizki, boshqarish tizimining izchilligi, tashkil etish darajasiga bevosita bog'liq. Amaliy faoliyatda firmaning boshqarish sohasidagi ko'nikmasi, harakatlari va intilishlari firma tarzini, korporativ madaniyatining shakllanishini ta'minlaydi. Misol tariqasida strategik rejalarni amalga oshirishda g'arb va yapon modellarini olib ko'raylik. Ushbu ikki boshqarish tizimidagi xususiyatlar turli-tuman bo'lishi bilan bir qatorda rejalarni amalga oshirishda ham birmuncha sezilarli farqlar mavjud.

### **g'arb modeli.**

- tanlovni tahlil qiluvchilar tomonidan optimallashtirish;
- rahbarlarning qaror qabul qilishdagi qat'iyati;
- tadbirlarning ketma-ketligi.

### **Natijalar.**

- qarorlarning tezkorligi;
- harakatlar uzoq siklining mavjudligi;
- rejalarni amalga oshirishdagi to'sqinliklar.

### **Yapon modeli.**

- tanlovning ma'qulligini (ko'ngilliligini) ta'minlash;
- rejalarning amaliy bajarilishini ta'minlash;
- harakatlar yo'nalishini optimallashtirish.

### **Tadbirlarning paralelligi.**

0.....T1

0.....OT2

### **Natijalar:**

- qaror qabul qilishning uzoqligi;
- harakatlarning qisqa sikli;
- rejalashtirishning barcha ijrochilari tomonidan amalga oshirilishi ("ringo");
- rejalarning bajarilishini yalpi qo'llab-quvvatlash.

Bunday holatning vujudga kelishida xodimlar mehnatini tashkil etish, ishga munosabat, ijroni nazorat etish, korporativ madaniyat va boshqa omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AqsHda xodimlar mehnati qisqa muddatlarga yollashga asoslansa, Yaponiyada butun hayot davomida yollash asosiy o'rin egallaydi. Yapon kompaniyalarida xodimlar muvofiqshtirishsiz, jamoaviy mas'uliyat va mutasaddilik yuqori baholansa, Amerika kompaniyalarida shaxsiy ma'suliyat, natijalar va samaradorlikka e'tibor xodimlar mehnatini tashkil etishda etakchilik qiladi.

Strategiyani amalga oshirishda maqsadlar asosida boshqarish (inglizcha-management by objectives) uslubi ham keng tarqalgan. Ushbu uslub rejalarni bajarishda boshqarish vazifalarini birlamchi qilib belgilaydi. Jumladan, rejalashtirish va ularni nazorat qilish vazifalarini inson resurslarini boshqarish bilan bir yo'la hal etishga harakat qilinadi.

Maqsadlar asosida boshqarish, o'z navbatida, maqsadlarni ishlab chiqish, harakatlar rejasini tuzish, tekshirish va baholash, tuzatuvchi choralar kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Jumladan, harakatlar rejasi 6 quyidagicha bo'linadi:

1. Maqsadlarga amaliy erishish imkoniyatini baholash;
2. Asosiy faoliyat uchun zaruriy bog'lanishlarni aniqlash;
3. Har bir faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy bo'lgan rollar, munosabatlar va tayinli vakolatlarni belgilash;

4. Har bir jarayon va quyi jarayon uchun kerakli vaqtni aniqlash;

5. Har bir jarayon uchun zaruriy resurslarni aniqlash;

6. Muddatlarni tekshirish va harakatlar rejasini tuzatishi (korrektirivka qilish).

Maqsadlar asosida boshqarish uslubi o'zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega va u ko'proq boshqarish muammolari sifatida tahlil etiladi. Lekin bevosita strategiyani tanlash, amalga oshirish va nazorat qilish, qolaversa, uning samaradorligi boshqaruv tizimining izchilligiga bog'liq. Shu sababli, har bir belgilanayotgan strategiya boshqaruv sub'ektlari tomonidan tanlanishi va amalga oshirilishi tufayli ularda muayyan tafovutlar mavjud bo'lishi tabiiydir. Bu tafovutlar, jumladan, ular strategiyada:

- baho berishda;
- qaror qabul qilishda;
- obzorlari turli-tumanligiga;
- strategiyalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;
- strategik nazoratda va sifatda namoyon bo'ladi.

Ushbu muammolarga boshqarish muammolari sifatida qaralsa, ular firma mavqesi, tarzi (imidji) shakllanishida, raqobat kurashidagi tavakkalchilik siyosatida, firma xodimlarining o'zaro hamkorligida, rejalarining o'z vaqtida va samarali bajarilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, strategiyani amalga oshirishda, uning samarali va izchil bajarilishida boshqarish tizimining xususiyatlari va salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik tahlil o'z mohiyati jihatidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan va amaldagi joriy strategiyani qayta baholashga, solishtirishga asoslanadi. Strategik tahlilning zarurati shundan iboratki, amalga oshirilayotgan va kelajak uchun rejalashtirilgan vazifalar bevosita firma faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holatlarni, o'zgarishlar va favqulodda sharoitlarni hisobga olmasdan, uning izchilligini va samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi.

Birinchidan, firmaning "sistema" sifatida qaralishi, raqobatchilar, safdoshlar, ta'minotchilar, xaridorlar, bozorlar holati va raqobatdagi mavqega bog'liqligi hozirgi sharoitda yanada ortdi va keng ko'lamli strategik tahlilni taqozo etilmoqda.

**Ikkinchidan**, firmaning ichki o'zgarishlarini samarali tashkil etish, ilmiy-texnikaviy yangilanish sari intilishning kuchayishi har bir bosib o'tiladigan bosqichdan so'ng yana strategik mavqeni qayta baholashni, belgilangan strategiyaga o'zgarishlar kiritishni, ya'ni davriy va muttasil strategik tahlilni talab etadi.

**Uchinchidan**, firmaning tadbirkorlik ob'ekti sifatida faoliyat o'ritish, iqtisodiy ko'rsatkich samaradorligini doimiy nazorat etib borish zarurati joriy reja tahlilini, qolaversa, joriy strategiyani miqdoriy baholashni talab qiladi. Demak, strategik tahlil tashqi muhit va raqobatchilik mavqei, imkoniyatlar va cheklanishlar, natijalar va holatlar ko'lamida qaralishini nazarda tutadi.

Zamonaviy menejment sohasi rivojlanishi firmalarning yaqin istiqbolni aniqlashdagi o'rinlarining kompleks tahlili bilan bog'liq bo'lgan "nazorat" vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bozordagi faoliyatga, xaridor ehtiyojlarini o'rganishga e'tiborning kuchayishi "marketing reviziyasi" alohida bir soha, izlanish yo'nalishi va strategik tahlil ob'ekti sifatida shakllanishiga olib keladi. Lekin firmaning jamiyatga nisbatan o'rnini, ishtiyqli yoki ko'ngilsiz guruhlar bilan bo'ladigan munosabatlarni muvofiqlashtirishda strategik tahlil o'z dolzarbligini saqlab qoldi.

Strategik tahlil amaliy jihatdan firmalar faoliyatida dastlab:

- marketing faoliyatiga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar tahlilini;
- innovation faoliyatga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar tahlilini o'z ichiga oladi va ushbu yo'nalishlar bo'yicha shakllanadi.

So'ngra u strategik mavqe tahlili, o'zgarishlar sharoitida tuzatishlar, qarshiliklarni seza bilish tahlili kabi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. M. Meskon, M. Albert va F. Xedouri fikrlariga ko'ra, tashqi muhit ko'rsatkichlari umumiy tarzda " tashqi xavf-xatarlar va imkoniyatlar ko'lamini " sifatida qiyoslanishi mumkin va ekspert uslubida baholash maqsadiga muvofiq jadvalda ifodalangan omilning darajasi q5 bo'lsa, u o'rta ijobiy miqdorda, 0 bo'lsa neytral miqdorda, -5 bo'lsa, o'rta salbiy miqdorda ta'sir ko'rsatadi.

Omilning ta'siri q50 bo'lgan holatda, kuchli ta'sir, ya'ni, keng imkoniyat, deb baholanadi; omilning ta'siri 0 bo'lsa, ta'sir yo'qligi (ta'sir neytral) deb tushiniladi; omilning ta'siri -50 bo'lgan holatda esa, ta'sir salbiy, ya'ni, jiddiy xavf-xatar mavjud, deb baholanadi.



Shundan so'ng korxonaning kuchli va kuchsiz jihatlarini baholash lozim bo'ladi. Tahlilni birmuncha soddalashtirish maqsadida tadqiqot uchun firmaning 5 faoliyat sohasi bo'yicha ko'rsatkichlarni kiritish etarli hisoblanadi.

Jumladan, marketing, moliya - buxgalteriya ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish, mehnat resurslari, korporasiya madaniyati. Ushbu ko'rsatkichlar ko'lami birmuncha keng va uni birgina jadvalda aks ettirish qiyin, shu sababdan ularni ushbu qo'llanmada keltirishni lozim topmadik.

Ijtimoiy omillar o'zgarishi hozirgi davrda o'zining jadalligi va tez o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Jamiyat atvoridagi, millatlar qadriyatlaridagi o'zgarishlar natijasida tadbirkorlikka ishonch, munosabat, tarz qanday o'zgaradi? Ayollarning jamiyatdagi o'rni, menejmentlarning firma boshqaruvidagi o'rni, iste'molchilar himoyasi kabi omillar ta'sirida firma strategiyasi qanday o'zgaradi? Firma o'z strategiyasini jamiyatga nisbatan qanday tahlil etishi lozim?


4-jadval

Omillar	Omilning qiyosiy darajasi	Omilning ta'siri
Iqtisodiy	=1x(=20)	=20
Siyosiy	=2x(-10)	-20
Bozor	=1x(=20)	=20
Texnologik	=4x(-30)	-120
Raqobat	=1x(-20)	-20
Xalqaro	=3x(-10)	-30
Ijtimoiy	=4x(=10)	=40

I. Ansoff fikricha, u maqsadlar, cheklashlar va tashqi kuchlar maydoni tahlili asosida amalga oshirilishi kerak. Umuman olganda, firma "shartnomalar yoki bitimlar strategiyasini" ishlab chiqishi zarur.

IQoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, firma strategiyasi shakllanishida turli ijtimoiy guruhlar manfaatlari hisobga olinishi u yangi jamiyatga nisbatan tez moslashishida muhim o'rin tutadi. Ushbu fikrning isboti tariqasida AqsH, Germaniya, Fransiya, Buok Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda so'nggi 20 yil ichida qabul qilingan qonunlar, cheklanishlar ko'lamini ko'rib o'tish kifoya.

Xullas, biznes strategiyasi “o‘yin qoidalari”ning kelgusidagi o‘zgarishlarini, ijtimoiy guruhlar ishtiroqidagi o‘zgarishlarni kuzatishni talab etadigan murakkab jarayondir. Firma amalga oshirayotgan strategiyasiga doimiy tarzda tahliliy va tanqidiy yondashishi zarur. Firmaning barcha ijtimoiy guruhlar bilan “manfaatlari muvofiqlashtirilgan” strategiyasi hozirgi paytda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutayotgan mamlakatimiz va uning korxonalari faoliyatida ham o‘z o‘rnini topmog‘i lozim.



## 7-chizma. Manfaatlar bo'yicha kelishilgan strategiya

### **Qisqacha xulosalar.**

Strategiyani tanlash va amalga oshirishda muqobil strategiyalarga baho berish, joriy va kelgusi raqobatchilik mavqelarini aniqlash lozim bo'ladi.

Strategik tahlil o'z mohiyati jihatidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan va amaldagi joriy strategiyani qayta baholashga, solishtirishga asoslanadi.

Tashqilotlar missiyasi va obrazlari ishlab chiqish. Tashqilot maqsadlarini belgilash, tashkilot strategiyasini ta'sir etuvchi omillari baholash, bozorning boshlang'ich holatining tahlil qilish.

Strategiyani oniaiga birini jarayoni o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi yalpi tizim sifatida namoyish bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Strategik rejani aniqlashda uning maqsadi, uslubi, o'zgarishlar, tadbirlar etakchi o'rin egallagani uchun strategik rejalashtirishni keng miqyosda tahlil qilinadi. Strategiyani tanlash bosqichida maqsadlar sari samarali yo'nalishlarni aniqlash muhim hisoblanib, unda muqobil strategiyalarga qat'iy baho berish joriy va kelgusi raqobatchilik mavqeqlarini aniqlash lozim.

### **Tayanch iboralar.**

Bozor bo'yicha tabaqalantirish, mahsulotlar bo'yicha tabaqalantirish, maxsulot tafsiloti strategiyasini tomol, strategiyani baholash, strategik tahlil, biudjet-redaktorini taqsimlash usuli. Tashkiliy konsepsiya, taktika, siyosat, tadbirlar, strategik rejalarni amalga oshirishning yapon va g'arb modeli, maqsadlar alodi boshqarish, marketing faoliyat bog'liq bo'lgan o'zgarishlar tahlili, innovation faoliyat bog'liq bo'lgan o'zgarishlar tahlili, ijobiy omillar o'zgarish, biznes strategiyasi, manfaatlar muvofiqlashtirish strategiyasi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Strategik rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari qanday?
2. Strategiyani amalga oshirish nimaga bog'liq?
3. Strategiyani tabaqalashtirish usullari
4. Strategik tahlilni amalga oshirish yo'llari

5. Strategiyani amalga oshirishda g'arb va Japon modellarining ahamiyati.
6. Strategiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan dostaklar nimalardan iborat?
7. Strategiyani amalga oshirishni bosqichlarida nimaga alohida baho beriladi?
8. Maqsadlar asosida boshqarish uslubi deganda nimani tushunasiz?
9. Harakatlar rejasining quyi bosqichlari nimalardan tashkil topadi?
10. Strategik tashlil nima uchun zarur hisoblanadi?

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
2. I.A.Karimov Tolko zdorovo'y narod, zdorovaya nasiya sposobno' na velikie sversheniya «Vo'stuplenie Prezidenta respubliki Uzbekistan Islama Karimova na torjestvennom sobranii, posvyahennom 12-y godovhine Konstitusii Respubliki Uzbekistan» Delovoy partner. № 49. 9 dekabrya 2004g.
3. Zub A.T. «Strategicheskii menedjment teoriya i praktika» Uchebnoe posobiya 2-e iz-d, ISPR.dop. \_ M.: Aspekt Press, 2004.
4. Kravchenko R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informasio – M.: Spark, 2002.
5. Dadaboev YU.T., Mamutova X.SH., Strategicheskoe planirovanie. – Fergana, 2000.
6. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'zR Yozuvchilar uoshmasining adabiyot jamg'armasi nashriyoti. O'quv qo'llanma T.: TDIU. 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Xalqaro valrota fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)

6. [Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Razrabotka strategii | Kb -  
http://www.iteam.rug/publications/strategyg/section](http://www.iteam.rug/publications/strategyg/section)

## **10-BOB: MIKRODARAJADA (FIRMA) STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TASHKIL ETISH.**

### **10.1. Firmaning ichki va tashqi muhitlari tahlili.**

Tashkilot muhitining tahlili, bu – tashqi va ichki muhitning firmaning o'z maqsadlariga erishish qobiliyatlariga (imkoniyatlariga) ta'sir etishi mumkin bo'lgan nihoyatda muhim elementlarini aniqlash jarayonidir.

Muhit tahlili firmaning faoliyatida bir qator muhim vazifa (funksiya)larni bajaradi:

- strategik rejalashtirish nuqtai nazaridan, iqtisodiy tashkilot (iqtisodiy tashkilotchilik) va uning kelajagiga ta'sir etuvchi eng muhim omillarni hisobga olishni yaxshilaydi (yangilash tiradi);
- firmaning siyosati nuqtai nazaridan unga o'zi to'g'risida yanada (eng) ijobiy taassurot yaratish (qoldirish)ga yordam beradi;
- joriy faoliyat nuqtai nazaridan, ishchi vazifalarning eng yaxshi bajarilishi uchun zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlaydi.

Tashkiliy muhit tahlili, jarayoni firmaning ichki va tashqi makoni (muhit) asosiy elementlarining aniqlanishidan boshlanadi. Bu elementlar aniqlanganidan so'ng firma ularning orasidan eng muhimlarini (belgilab) ajratib olishi shart: ularni «kritik nuqtalar» deb nomlashadi. Keyin firma kritik nuqtalar to'g'risidagi zaruriy axborotlarni to'playdi.

Har bir (istalgan) tashkilotning muhitini uch muhit: ichki muhit, ishchi muhit, umumiy muhitlarning yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin.

Tashkilotlarning ichki muhiti o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni oladi: ishlab chiqarish, moliya xodimlarini boshqarish, marketing, tashkiliy struktura (tuzilma). Ichki muhit tavsifi tashkilot faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlari, uning ichki imkoniyatlari to'g'risida tasavvur beradi.

Boshqa ichki muhit (makon) firmaning tashqi muhitini tashkil etadi.


Ichki muhit – firma bilan bo'lgan bevosita aloqalar muhitidir. U o'z ichiga bozorning firma bilan to'g'ridan - to'g'ri munosabatlari bo'lgan yoki firmaga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir etuvchi maydonlarini

oladi. Bu, birinchidan, firmaga zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni (xomashyo, moliyaviy kapital, ishlab chiqaruvchi kapital) etkazib beruvchilardir. Mehnat ta'minotchilari - yollanma ishchilar alohida ajratiladi, so'ng mijozlar - firma mahsuloti iste'molchilari, vositachilar – moliyaviy, savdo, marketing vositachilari, davlatning iqtisodiy tuzilmalari (masalan, soliq nazorati) alohida ajratiladi. Ikkinchidan, ishchi muhit elementlari qatoriga raqobatchi firmalar va aloqa auditoriyalari, firmaning ijobiy yoki salbiy qiyofasi shakllanishiga muhim ta'sir o'tkazuvchi ommaviy axborot vositalari, imte'molchilar jamiyatlari va boshqalar kiritiladi.

Tashkilotning ishchi muhitini boshqacha qilib firmaning mikro muhiti deb ham nomlashadi.

Umumiy muhit firma bilan to'g'ridan - to'g'ri bog'langan, biroq biznesning umumiy atmosferasi (muhiti) shakllanishiga ta'sir etuvchi elektrlardan iborat. Biznesning umumiy muhitini ba'zida «firma ekologiyasi» deb ham nomlashadi. Umumiy muhit – firmaning belvosita aloqalari muhitidir. Umumiy muhitni to'rt asosiy elementga ajratishadi – iqtisodiy, texnologik, siyosiy va ijtimoiy omillar. Ularning har biri, o'z navbatida, boshqa omillar bilan yaqindan bog'langan bo'ladi va ularga ta'sir etadi (8-rasm).

prinsipial jihatdan yangicha va muomala uchun oddiy bo'lgan, IVM tomonidan ishlab chiqarilayotgan yirik EHM lar chiqarish orqali egalladi.



8-chizma (Tashkiliy muhit). Tashkiliyning muhiti pog'onalari va ularning elementlari.

Shunday qilib, texnologiyadagi o'zgarishlar raqobat kuchlarining yangicha tuzilishiga (joylashishlariga) olib kelishi mumkin. Mashhur AyBiEm (IVM) o'z bozorining katta qismini komp'rotorlarning. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidagi o'zgarishlar iqtisodiy kon'ionkturaning yomonlashishiga zamin yaratdi, ilg'or texnologiyalarga yangi investisiyalar (qilish) imkoniyatini kamaytirdi. Umumiy ta'sir muhiti, shuningdek, firmaning makromuhiti deb ham nomashadi.

Tashkilot muhitining umumiy tuzilishi bilan tanishib chiqib, firma uning elementlari yig'indisidan, o'zi uchun eng muhimlarini ajratib olishi, boshqacha aytganda, boshlang'ich bosqichdanoq firma muhit tahlililning chegaralarini belgilab olishi shart.

Bunday chegaralarning belgilanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- kritik nuqtalarning, ya'ni muhitning eng muhim elementlari miqdori va tavsifi tashkilotdan tashkilotga o'zgaradi (tashkilotlar uchun o'zaro farq qiladi);
- muhit tahlili vaqt o'lchamlari (chegaralari) bilan (belgilangan) cheklangan: qisqa muddatda firma ko'p hollarda uning joriy faoliyatiga kritik (nihoyatda) ta'sir etadigan elementlar, ya'ni ishchi muhit elementlariga o'z diqqat - e'tiborini qaratishi mumkin; uzoq muddatda firmada tashqi muhitning umumiy tavsifi (holati) ni tadqiq etish imkoniyati paydo bo'ladi;
- samarali tahlil faqatgina firma elementining o'ziga xos tomonlari, takrorlanmas jihatlarini aniqlay ola bilganida o'rinli bo'ladi.

## **10.2. Harakat yo'nalishini aniqlash.**

Tashqi va ichki muhit tahlili tugatilganidan so'ng, firma o'z faoliyatining oldingi bosqichi natijalariga asoslangan asosiy mo'ljallarini aniqlaydi (belgilaydi). Ba'zan strategik rejalashtirishda maqsadlarning aniqlanishi (belgilanishi) muhit tahlilidan oldin amalga oshiriladi. Bunday amaliyot o'z ma'nosiga ega: iqtisodiyot mavjudligining o'zi uning qandaydir (bir necha) maqsadlari va kun kechirish (faoliyat rorgizish) motivlari borligini anglatadi.



Firma faoliyati mo'ljallarining butun yig'indisini quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

- ideallar - biz mo'ljallagan muddatda erishishni ko'zlay olmayotgan, biroq ularga yaqinlashishga umid qiladigan mo'ljallar;
- maqsadlar - firma faoliyatining rejalashtirilayotgan davr ichida to'liq yoki katta qismiga erishilishi ko'zlanayotgan umumiyroq mo'ljallar;
- vazifalar – aniq, miqdoriy o'lchanadigan mo'ljallar, ishning bajarilish shakli va vaqtini belgilab beruvchi ishchi funksiyalar seriyasi tavsifi.
- strategiyaning ishlab chiqilishi ideallar va maqsadlarni belgilab olishni nazarda tutadi. Operativ rejalashtirish o'lchamlarida firma ishning har bir ishtirokchisi uchun aniq vazifalar belgilab beradi. Iqtisodiy tashkilotning ideallariga g'oya mazmuniy tarjimasini kiritish mumkin.

/oya mazmuniy tarjimasi - biznesning hukmron falsafasi, firma mavjudligining asoslanishi, firmaning maqsadi emas, balki asosiy maqsadning anglashilishidir. YA'ni, g'oya – bu, kelajakning ideal ko'rinishi, eng qulay sharoitlarda erishilishi mumkin bo'lgan holat.

/oyaga quyidagilar misol bo'la oladi:

- a) shaxsiy komp'yuterlar ishlab chig'aruvchisi – «Apple» firmasining g'oyasi: insoniyatni takomillashtiruvchi intellektual (aqliy) vositalarning dunyo bo'yicha rivojlanishiga hissa qo'shishi bo'lgan;
- b) sog'liqni saqlashga ixtisoslashgan «Merk» firmasining g'oyasi: «Biz inson hayoti saqlab qolinishi va yaxshilanishi uchun biznes bilan shug'ullanamiz. Bizning barcha xatti - harakatlarimiz ushbu maqsadga erishish nuqtai nazaridan baholanishi lozim»;
- v)«Disney» kompaniyasining g'oyasi nihoyatda oddiy shakllantirilgan: «Insonlarni baxtli etish».

«/oya» konsepsiyasi biznes dunyosida borgan sayin mashhurlashib boryapti. /oyaning o'sib borayotgan ahamiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. /oya - firmalar, ayniqsa, yirik va markazlashtirilmagan firma xodimlarini motivlashtrishning yaxshi vositasidir, u odamlarning faoliyatlarini yagona yo'nalishga birlashtiradi.
2. /oyada, odatda, odamlarning foyda olish shakllariga urg'u berilmaydi. U barcha tashkilot ishtirokchilarining ideallarini qadriyatlarining yagona etaloniga birlashtiradi. /oyaning asosiy elementi tashkilotning qadriyatlari tizimi bo'lgan firma madaniyati bilan kesishib ketadi.
3. /oya tashkilot faoliyatida istiqbol hissini yaratadi, firmaning birin - ketin kelayotgan maqsadlari bir - birlarini to'ldirishlarini ta'minlaydi. Har bir maqsad firma harakatlari o'lchamlarini chegaralab qo'yadi, g'oyada finish chizig'i bo'lmaydi, u doimiy taraqqiyot uchun turtki berib turadi.

6. [Texnologii korporativnogo unpravleniya | Stratericheskoe unpravlenie | Razrabotka straterii | Kb - http://www.iteam.ru/publications/strategy/section](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section)
7. [Texnologii korporativnogo unpravleniya \*\*Stratericheskoe nlanirovanie\*\* i unpravlenie. Sistema sbalansirovanno'x pokazateley \(B... Kb - http://www.iteam.ru/conferences/739/](http://www.iteam.ru/conferences/739/)
8. [Texnologii korporativnogo unpravleniya | Stratericheskoe unpravlenie | Missiya firmo' | Kb - http://www.iteam.ru/publications/strategy/section](http://www.iteam.ru/publications/strategy/section)

## **16-BOB: IJTIMOIIY – IQTISODIY RIVOJLANISHNI STRATEGIK REJALASHTIRISH TAJRIBASI.**

### **16.1. Xorijiy davlatlarda iqtisodiy o'sishni rejalashtirish**

Bir qancha chet ellik kuzatuvchilarning tahliliga qaraganda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda rejalashtirish katta o'rin tutadi. Erkin bozor mavjud bo'lgan, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiyotni rejalashtirishda uzoq muddatli rejalashtirish tizimini Yaponiya hukumati xam quvvatlaydi.

G'arbda faqatgina Fransiya va Shvesiya – yaponcha uslubdagi iqtisodiy o'sishida «indekativ» rejalashtirishni tan oladi. Boshqa mamlakatlar, shu jumladan, Germaniya, Buyuk Bretaniya va Kanada ham iqtisodni uzoq muddatli rejalashtirish rejasiga ega. Bu reja tor sohani qamrab olgan, ya'ni xarajatlar rejalashtirilgan bo'lib, ular iqtisodiy siyosatda hech qanday o'zgarishlar kilmaydi. Bir qancha chet el kuzatuvchilarining kuzatish natijalariga qaraganda, Yaponiya hokimiyat organlari bilan xususiy sektor o'rtasida qalin munosabat o'rnatilgan bo'lib, bu munosabat mamlakatning yagona maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan qaraladigan bo'lsa, Yaponiya iqtisodchilarining ko'pchiligi Yapon rejasini iqtisodiy o'sishni ko'rsatuvchi «dekorasiya» deb ta'riflaydilar. Bunda iqtisodiy faoliyat natijalari dasturda ko'rsatilgan yo'riqnomalardan farq qilib, iqtisodga dasturda ko'rsatilgan holatda tatbiq etilmaydi. Bu xildagi iqtisodchilar iqtisodiy o'sish dasturiga boshqacha yondashib, rejani o'zgarib turuvchi reja ko'rinishida tahlil etadilar.

Yaponiya iqtisodiyotini rejalashtirishda iqtisodiy o'sishni rejalashtirish ma'lum xususiy hol hisoblanib, ba'zi mamlakatlar, shu jumladan, Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlari, hozirgi kunda markazdan turib rejali boshqarishga karaganda bozor iqtisodiyotini rejali boshqarishga o'tishida «Yaponcha rejalashtirish» ga iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil sifatida qarashi mumkin bo'ladi.

1988 yilda nashr etilgan «Iqtisodiy boshqarishning global muammolari» nomli iqtisodiy o'sish dasturida shunday deyiladi:

Yaponiya iqtisodiyoti asosan bozor orqali boshqaruvchi iqtisodiyot bo'lib, «hech bir iqtisodiy rivojlanish dasturi iqtisodiyotning har bir sektorini hamda jamiyat vakillarini tahlil etib, majburlab nazorat qila olmaydi».

Yaponiyaning iqtisodiy o'sishini yarejalashtirishdagi asosiy o'rmini quyidagilar orqali ko'rsatamiz:

1. Kelajakni tahlil etishga mo'ljallangan reja (prognoz) - uning asosida iqtisodiyot rivojlanishi mumkin va rivojlanishi kerak;

2. Asosiy iqtisodiy yo'nalish ko'rsatkichlarini tahlil etishda, boshqarishda, o'rta va uzoq muddatli iqtisodiy siyosatini olib borishda, maqsadni ko'rsatishda hokimiyat qatnashib, iqtisodiyotni rejalashtiradi;

3. «Korporativ hamda uy xo'jaligi» faoliyatiga asosiy «direktiv» yo'nalishlar beradi.

Yaponiya iqtisodiy rivojlanish rejasi uch komponentedan tuzilgan. Birinchi qism: iqtisodiy siyosatni umumiy iqtisodiy maqsad va shartlar umumiy tartibda ifodalab beradi. Shundan so'ng hokimiyat iqtisodiy siyosatini batafsil ifodalab beruvchi dasturdagi bajariluvchi ko'rsatkichlarni ifodalovchi miqdoriy prognoz ma'lumotlari keltiriladi. Xar bir iqtisodiy dasturning birinchi qismi uzoq muddatli siyosatning maqsadini izohlaydi.

Yaponiya hukumatining ikkinchi jahon urishidan so'ng olib borgan iqtisodiy rejasi muayyan maqsadga asoslanib, besh kategoriyadan tashkil topgan: (11-jadval)

11-jadval

**Yaponiyani iqtisodiy rejalashtirishdagi tanlangan xususiyatlari**

Rejaning nomi	Reja davri	M a q s a d	O'sish istiqboli
1	2	3	4 foizda
Iqtisodiy mustaqillikning besh yillik rejasi	1956-60	Iqtisodiy mustaqillik To'liq bandlik	4,3 (8,8)
Iqtisodiy o'sishdagi yangi kelajak uchun reja	1958-62	Eng yuqori darajadagi o'sish sur'ati. Millatlar hayotiylik darajasining	6,5 (9,7)

		o'sishi. To'la bandlik	
Milliy daromadni ikkilantirish rejasi	1961-70	YUqorida keltirilgandek To'la bandlik	6,5 (9,7)
O'rta muddatga mo'ljallangan iqtisodiy o'sish rejasi	1964-68	Balans taqchilligini bartaraf etish. To'la bandlik	8,1 (10,1)
Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi	1967-71	Balanslashgan va barqarorlashgan iqtisodiy o'sish. To'la bandlik	8,2 (9,8)
Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi rejasi	1970-75	Balanslashtirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash. To'la bandlik	10,6 (5,1)
Asosiy iqtisodiy va ijtimoiy reja	1973-77	Milliy farovonlikning shakillanishi, halqaro o'rtoqlashuvning shakillanishi. To'la bandlik	9,4 (3,5)
1970 yilning ikkinchi yarimidagi iqtisodiy o'sish rejasi	1976-80	Millatning boy hayoti ta'minlanishini va iqtisodiyotni qa'tiy rivojlantirish. To'la bandlik	6,0 (4,5)
YAngi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning etti yillik rejasi	1979-85	Iqtisodiy rivojlanishning qa'tiy yo'liga o'tish, millat hayotini sifat jihatidan boyitish, halqaro iqtisodiy munosabatlarni	5,7 (3,9)



		rivojlantirishdagi qo'yilma. To'la bandlik	
1980 yillardagi iqtisod va jamiyatning istiqboli va normalari	1983-90	Tinch va qa'tiy xalqaro munosabatlarni shakillantirish, iqtisodiyotda hamda jamiyatda hayotiylikni yaratish, millatning boy va xavfsiz hayotini ta'minlash. To'la bandlik	4,0  (4,5)
Yiriklashtirish jarayonida (global) iqtisodiyotni boshqarish	1988-92	Balansdagi yirik tashqi taqchilliklarni kamaytirish, ko'p qamrovli hayotiy darajani hamda sifatli hayot darajasini yaratish. To'la bandlik	3 ¾ %  (4,0)
Besh yillik iqtisodiy reja: qit'alararo rivojlangan hayotiy darajani ta'minlash	1992-96	Hayotning sifat darajalarini yaxshilash bo'yicha islohot, jahon hamjamiyatini tuzish. To'la bandlik	3 ½ %  (1,0)
Tuzilishdagi islohotlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy reja	1996- 2005	Erkin va ta'sirchan ijtimoiy soha iqtisodiyotini yaratish, gullab - yashnayotgan ijtimoiy	3,0  (1,3)

		iqtisodiyotni yaratish. To'la bandlik	
Iqtisodiy qayta tug'ilish uchun xos bo'lgan ideal ijtimoiy va siyosiy iqtisodiyot	2006-2010	Turli bilim sohasini yaratuvchi jamiyatni shakllantirish, Atrof-muhitni to'la qamrab olish asosidagi aholi tabaqalarini tayyorlash	2,0

## 16.2. Yaponiya iqtisodiyoti rejasining egiluvchanligi

Bozor iqtisodiyotida uzoq muddatli iqtisodiy o'sish ma'lum qonuniyat asosida olib boriladi. Bir tomondan, olib borilayotgan harakatlar asosida maqsad amalga oshiriladi. Lekin bir-birini taqozo etadigan jahon iqtisodiyoti, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas, deydi. Ijtimoiy va iqtisodiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlar tufayli siyosiy maqsadlarni qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Yaponiyaning iqtisodiy o'sish dasturi 5-10 yillik muddatni uz ichiga oladi. Bu dasturni o'rtacha amal qilish davri 6,6 yilni tashkil etadi. Lekin, hech bir dastur o'z vaqtida yakunlangan emas. 11-jadvalda ko'rsatilganidek, Yaponiya hukumati 36 yildan ortiqroq muddatni qamrab oluvchi 11 xil iqtisodiy dasturni qabul qildi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, iqtisodiy rejada ko'rsatilganidek, iqtisodiy dasturni amalga oshirish uchun hokimiyat etarli qa'tiylik bilan ish olib bormadi. Bizning fikrimizcha, Yaponiya iqtisodiy rejasida tez-tez yuz berayotgan o'zgarishlar bu reja har tomonlama moslashuvchan ekanligidan dalolat beradi. Yaponiya hukumatining 11 xil iqtisodiy dasturi amalga oshirilishi majburiy dasturlar bo'lib, rejalar bajarilishi kerak bo'lgan maqsadlarga erishish hamda erishilgan natijalar oralig'ida erishilmagan maqsadlar tufayli vujudga kelgan bo'shliqlarni to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Iqtisodiy dasturni loyihalash bo'yicha o'sish sur'atlari adaptasiya shaklidagi kutish rejaları bilan mos keladi. Boshqacha

aytadigan bo'linsa, kuzatishlardagi mahalliy kutish xususiy holda oldingi kutish bilan haqiqiy natijalar o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi. Masalan, agar biz erishilgan natijaviy ko'rsatkichlar bilan istiqboldagi o'sish sur'ati rakamlarini taqqoslaydigan bo'lsak, istiqboldagi o'sish sur'atlari istiqbolning rejalashtirilayotgan o'sish ko'rsatkichlari bilan haqiqiy natijaviy ko'rsatkichlar oralig'ida joylashgani ma'lum bo'ladi.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, haqiqatdagi natijaviy ko'rsatkichlar istiqbol ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lsa, unda keyingi istiqboldagi o'sish sur'ati o'zidan oldingi yil istiqboldagi o'sish sur'atidan yuqori, lekin keyigi yil haqiqiy ko'rsatkichidan past bo'ladi. 1980 yilda ikki loyiha qabul qilingan bo'lib, bu muayyan o'sish ko'rsatkichlariga ega, ular yuqorida keltirilgan gipotezalar bilan mos bo'lmay, haqiqiy ko'rsatkichlardan past ekanligini qurishimiz mumkin. Bu o'zgarishlarni tahlil etishda bir qancha sabablarni ko'rsatamiz:

birinchidan, umumiy qiziqishlar ijtimoiy masalalarni hal qilishdagi iqtisodiy o'sish asosiga qurilgan;

ikkinchidan, davlat xarajatlariga bo'lgan talabni ilhomlantiruvchi optimistik ruhdagi o'sish istiqboli rejasini iqtisodiyotga tatbiq etishni hokimiyat tomonidan rad etish masalasini hal qilish;

uchinchidan, iqtisodiyotdagi o'sish sur'ati tashqi silkinish natijasida sodir bo'ladi, masalan, iena kursining o'sishi hamda ikki neft krizisining amalga oshishi sababli.

Iqtisodiy rejalashdagi ikki yo'nalish – bu, avvalo tashqi siyosatni shakllantirishdan, ikkinchidan, har bir reja hokimiyat tomonidan bajariladigan xarajatlar dasturidan tashkil topgan edi. Shunday ekan, reja-ma'muriyatning uzoq muddatli maqsadini shakllantiradi.

Uchinchi yo'nalish rejalashtirish jarayoniga tegishli.

Iqtisodiy rejalashtirishda foydalilikni aniqlaydigan ikki uslub mavjud. Bu uslublarning birinchisi, iqtisodiy o'sishni rejalashtirish natijalaridan foydalanishga qanday baho bera oladi hamda iqtisodiy natijalarga diqqatni qaratishdan iborat. Bu holatlarning boshqa yo'nalishi: iqtisodiy dasturlarni yaratish jarayoniga uzliksiz baho berishdir.

Yaponiyaning iqtisodiy rejalashtirish loyihasi iqtisodiy dasturni ishlab chiqish va shakllantirishda ma'lum ma'noga ega. Rejalashtirish jarayoni yordamida, barcha iqtisodiy sektorlar, davlat, xususiy sektorlar

halq xo'jaligi sohasini tashkil etib, bu boradagi axborotlardan foydalanish huquqiga ega.

1960 yilda qabul qilingan Milliy daromadni shakllantirish rejasida demografiya istiqboli, YAMM ishlab chiqarish kompanetlari va talab, sanoatdagi bandlik, uning tuzilishi, jamg'arma va investisiyalar o'rtasidagi balans, byudjet daromadi va xarajatlari, mehnat unumdorligi va to'lov balansi qismlari mujassamlangan.

Iqtisodni rejalashtirishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish faoliyati uchun asos yaratib, yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat. Iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan talab va taklifni miqdoriy jihatdan tahlil etib, quyilgan maqsadga erishish uchun kerakli faoliyat yo'nalishlari yaratiladi.

1970 yillardan boshlab iqtisodiy o'sish rejasidagi loyihalar miqdor jihatdan kamayib bordi. «YAngi iqtisodiy va sosial rivojlanishning 7-yillik rejasi» (1979) bir qancha loyihalardan, chunonchi, YAMM dagi talab va daromad, davlat moliyasi ko'rsatkichlaridan iborat edi. 1983 yilda qabul qilingan «1980 yillardagi jamiyat va iqtisod normativlari va istiqboli» nomli rejada ba'zi ko'rsatkichlar, ya'ni YAMM ning o'sishi, ishsizlik, inflyasiya darajasi ko'rsatkichlari o'rin olgandi.

Kichik loyihalarni tuzishda rivojlanishning bir qancha kichik sabablari mavjud:

birinchidan, rejalashtirish maqsadi iqtisodiy o'sishdan kelib chiqib, ijtimoiy masalalarni tahlil etayapti.

ikkinchidan, iqtisodiy iqlim tufayli iqtisodiy istiqbolni ko'rsatish birmuncha kiyinlashdi, halqaro munosabatdagi o'lchov birliklari bo'limi, neft' bahosi, valyuta kursi ko'rsatkichlari tebranib turibdi.

uchinchidan, hokimiyat iqtisodiy istiqbolni ifodalovsi alohida ko'rsatkichlarni ko'rsata olmaydi, bu ko'rsatkichlar Dastur bilan bir xil ko'rinishda tuzilgan edi.

1980 yilgi (1983) «Iqtisodiyot va jamiyat normativlari va istiqboli rejasi» da oldingi davr talabiga asoslanib, iqtisodiy o'sishni amalga oshirish, tashqi balans kamomadini korriktirovka qilish, moliyaviy kamomadni bartaraf etish maqsadida davlat obligasiyalarini chiqarishdan halos bo'lishni hokimiyat o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi. Shu bilan birga hokimiyat o'z maqsadiga erishishda barcha harakat va loyihalarning albatta, bajarilishiga ko'zi etmasdi.

Iqtisodiy holatlarni aniqlash, ba'zi iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hokimiyat va savdo o'zro hamkorlikda ish olib bordi. CHunonchi, iqtisodiy o'sishning rejasi institusional tuzilishga ega bo'lib, o'zaro hamkorlikni maqsadga muvofiq biladi. Lekin tadqiqot olib borayotgan iqtisodchining fikriga ko'ra, iqtisodiyotni rejalashtirish mo'ljallangan maqsadga karaganda kam ta'sirli edi.

Taajjublanarlisi shundaki, iqtisodiyot iqtisodiy loyihalarda ko'rsatilganidek ishlamayotgandi. Talab va taklif esa, bozordagi iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchilarning munosabatiga qarab o'rnatilayotgandi. Hisobga olinmagan iqtisodiy o'zgarishlar iqtisodiyotga o'z ta'sirini o'tkazmayotgandi. Shu holatlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, iqtisodiy rejalashtirishda ko'rsatilgan iqtisodiy loyihalar haqiqatdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan muvofiq kelmayotgandi.

Iqtisodiy dasturlarda ko'rsatilgan maroiqtisodiy loyihalar xususiy sektor uchun normativ vazifasini o'tab, bunda hokimiyat dasturda ko'rsatilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga javobgar hisoblanadi. Lekin, ular har doim ham amalga oshavermasdi. Bu esa Yaponiya iqtisodiy loyihasini «dekorasiya» sifatida ko'rsatiladi, degan fikrni quvvatlaydi.

Rejalashtirilgan iqtisodiy siyosat amalga oshirilishini qiyinlashtirayotgan bir qancha sabablar mavjud:

Birinchidan, iqtisodiy loyihani amalga oshirish uchun markazdan turib boshqarishning yo'qligi. Loyihani yaratishda Iqtisodiyotni rejalashtirish agentligi markaziy o'rinni egallasa ham uni bajarish har bir javobgar vazirlik yoki agentlik zimmasiga yuklatilgan. Iqtisodiyotni rejalashtirish agentligi vazirliklarning iqtisodiy o'sish dasturida ko'rsatilganidek iqtisodiy siyosat olib borish uchun majbur qila olmaydi.

Ikkinchidan, byudjet tizimi «Uzoq muddatli iqtisodiyotni rejalashtirish» da ko'rsatilgan loyihalarga bo'ysunmaydi. Shu bilan birga, har yili byudjet Parlament tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjetda cheklanishlar mavjudligi tufayli uzoq muddatli davlat kapital qo'yilmalarini rejalashtirish iqtisodiy loyihasining hayotga tatbiq etilishi kafolatlanmagan. Shunday bo'lsa ham xarajatlar bo'yicha hokimiyat majburiyatlari yilda bir marta hisobga olib turiladi.

### **16.3. AQSH hukumatining iqtisodiyotdagi o'rni**

Dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. AQSH iqtisodi aynan shunday xususiyatlar tufayli cho'qqiga chiqqanligi sir emas. CHunonchi:

- fuqaro o'z iqtisodiy mayillarini bevosita bozorda va bilvosita ovoz berish orqali ifodalashi erkin bo'lganligi tufayli, iqtisod muntazam ravishda o'zgarib turadi;
- amerikaliklar har doim «Vaqt - pul» degan shior bilan o'z foydasini ko'zlab ish tutadilar, qisqasi, ular pulni, foydani juda sevadilar.
- har bir yangi fikr, ixtiro yoki falsafa sinovdan o'tkazilib, uning kanchalik ahamiyatga egaligi tekshirib ko'riladi;
- Amerika xalqning omilkorligi ularning xatti-harakatlarida aniq-ravshan nomoyondir, ya'ni, erkin ishbilarmonlik tashabbusi asoslariga mustahkam tayangan iqtisodni ta'sis etib, uni qo'llab - quvvatlaydilar;
- ayni paytda, amerikaliklar shaxsiy qulay imkoniyatlar, iqtisodiy ravnaq va taraqqiyot uchun madadkor muhitni yaratish borasida hukumatning muhim o'rnini tan oladilar;

AQSH iqtisodining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganda shuni ham ta'kidlash kerakki, u o'zining tabiiy boyliklari: mineral qazilmalari, serunum ziroatli erlari va mo''tadil iqlimi, iqtisodni sobitlashtirishda eng zarur ko'makchi - ishi kuchi, texnologiya, ishbilarmonlik va iste'dodli boshqaruvchilariga ega.

Federal tizim	
Milliy hukumat	<p>1) <b>Ijro etuvchi hokimiyat</b> – AQSH prezidenti va uning ofisini simvallashtirib, qonun amaliyotini ta'minlaydi.</p> <p>2) <b>Qonun chiqaruvchi hokimiyat</b> – AQSH Kongreesini simvallashtirib, qonun yaratadi.</p> <p>3) <b>Sud hokimiyati</b> – AQSH oliy sudini simvallashtirib, ushbu qonunlarni tahlil qilib, ular Konstitutsiyaga zid emasligini tekshiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>AQSH Konstitusiyasi</b> – Milliy hokimiyat tizimining asosini tashkil qilib, AQSH odamlarning haq-huquqini va erkini himoyalaydi</li> </ul>

Shtat va mahalliy hukumat	Shahar, shaharcha, tuman va qishloqlardan tashkil topgan 50 ta shtat va va Kolumbiya tumani hokimiyatlari (50 state governments and the government of the District of Columbia)
---------------------------	---

Deyarli barcha amerikaliklar tan olgan hukumatning iqtisodiyotdagi o'rnini haqida to'xtalib o'tamiz. Chunki yuqorida ko'rib o'tilgan barcha xususiyatlarni amalda qo'llash avvalo bosh hukumatga bog'liq va uning tuzilishi quyidagicha:

Amerika Qo'shma Shtatlari o'zining iqtisodidagi o'rnini to'rt omilda nomoyon etadi:

**1)Bevosita xizmat turlari** – hukumatning har bir qismi bevosita xizmat turlarini amalga oshiradi. Misol uchun, pochta xizmati xuddi ulkan yuqori tashkilot kabi, butun davlatga xizmat qiluvchi federal tizmadir. Bundan farqli o'laroq, aksariyat yo'llarni o'tkazish va ularni yaxshi ahvolda saqlash har bir shtat hukumatining zimmasiga tushadi. Davlat ta'lim-tarbiya tizmlariga mablag' asosan shtat, tuman yoki shahar hokimiyatlari tomonidan ajratiladi. Umuman olganda, polisiya va o't o'chirish xizmati ta'minoti mahalliy hokimiyat zimmasiga yuklangan.

**2)Tartibot o'rnatish va nazorat** – Amerika iqtisodini aksariyat shaxsiy ishbilarmonlar yuritir ekan, ularning biznes sohasida adolatli ish yuritishlarini nazorat qilish va xalqning ezgu manfaatlarini yo'lida xizmat qilayotganliklariga qanoat hosil etish uchun hukumat turli yo'llar orqali shaxsiy ishbilarmonlikni tartibga solib, uni nazorat etadi. Tartibot o'rnatish, odatda, elektr quvvati yoki mahalliy telefon xizmatlari borasida xususiy ishbilarmonlikka yakkahukmronlik ato etilgan sohalarida lozim deb, hisoblanadi. Temir yo'llar kabi raqobat chegaralangan sohalar ham shular qatoriga kiradi. Davlat siyosati bunday kompaniyalarga me'yoridan oshmaydigan foyda olishga ruxsat beradi.

**3)Muvozanatlashuv va ravnaq** – hukumat tarmoqlari, shu jumladan, AQSH Kongressi va Federal Rezerv (mablag') Tizimi kabi qurilmalar, betartib shovqin - suron asoratini nazorat etish va inflyasiya bilan iqtisodiy tushkunlikni soliq solish mezonalarini tartiblashtirish, pul zarb etish va qarz berish yordamida bartaraf etishga urinadi. Shuningdek, hukumatning o'zi sarf etuvchi davlat mablag'ini o'zgartirish orqali ham ular iqtisodga ta'sir etishlari

mumkin. Odatda, bunday faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsad – federal byudjetni muvozanatga keltirishdir.

**4)Bevosita yordam** - iqtisod sohasida hukumatning o'zni yana biznes vakillari va ayrim shaslarga yordam ko'rsatish bilan ham belgilanadi. Misol uchun, importga soliq tariflari ayrim mahsulot turlariga nisbatan olganda, xorijiy raqobatdan xoli turishni ta'minlaydi; import mahsulotlar ba'zan qiymati jihatidan shu qadar yuqori soliqlarga tortiladi yoki ularning hajmi chegaralanadiki, natijada Amerika mahsulotlari xorijiy raqiblari bilan yaxshiroq raqobat kuchiga erishadi. Jumladan, Mitsubishi, Toyota, Honda va boshqa shu kabi ulkan Yaponiya mashina ishlab chiqarish firmalari AQSH bozorlariga o'z mahsulotlarini olib kirish uchun boshqa firmalarga nisbatan katta tarif (bozorga tovarni olib kirish boji) to'lashadi. Bu esa, AQSH hukumatining mahalliy mashina ishlab chiqaruvchi korxonalariga qilgan iqtisodiy yordami hisoblanadi, chunki ular Yaponiya kompaniyalariga o'xshab bozorda katta xarajat qilmasdan tovarini bemalol, xohlagancha namoyish eta oladilar. Etishtirilgan xosil evaziga beriladigan tannarxga qo'shimcha mablag' ajratish orqali, hukumat fermerlarga ham yordam beradi. Past daromadli oilalarga mablag' ajratish, karyalar va mohojirlarga tibbiy yordam ko'rsatish, ishsizlar va nafaqaxo'rlarga ijtimoiy sug'urta dasturlari va o'zga turli vositalar yordamida madad berish orqali munosib hayot darajasini o'zlari ta'minlay olmaydigan shaxslarni hukumat qo'llab-quvvatlaydi. Hukumat shuningdek, kambag'allarga nafaqa berib, nogironlarga ham yordam ko'rsatadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Chet ellik kuzatuvchilarning tahliliga qaraganda, erkin bozori mavjud bo'lgan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni rejalashtirishda uzoq muddatli rejalashtirish tahlilini hukumat ham qo'llab-quvvatlaydi.

Iqtisodiyotni rejalashtirishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish faoliyati uchun asos yaratib, yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat.

Yaponiyada hokimiyat organlari bilan xususiy sektor o'rtasida qalin munosabat o'rnatilgan bo'lib, bu munosabat mamlakat yagona maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.



Iqtisodiy dasturlarda ko'rsatilgan makroiqtisodiy loyihalar xususiy sektor uchun normativ vazifasini o'tab, bunda hokimiyat dasturda ko'rsatilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga javobgar hisoblanadi.

Amerikaliklar shaxsiy qulay imkoniyatlar, iqtisodiy ravnaq va taraqqiyot uchun madadkor muhitni yaratish borasida hukumatning muhim rolini tan oladilar.

Amerika halqining omilkorligi ularning hatti-harakatlarida aniq namoyondir, ya'ni erkin ishbilarmonlik tashabbusi asosiga mustaxkam tayangan iqtisodiyotni ta'sis etib, uni qo'llab-quvvatlaydilar.

### **Tayanch iboralar.**

Yaponcha rejalashtirish, iqtisodiy dasturlarning maqsadlari, Yaponiyaning iqtisodiy o'sish dasturi, iqtisodiy rejalashtirishda foydalilikni aniqlaydigan uslublar, iqtisodiy rejalashtirishdagi yo'nalishlar, AQSH iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, AQSH federal tizimi, Yaponiya iqtisodiy rivojlanish rejasining komponentlari, milliy daromadni shakllantirish rejasi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. ITT ning iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni qanday?
2. Ilmiy-texnik dasturlarning shakllanishi qanday bosqichlardan iborat?
3. Ilmiy-texnik dasturlar shakllanishi qanday talablarga javob berishi kerak?
4. Yaponiya iqtisodiy rivojlanishi (o'sishi)ni rejalashtirish nimalarni ko'zda tutadi?
5. Yaponiyanin ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy o'sishini rivojlantirishga rejalashtirish qanday ta'sir etadi?
6. Yaponiya iqtisodiy o'sishini rejalashtirish tajribasi iqtisodiyotni markazdan rejalashtirish bilan ma'lum munosabatga egami?
7. Yaponiya iqtisodiyotini qayta qurish davrida iqtisodiy o'sishni rejalashtirish nimalardan iborat?
8. Normallashtirish jarayoni-chi?
9. 1955 yildan keyingi iqtisodiy rivojlanish rejasining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Dasturda aks ettirilgan iqtisodiy loyihalar haqida so'zlab bering.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. I.A.Karimov «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashish darkor» T.: «O'zbekiston», 2002.
3. I.A.Karimov «Vatanimiz uchun har birimiz mas'uldirmiz» T.: «O'zbekiston», 2001.
4. I.A.Karimov «Tadbirkorlik – yuksalish garovi» T.: «O'zbekiston», 2000.
5. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'llarini izlab borish asosiy vazifa» Xalq so'zi 2004y. 10 fevral.
6. I.A.Karimov Izbranno'y nami put'-eto put' demokraticeskogo razvitiya i sotrudnichestvo s progressivno'm mirom. T. Uzbekistan. 2003.
7. Kravchenko R.S. Koriorativnoe upravlenie: obespechenie i i zahita prava aksiineroov na informasiyu – M.: Spark, 2002.
8. Gurkov I.B. Strategicheskiy menedjment organizasii. Ucheb.prosob. 2-e izd., ispr i dopoli, M.: TEIS, 2004.
9. Ishmuhamedov A.E., SHibarshova L.I. Ekonomicheskaya integrasiya v mirovoe xozyaystvo. Tekst leksiy. Toshkent 2000g. TGEU Fakul'tet «Ekonomika i statistika»
10. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)

## **17-BOB: STRATEGIK REJALASHTIRISH VA HUDUDIY IQTISODIY MUAMMOLARI.**

### **17.1. Hududiy strategiyaning roli.**

Hududiy strategiya makro va mikro strategiya oralig'idagi strategiya hisoblanadi. Uning roli har qanday ishlab chiqarish va innovasiya jarayoni o'z hududiy joylashuviga egaligi bilan tavsiflanadi. Davlat darajasidagi makrostrategiya markazlashgan resurslarning aniq hududdagi korxonalar va tashkilotlarga joylashtirishni amalga oshiradi. Bu korxonalar va tashkilotlarda mahalliy xomashyolar, ishlab chiqarish va mehnat resurslari hamda infratuzilmalardan foydalaniladi. Agar ko'rsatilgan elementlardan birortasi etarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, bunda mazkur hududda makroinnovasiya strategiyasini amalga oshirish chegaralanib qoladi. Makro darajadagi hududiy muammolarni hisobga olishning zaruriy qirralaridan biri har qanday davlatning alohida hududlarini rivojlantirishga ahamiyat berishdir. Aks holda, alohida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy chegaralash hududiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Sobiq SSSR, Yugoslaviya, Hindiston, Braziliya, Kanada va boshqalardagi holat buning misolidir.

Agar mezodarajalar va mikrodarajalar innovasiyaga nisbatan ko'rib chiqilsa, unda hududiy rivojlanish, bu holatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o'zining shaxsiy manfaatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib, hududiy strategiyaning qo'llanish va amalga oshirish zarurligi jihatidan muvofiqlashtiruvchi to'rt asosiy omilni ajratish mumkin:

- makroinnovasiya hududiy strategiyalarining nuqtai nazarlari;
- hududiy rivojlantirishning davlat siyosati;
- hududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqsadlari;
- korxonalarining mikro-innovasiya strategiyasi.

**Hududiy innovasiya strategiyasining tashkiliy ta'minotdan foydalanishi.**

Hududiy inovasiya strategiyasi makro va mikro darajada shakllanganligi munosabati bilan tashkiliy tuzilmalar tomonidan bu strategiyalarni shakllantirish jarayonining boshqarilishi ham shu darajalarda bo'lishi lozim.

Hozirgi makrodarajada mavjud bo'lgan tashkiliy shakllantirish ilmiy-texnika taraqqiyotining boshqarilishida biroz bo'lsada shu modellashtirishning hududiy jihatlari bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlarda hududiy innovasiya jarayonlarini boshqaruv bo'yicha maxsus davlat organlari tuzilgan. Masalan, Kanada ilmiy-texnika federal va provinsial qo'mitasi.

5-jadval

### Hududiy innovasion strategiya

Hududiy strategiyaning nomlanishi	Strategiya tartibi
Mezo hududiy strategiya	
O'z-o'zini ta'minlash	Boshqa hududlardan tovar keltirish bog'liqligini kamaytirish
Mobilizasion	O'zining intellektual ishlab chiqarishi va xomashyo resurslarini ishga solish hisobiga rivojlanishni ta'minlash
Tashqi resurslarni jalb qilish	Rivojlanishni intellektual hamda boshqa tur resurslar yordamida va boshqa hududlardagi resurslar hisobiga ta'minlashga intilish
Mavjud imkoniyatlardan foydalanish	Rivojlanishni o'z hududidagi mavjud holat va resurslardan foydalanish hisobiga ta'minlash
Hududning rivojlanish davlat makrostrategiyasi	
Tanlangan ustuvor rivojlanish	Ayrim ustuvor hududlarda azaldan yuksak rivojlanish darajasiga ega bo'lgan davlat resurslarining konsentrasiyalanganligi
Bir me'yordagi rivojlanish	Hudud darajalarini zaruriy resurslarni yo'naltirish hisobiga tenglashtirish
Resurslarni mutanosib taqsimlash	Resurslarning alohida hududlar orasida mutanosib ishlangan parametrlar bo'yicha taqsimlash
Makroinnovasion strategiyaning hududiy jihatlari	
Konsentratsiya	Makroinnovasiya strategiyasini yuqori rivojlangan hududlarning chegaralangan doiradagi potensialidan foydalanilgan holda amalga oshirishga intilish
Lokalizasiya	Makroinnovasiya strategiyasi imkoni bo'yicha hududlarning potensialini jalb qilish va rivojlanish hisobiga amalga oshirish



### 17.3. Hududiy strategiyaning iqtisodiy motivasiya ta'minoti.

Motivasiya va stimullar tizimi ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: federal va hududiy.

Federal ko'rinish quyidagi elementlarga ega:

-tashqi hududlarga sarmoya uchun mavjud bo'lgan soliq imtiyozlari;

-aniqlangan hududlarga investisiya subsidiyalari;

-yangi ish joylari tashkil etish uchun mukofotlar;

-ijtmoy ta'minot va kadrlar tayyorlash uchun subsidiyalari;

-ko'chmas mulk va er uchastkalarini bozor narxlarida sotib olish uchun subsidiya va kreditlar;

-iqtisodiy o'sish dasturiga kirgan hududlarga davlat moliyaviy (to'g'ri)yordami;

-periferiyada joylashgan ilmiy tashkilotlar uchun soliq imtiyozlari;

-hududlarda filiallarini tashkil etayotgan oliy o'quv yurtlari uchun mukofot, subsidiya va imtiyozli kreditlar;

-mintaqaviy

-investisiya resurslarini harakatga keltirishdagi hududiy rayonlar.

-yangi tashkil etilayotgan ilmiy-ishlab chiqarish uchun soliq imtiyozlari.

-yangi korxonalarini hisobga olishdagi imtiyozlar.

12-jadval

#### Hududiy ilmiy – texnik kompleks yangi kiritishlarning klassifikatsiyasi

Klasifikatsiya alomatlari	Komplekslar turi va ularning vazifa hamda masalalari
Funksional alomat	Hududning moddiy, umumta'limiy, intellektual darajalar va ilmiy-texnik potensial hajmini ko'paytirish-yuksak texnologiyalar «nou-xou», ilmiy talab etiladigan ishlab chiqarish imkoniyatlarini yuksaklashtirish
Mulkchilik shakli	Davlat, munisipal, shaxsiy, aralash va b.

Tashkiliy - huquqiy shakli	Konsorsium, Konzern, assosiasiyalar (ish olib borish uchun resurslari qo'shilishi aksiya asosida)
Iqtisodiy maqom	Tijorat, notijorat
Ixtisoslashtirilishi	Ilmiy texnologiya va konstruktorlik

Bunday o'zaro nisbatlarni tahlil qilish orqali hududiy ilmiy-texnik komplekslar tashkiliy va funksional tavsifining eng muqobil kombinatsiyasi tanlab olinishi mumkin.

13-jadval

### **Tashkiliy va funksional tavsif kombinatsiyasi**

	Ishlab chiqarish, ilmiy-texnologiya, ilmiy-konstruktorlik, ilmiy-ishlab chiqarish, texnologik ishlab chiqarish
Hududning ierarxiya darajasi	Respublika, viloyat, tuman, shahar
Hududning ilmiy – texnikaviy rivojlanish darajasi	Yuksak rivojlanish, o'rta rivojlanish, kuchsiz rivojlanish.

### **Hududning ilmiy-texnik rivojlanish indikatori**

Hududlarning mavqe darajasi ularning qo'llab - quvvatlanishiga bog'liq. Bu qo'llab-quvvatlash hududlarda ilmiy-texnik tashkilotlar tashkil etish uchun qaror qabul qilish, shuningdek, turli hududlararo va hududlar ichida hudud ilmiy-texnik rivojlanishining xususiy ko'rsatkichlari tizimini solishtirish orqali yuz beradi.

Bu tizimga:

- hudud ilmiy-texnik sohasining mehnat potentsiali;
- hududning ilmiy-texnik va ishlab chiqarishi texnik jihozlanishi;
- hududning bilim talab qiladigan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik darajasi, ishlab chiqarish, texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar sifati, uning eksport imkoniyati;

**Hududiy ilmiy-texnikaviy rivojlanish pog'analari**

Hududiy ilmiy-texnikaviy rivojlanish darajasi	Ilmiy-texnikaviy komplekslari funksiyasi
Yuqori	Ekologik toza ishlab chiqarishni yaratish, hududiy ekologik vaziyatni yaxshilash. Amal qilayotgan ishlab chiqarishning texnologik apparatlarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, odam ishtirok etmaydigan texnologiyalarni yaratish, hududiy yuqori sifatli mahsulotlarni jahon bozoriga etkazib beruvchi hududga aylantirish, ilmiy yangiliklar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish
O'rta	Hududda ilm va ta'lim sohalari rivojlanishi, etakchi texnologiyalardan foydalanishni o'zlashtirish. Hududlardagi yuqori saviyadagi ishlab chiqarishni joriy qilish, texnologik turdagi buyum ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Hududiy xususiyatlardan foydalanish
Quyi	Hududdagi tabiiy xususiyatlardan foydalanish, malakali kadrlarning oqib kelishiga turtki bo'ladigan ishlab chiqarishni yaratish. Boshqa hududdagi yirik korxonalarining faoliyati bilan ishlab chiqarish – texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini tashkil etish. Malaka va ma'lumot oshirish, o'qitish faoliyatini rivojlantirish. Lisenziya va patent sotib olish asosida ishlab chiqarishni tashkil etish

- hududiy ilmiy-texnik potensial tuzilishi.



Hududning ilmiy-texnik sohasi potentsiali ko'rsatkichlarini quyidagilar aniqlaydi:

- takror ishlab chiqarish imkoniyatlari;
- ilmiy-tadqiqot bo'yicha kadrlar potentsiali;
- aholisining umumiy boshqaruvchilik darjasi;
- aholisining umumiy ma'lumot darajasi.

Hududda mehnat takror ishlab chiqarish imkoniyatlari koeffisientini quyidagicha aniqlash mumkin:  $K_{mi} = Ts_t / I_{chm}$ . Bu yerda:  $Ts_t$  ishlab chiqarishda band bo'lgan talabalar soni.  $I_{chm}$  hududida moddiy va nomoddiy sohalarida band bo'lganlar.

Koeffisient kattaligi malakali ilmiy kadrlar zahirasi mavjudligini ko'rsatadi. Agar  $K_{mi}$  ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, hududiy markazda oliy o'quv yurtlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy pedagogik kadrlarning rivojlanish koeffisienti professor o'qituvchilar sonini band bo'lgan aholi soniga bo'lish orqali:  $K_{RIPT} = I_{RIPT} / I_{CH}$  topiladi.  $K_{RIPT}$  kattaligi hududdagi ilmiy-texnik darajasi potentsialining asosiy indikatorini hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqot mehnat potentsiali darajasi quyidagicha topiladi:  $K_{MP} = I_{ITP} / I_{CH}$ . Bu erda  $I_{ITP}$  – ilmiy-tadqiqot institutida band bo'lganlar soni. Bu koeffisient tarmoq va akademiya, ilmiy izlanish va konstruktorlik tashkilotlari bo'yicha markazlar tashkil etish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Aholining umumiy ma'lumotlilik darajasi aniqlanishi:  $K_{UM} = I_{OM} / I_{CH}$ ;  $I_{OM}$  - oliy ma'lumotlilik soni;  $I_{CH}$  - band aholining soni.

Mazkur koeffisient hududning umumiy intellektual muhitini tavsiflaydi.

Kadrlarning ilmiy-texnik konsentrsiyasi darajasi quyidagicha aniqlanadi:  $K_{ITK} = I_{IS} / M_{XM}$ . Bu erda,  $I_{IS}$  - ilmiy sohada band bo'lgan aholi soni, shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlar.  $M_{XM}$  - hudud maydoni;  $K_{ITK}$  - hudud maydonining ilmiy-texnik mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Hududning ishlab chiqarish, texnik va ilmiy-texnik resurslar bilan jihozlanganligi mazkur ko'rsatkichlar guruhida quyidagicha aniqlanadi:

Ishlab chiqarish, texnik jihozlanganlik darajasi:  $K_{ICHT} = FS_A / F_{ICH}$ . Bu yerda,  $FS_A$  - korxonaning asosiy fondlari qiymati. Bu ishlab

chiqarish texnik jihozlanishi uchun mahsulotlar ishlab chiqarilishi;  $F_{ICH}$  - ishlab chiqarish ob'ektlariga asosiy fondlarning umumiy qiymati.

Mazkur koeffisient korxonaning ishlab chiqarish dastgohlarini yangilash, ulardan hududga yangiliklar kiritishni shakllantirishda foydalanish bo'yicha imkoniyatini tasvirlaydi.

Ilmiy-texnik jihozlanganlik darajasi:  $K_{IT}=F_{AFq}/F_{IN}$ . Bu erda:  $F_{AFq}$  - ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik birlashmalaridagi asosiy fondlar qiymati,  $F_{IN}$  - hudud ishlab chiqarish ob'ektlari qiymati.

Tajriba-sinov quvvatlari bilan ta'minlanganlik;  $K_{TS}=F_{ASE}/F_N$ . Bu erda:  $F_{ASE}$  - tajriba-sinov korxonalarining asosiy fondlari qiymati,  $F_N$  - ilmiy-tadqiqot institutlari konstruktorlik birlashmalari, OO'YU asosiy fondlari.

Murakkab ishlab chiqarish texnik mahsulotlarni ishlab chiqarishda mehnatning fond bilan qurollanganligi va ilmiy-tadqiqot konstruktorlik birlashmalarida mehnatning fond bilan qurollanganligi.

Bularning asosiy fondlar qiymati sanab o'tilgan sohalardan ishchilar soniga nisbati topiladi.

Fond bilan qurollanganlik koeffisienti - asosiy fondlarni hududdagi band aholi soniga nisbati orqali topiladi:  $F_q = F_{AS}/I_{CH}$ . Bu koeffisientlar markazlar ishini mehnat talab qilinadigan ilmiy turlarga yo'naltirilgan imkoniyatlarini baholashga imkon beradi.

Hududiy bilim talabi, sifatli mahsulotlarning ko'rsatkichlari quyidagilarni aniqlash imkoniyatlarini beradi:

Hududni samarali ishlab chiqarish - texnik yo'nalishi:  $K_{ICHT} = R_{MM}/I_{CH}$ .  $R_{MM}$  - ishlab chiqarish texnik maqsadlariga mo'ljallangan murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi;  $I_{CH}$  - band bo'lganlar soni.

Hududning ilmiy-texnik unumdorligi:  $K_{ITU}=R_{ITM}/I_{CH}$ ;

$R_{ITM}$  - ilmiy-texnik mahsulot hajm ko'rsatkichi.

Hududning ilmiy-texnik potensial tuzilishi ko'rsatkichlari:

Proporsionallik koeffisienti:  $K_{ITP}$  q  $R_{OO'YU}$ ;  $R_{AK}$ ;  $R_{TAR}$ ;  $R_{ZAV}$ .

Bu erda:  $R_{OO'YU}$  - oliy o'quv yurti mahsuloti;  $R_{AK}$  - akademik ilmiy mahsuloti

Bular hududning ilmiy sektoriga tegishli. Bu koeffisient hududning u yoki bu soha sektoriga yo'nalishni, ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Hududning ilmiy-texnik rivojlanish darajasi indikatorini tahlili.

YUqorida sanab o'tilgan tahlil turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Shundan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

-mazkur hudud ko'rsatkichlari darajasini yaxshi va o'rta hududlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish;

-mazkur hudud bir necha ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish;

-mazkur hududning rivojlanishining integral indikatorini hisoblash;

-xususiy indikator ahamiyatini hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:  $I_1 = K_1 / K_{e(t)}$

Bu erda:  $K_1$ - hududning ilmiy-texnik rivojlanish i-nchi ko'rsatkichi;  $K_{s(t)}$  ilmiy-texnik rivojlanish i-nchi ko'rsatkichlari.

Indikatorning ahamiyati quyidagi variantlarda bo'lishi mumkin:

$I_1 < 1$  mazkur hudud rivojlanish darajalarining o'rta hudud rivojlanish darajasidan past bo'lishi;

$I_1 = 1$  mazkur hududning rivojlanish darajasi o'rta (yaxshi) hududning rivojlanish darajasiga mos keladi;

$I_1 > 1$  mazkur hududning rivojlanish darajasi o'rta (yaxshi) hududning rivojlanish darajasidan yuqori bo'ladi.

Aniq indikatorlar ahamiyatligini tahlil qilish va ularni o'zaro solishtirish orqali hududiy ilmiy-texnik siyosatning yo'nalishi to'g'risida aniq xulosa chiqarsa bo'ladi.

15-jadval

### Indikator tahlili

	I1	I2	I3	In
I1	x	+,1	+,+	
I2	1,+	X	1,+	
I3	=,=	=,1	x	
-				
-				
-				
In				

+ - birdan katta indikatorning belgisi;

- birdan kichik indikatorning belgisi;

1 – birga teng indikatorning belgisi.

### Qisqacha xulosalar.

Hududiy-innovasion strategiya makro va mikroinnovasion strategiyalari oralig'idagi strategiya hisoblanadi.

Hududiy strategiyaning tarkibi hududiy rivojlanishda davlat siyosati, hududiy innovasion strategiya, mezo hududiy innovasion strategiya, davlat dasturlarini hududiy darajada amalga oshirish, soliq imtiyozlari, kredit imtiyozlari kabilar bilan uzviy bog'liq.

Hududlarning rivojlanish darajasi ularni qo'llab-quvvatlashga bog'liq bo'ladi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muqobil strategiyani izlash muhim shartlardan biridir.

Xududning ilmiy-taxnik rivojlanish darajasi ko'rsatkich tahlili turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shundan asosiylari quyidagilar xisoblanadi:

- mazkur xudud ko'rsatkichlari darajasini yaxshi va o'rta xududlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish;
- mazkur xudud bir necha ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish;
- mazkur xududning rivojlanishning integrasiya ko'rsatkichni hisoblash.

Aniq ko'rsatkichlar ahamiyatligini tahlil qilish va ularni o'zaro solishtirish orqali xududiy ilmiy-texnik siyosatning yo'nalishi to'g'risida aniq xulosa chiqarsa bo'ladi.

### **Tayanch iboralar.**

Xududiy strategiya, makro va mikro strategiya, hududiy muammolar, makroinnovasion va mikroinnovasion strategiya, xududiy innovasion strategiya, mezo xududiy innovasion strategi, xududiy strategiyaning tarkibiy tuzilish, iqtisodiy motivasion ta'minot, mtimulilar, motivasiya, tizim, xududiy ilmiy-texnik kompleks, xududiy ilmiy-texnik rivojlanish pog'onalari, tashkiliy va funksional tovsif, xududiy ilmiy-texnik rivojlantirish indikativlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Hududiy strategiyaning roli nimada?
2. Hududiy strategiyaning tarkibi va tuzilishini ayting?
3. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muqobil strategiya qanday qo'llanadi?
4. Hududning ilmiy texnik imkoniyati tizimi?
5. Hududiy ilmiy-texnik rivojlanishni baholash bo'yicha ko'rsatkichlar?

6. Hududning texnikaviy rivojlanishining baholash ko'rsatkichlar sistemasi?
7. Xududiy innovasion strategiya tartibini tushuntirish?
8. Davlatning xududiy innovasiya strategiyasi nimadan iborat?
9. Xududiy ilmiy-texnikaviy rivojlanish qanday pog'onalardan iborat?
10. Xududiy ilmiy-texnik kompleks klassifikatsiyasini tushuntiring?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston ovozi. 2005 y. 29 yanvar.
2. I.A.Karimov «Vatanimiz uchun har birimiz mas'uldirmiz» T.: «O'zbekiston», 2001.
3. I.A.Karimov «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashish darkor» T.: «O'zbekiston», 2002.
4. I.A.Karimov «Tadbirkorlik – yuksalish garovi» T.: «O'zbekiston», 2000.
5. I.A.Karimov Za bezopastnost' i mir nado borot'sya T.: Uzbekistan. 2002.
6. Ishmuhamedov A.E., Shibarshova L.I. TGEU, Ekonomicheskaya integratsiya v mirovoe xozyaystvo. Tekst leksiy. Toshkent 2000g. Fakul'tet «Ekonomika i statistika».
7. Buxalkov M.I. «Vnutrifirmennoe planirovanie» uchebnik 2-edianie Moskva INFRA-M 2001.
8. Yakubov I.O., Abdusattarova X.M., Ochilov K.T. Sitdikova L.A. Strategik rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zR Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2004.

### **Internet ma'lumotlari.**

1. Novosti Uzbekistana. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
2. «Jahon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org)
3. “Evropa tiklanish va taraqqiyot banki” ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)
4. «Xalqaro valyuta fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogato'm [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru)

6. Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Razrabotka strategii | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
7. Texnologii korporativnogo upravleniya **Strategicheskoe planirovanie** i upravlenie. Sistema sbalansirovanno'x pokazateley (B...  
Kb - <http://www.iteam.ru/conferences/739/>
8. Texnologii korporativnogo upravleniya | Strategicheskoe upravlenie | Missiya firmo' | Kb - <http://www.iteam.ru/publications/strategy/section>
9. **Strategicheskoe biznes planirovanie**, strategicheskij plan : MD-Marketing Kb - <http://md-marketing.ru/strategy/planning.html> [md-marketing.ru](http://md-marketing.ru)
10. Goroda i reformo' Kb - <http://lab.obninsk.ru/goroda/04-3.php> [lab.obninsk.ru](http://lab.obninsk.ru)
11. **Strategicheskoe planirovanie** Kb - <http://www.adic.org.ua/nosmoking/2003/04/9quest.ht>, [www.adic.org.ua](http://www.adic.org.ua)
12. Dis.Ru Forum - **strategicheskoe planirovanie** Kb - <http://www.dis.ru/cgi-bin/forum/forum.cgi?boardqma...> -[dis.ru](http://www.dis.ru)
13. **Strategicheskoe planirovanie**. Referato' po ekonomike, menendjmentu. Ekonomika, menendjment. Kb - <http://referatu.narod.ru/3/referat2578.html> -[referatu.narod.ru](http://referatu.narod.ru)
14. 6.1. **Strategicheskoe planirovanie** (suhnost' i zadachi)  
Kb - <http://www3.asu.ru/book/kokorev/chap6.1.ru.html> [www3.asu.ru](http://www3.asu.ru)

## **18-BOB: IQTISODIY ISLOHOTLAR STRATEGIYASI VA UNI SHAKLLARNTIRISH MEHANIZMI.**

### **18.1. Iqtisodiy isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlar.**

Ma'lumki, biz islohotlar strategiyasi va uni shakllantirishga qaratilgan o'z modelimizni ishlab chiqarishga va amalga oshirishga muvaffaq bo'ldik. Bu – amalga oshirilayotgan tu o'zgarishlar boshlangich bosqichining asosiy natijasidir.

Isloh qilish jarayonining boshlangich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Bu goyat masuliyatli va murakkab jarayon hisoblanadi. Umumiy strategiyaga ega bo'lmay, pirovard maqsad ko'rmay turib, iqtisodiy isloh qilishning ta'sirchan chora-tadbirlarni belgilab bo'lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning provard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlangich nuqtasi bo'lib, hizmat qiladi. Bunda biz markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski ho'jalik iuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini qayta-qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy boshqaruv tizmlarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tizimlari bidan almashinuvidir.

1. O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligiga erishish milliy davlatchiligimizni barpo etish, buning uchun mustahkam negiz yaratish manfaatlarini ko'zlab quyidagilar.iqtisodiyotning isloh qilish sohada strategik maqsadlar qilib belgilandi:

- 1) Ijtimoiy yo'nalitirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimini barpo etish:
